

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

ZAKIRXODJAEVA SH.A.

“SUG‘URTA ISHI” FANIDAN

USLUBIY QO‘LLANMA

Bakalavriyatning: 5231200 - Sug‘urta ishi ta‘lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan.

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2017**

Taqrizchilar:

«Sugʻurta ishi» fanidan uslubiy qoʻllanma (amaliy mashgʻulot oʻtish uchun) Zakirxodjaeva Sh.A. – T.:IQTOSOD MOLIYA, 2017. – 183 b.

Uslubiy qoʻllanma davlat taʼlim standartlari talablariga muvofiq tayyorlangan boʻlib, u “Sugʻurta ishi” fani mavzulari boʻyicha tayanch soʻz va iboralar, nazorat savollari, mustaqil ish mavzulari, testlar va ularning javoblari, amaliy ish oʻyinlari, glossariy va foydalanadigan adabiyotlar roʻyxatini oʻz ichiga olgan. «Sugʻurta ishi» fanidan amaliy mashgʻulot oʻtish uchun oʻquv uslubiy qoʻllanma bakalavriatning 5231200 - Sugʻurta ishi taʼlim yoʻnalishi uchun moʻljallangan.

KIRISH

“Sug‘urta ishi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar to‘plami bakalavriatning soliqlar va soliqqa tortish yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan. Mazkur amaliy mashg‘ulotlar to‘plami mamlakatimiz Fuqarolik kodeksiga hamda “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga asoslangan holda yaratilgan.

To‘plam o‘n to‘rtta mavzudan iborat bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga qamrab olib, har bir mavzu uchun turli holatlarga oid tayanch so‘z va iboralar, testlar va nazorat savollaridan iborat. Bu, o‘z navbatida, amaliy mashg‘ulot darslarini amaliy ma‘lumotlar asosida, muhokama va munozara asosida tashkil etishga imkoniyat yaratadi.

Mashg‘ulotlar to‘plamining mavzulari sug‘urta munosabatlarining paydo bo‘lishidan tortib to bugungi kungacha rivojlanish bosqichlari, sug‘urta munosabatlarining qonunlar orqali tartibga solish, sug‘urta fondlari va funksiyalari, sug‘urta tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy asoslari, sug‘urtaning majbaruy va ixtiyoriy turlari va ularni amalga oshirilishi tartibi, sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimi, sug‘urtada tarif siyosatining yuritilishi hamda sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha maqsad va vazifalar to‘g‘ri aniqlangan. Har bir bo‘limni bajarilishi bo‘yicha topshiriqlar va ko‘rsatmalar berilgan.

Uslubiy qo‘llanmaning o‘rganilishi, o‘z navbatida, sug‘urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, sug‘urta bozori tushunchasi, sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari faoliyati, sug‘urta faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari, sug‘urta faoliyatining nazariy asoslari va amaliy jihatlar bo‘yicha mos bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Mazkur uslubiy qo‘llanma orqali talabalar o‘zini-o‘zi mustaqil nazorat qilishi va bilimlarini joriy nazoratdan o‘tkazishda foydalanilishlari mumkin. Shuningdek, mazkur mashg‘ulotlar to‘plamida sug‘urta ishi va sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatiga doir, sug‘urta munosabatlarining o‘ziga xos xususiyati, mamlakatimiz sug‘urta faoliyati va uning shakllanishi, sug‘urta faoliyatining asosiy yo‘nalishlari,

sugʻurta munosabati ishtirokchilari va sugʻurta bozori infrastruktura subʻektlari oʻrtasida yuzaga keladigan jarayonlar boʻyicha tegishli maʼlumotlar keltirilgan. Bu, oʻz navbatida, talabalarga mustaqil ravishda mamlakatimizda sugʻurta faoliyati va sugʻurta bozori munosabatlarining mohiyati va oʻziga xosligi boʻyicha xulosa chiqarishda amaliy yordam koʻrsatadi va bilimlarni mustahkamlaydi.

1-MAVZU: SUG'URTANING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BOZOR MUNOSABATLARIDA TUTGAN O'RNI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Sug'urta, sug'urta munosabatlari, sug'urtalovi, sug'urtalanuvchi, sug'urta fondlari, markazlashgan davlat fondlari, sug'urta fondlaridan foydalanish, sug'urtaning funksiyalari, sug'urtaning iqtisodiyotda tutgan o'rni, fanining predmeti, moliyaviy munosabatlar, bozor iqtisodiyoti, umumiy va alohida usullar, dialektik usul, induksiya, deduksiya, tahlil va sintez usuli, ilmiy abstraksiya usuli, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy tahlil, statistik usul, taqqoslash usuli, interfaol usul.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sug'urtaning kelib chiqishi.
2. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida. Sug'urta iqtisodiy kategoriyasining muhim belgilari.
3. Sug'urta jarayonida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar. Sug'urta bozor infratuzilmasining tarkibiy qismi.
4. Sug'urta fondlari haqida tushuncha.
5. Sug'urta zahiralarini shakllanish usullari.
6. Markazlashgan sug'urta fondlari, ularning shakllanish manbalari, turlari va shakllari hamda foydalanish yo'nalishlari.
7. O'z-o'zini sug'urtalash fondlari va korxonaning moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishida uning ahamiyati.
8. O'z-o'zini sug'urtalash fondlarining afzallik va kamchilik tomonlari. Sug'urta fondlarini sug'urtalash yo'li bilan shakllantirish.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. O'zbekiston milliy sug'urta bozorining hozirgi holati va istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari.

2. O'zbekiston sug'urta faoliyatida vositachilar faoliyati, ularning faoliyatini rivojlantirish masalalari.

3. O'zbekiston sug'urta bozoriga raqobat va monopoliyaning ta'siri hamda uning tahlilini takomillashtirish.

4. Sug'urta xizmatlarining narxi, uning shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish masalalari.

5. Qishloq xo'jalik sug'urtasining o'ziga xos xususiyatlari va uning O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni hamda holati.

6. Avtotransport sug'urtasining o'ziga xos xususiyatlari, uni istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari

7. Sug'urtalash jarayonida sug'urta da'volari va ular bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish masalalari.

8. Eksport-import operatsiyalarini sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari.

9. Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash vosita va omillari hamda moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llarini takomillashtirish.

10. Sanoat korxonalarining risklari va ularni sug'urtalash mexanizmi takomillashtirish yo'nalishlari

“Sug'urta ishi” fanini o'rganishdagi usullarning qo'llanilishi.

A) dialektik usul

B) ilmiy abstraksiya usuli


S) tahlil va sintez usuli

D) makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlil usuli



KAFOLAT

<i>Baxtsiz hodisadan sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti – 30000 so'm, shartnomaning kunlar bo'yicha amal qilish davri – 365 kun, shartnoma kuchga kirgan kundan hisobot kunigacha bo'lgan kunlar soni – 85 kun.</i>	<i>J: $Hni = Bpi \times ((Ti - Mi) : Ti)$</i> Bunda Hni – Aniq shartnoma bo'yicha ishlab topilmagan sug'urta mukofoti Bpi - aniq shartnoma bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti Ti - aniq sug'urta shartnomasining kunlar bo'yicha amal qilish davri Mi – aniq sug'urta shartnomasining kuchga kirgan kundan hisobot kunigacha bo'lgan kunlar soni
---	---



Sug'urta shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan sug'urta mukofotini "pro rata temporis" usuli asosida toping?




Demak

$$Hni = 30000 \times ((365 - 85) : 365) = 22800 \text{ so'm}$$

KEYS topshiriq

<i>Sug'urtalovchi odatda sug'urta zahiralarini hisoblashda bir vaqtning o'zida qayta sug'urtaga berilgan shartnomalar bo'yicha qayta sug'urtachining mazkur zahiradagi ulushini ham hisoblab boradi. Bu hisob har bir alohida sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblanadi. N sondagi sug'urta shartnomasi bo'yicha qayta sug'urta shartnomasining brutto mukofoti -500 000 so'm, qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha olingan komission mukofot - 100 000 so'm, sug'urtalovchi tomonidan shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofot zahirasi - 300 000 so'm, sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti - 800 000 so'm.</i>	J: $Dp = ((Bpp - Kvp) \times Sr) : Bsp$ Bunda Dn – (qayta sug'urtachining ishlab topilmagan mukofot zahirasi) ulushi) Bpp – (sug'urta shartnomasi bo'yicha qayta sug'urta shartnomasining brutto mukofoti) = 500 000 so'm Kvp – (sug'urta shartnomasi bo'yicha olingan komission mukofot) = 100 000 so'm Sr – (sug'urtalovchi tomonidan shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofot zahirasi) = 300 000 so'm Bsp – (sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti) = 800 000 so'm.
--	---



TVYS
«TEMIROYO'L-SUG'URTA»
sug'urta kompaniyasi

ЎЗБЕКИНВЕСТ

ЭКСПОРТ - ИМПОРТ МИЛЛИЙ СУФУРТА КОМПАНИЯСИ

Majburiy sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi uchun jabrlanuvchiga 500 000 so'm miqdorida sug'urta qoplamasi to'ladi. Shu paytda sug'urta shartnomasining amal qilish muddatining tugashiga yana ikki oy qoldi.

J: Prd (qo'shimcha ravishda to'lanadigan sug'urta mukofoti summasi) = Pr x (Sv/Ss) x (Op x Ps)

Bunda


Pr (sug'urta mukofoti summasi) = 38000 so'm

Sv (to'langan sug'urta to'voni summasi) = 500 000 so'm

Ss (sug'urta summasi) = 6 800 000 so'm

Op (sug'urta hodisasi yuz bergan paytdan boshlab sug'urta qilishning kunlar hisobidagi qolgan davri) = 220 kun

Ps (majburiy sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan kunlar hisobidagi sug'urta qilish davri) h 365 kun



Sug'urtalanuvchi to'lashi kerak bo'lgan qo'shimcha sug'urta mukofoti miqdorini hisoblang?



$$Prd = 38000 \times (500\,000 : 6\,800\,000) \times (220 : 365) = 38000 \times 0.07 \times 0.60 = 1596 \text{ so'm}$$

KEYS topshiriq



	$J: PR = CC \times TB \times KT \times KBO \times KP/100$
	Bunda $SS = 6\,800\,000$ so'm $TB = 0.3$ $KT = 1.2$ $KP = 0.7$ <u>Sug'urta mukofoti summasi = sug'urta summasi x yillik bazaviy stavka x transport vositasidan foydalaniladigan hudud ko'effitsienti x transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmagan holdagi ko'effitsient x xorijiy transport vositasidan mavsumiy foydalanish bo'yicha sug'urta qilish muddati ko'effitsienti</u>



Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmasligi sharti bilan transport vositasidan mavsumiy foydalanish hisobga olingan holda xorijiy davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan va O'zbekiston respublikasi hududida vaqtincha foydalanilayotgan transport vositasiga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasini tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang?

MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

1. *Sug'urtada zararni sug'urta qoplash tamoyili*

Sug'urta hodisasi sodir bo'lishi natijasida yo'qotilgan qiymatliklar *zarar miqdori* deyiladi. Sug'urta hodisasi natijasidagi zarar miqdori oldindan ma'lum bo'lmaydi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelishi natijasida sug'urtalovchi tomonidan to'lab beriladigan pul miqdori zarar qoplamasi deyiladi.

Zararning sug'urta qoplamasi tamoyili asosiy sug'urta tamoyillaridan biri hisoblanadi va quyidagilardan iborat:

- sug'urta summasi sug'urtalangan ob'yektning haqiqiy bahosidan ortiqcha bo'lmaydi

- zarar miqdori sug'urtalangan ob'yektning haqiqiy bahosidan ortiqcha bo'lmaydi

- zararning sug'urta qoplamasi sug'urta summasidan ortiqcha bo'lmaydi

Sug'urta shartnomalarida zararning sug'urta qoplamasi tizimining bir nechta ko'rinishi ishlatiladi, ularning hammasi zararning sug'urta qoplamasi tamoyiliga asoslanadi.

Birinchi risk tizimi bo'yicha zararni qoplash.

Birinchi risk tizimi bo'yicha sug'urtalashda sug'urta summasidan oshib ketmaydigan zarar (birinchi risk) to'liq hajmda qoplanadi. Sug'urta summasidan oshib ketgan zarar (ikkinchi risk) esa sug'urta summasi miqdorida qoplanadi.

Masala 1. Avtomobil 16000 so'm miqdorida sug'urtalandi. Zarar miqdori 12000 so'm Birinchi risk tizimi bo'yicha sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Zarar miqdori sug'urta summasidan kamligi sababli, sug'urta qoplamasi miqdori zarar miqdoriga teng va 12000 so'm ga teng.

Javob: 12000 so'm

Masala 2. Avtomobil 16000 so'm miqdorida sug'urtalandi. Zarar miqdori 18000 so'm Birinchi risk tizimi bo'yicha sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Zarar miqdori sug'urta summasidan ortiqqligi sababli, sug'urta qoplamasi miqdori sug'urta summasiga teng va 16000 so'm ga teng.

Javob: 16000 so'm

To'liq sug'urtalanmagan holatda zararni proporsional qoplash tizimi

O'zining haqiqiy bahosidan kam miqdorda ob'yektning sug'urtalanashi to'liq sug'urtalanmagan sug'urta deyiladi.

To'liq sug'urtalanmagan sug'urta shartnomasiga ko'ra zararni qoplash zararni qoplashning proporsional tizimi bo'yicha amalga oshrilsa, zararning sug'urta qoplamasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Sug'urta qoplamasi} = \frac{\text{Sug'urta summasi}}{\text{Ob'yekt bahosi}} * \text{Zarar miqdori}$$

Va albatta, zarar miqdoridan ortiqcha bo'lmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, agar, misol uchun sug'urta summasi sug'urta ob'yektining haqiqiy bahosining 70%ini tashkil etsa, sug'urta qoplamasi ham zararning 70%ini tashkil etadi. Zararning qolgan qismi esa(bu holatda 30%) sug'urtalanovchining riskida qoladi.

Sug'urtalanovchining riskida qolgan zararning qismi *sug'urtalanovchining shaxsiy ushlanmasi* deyiladi.

Masala 3. Qiymati 20000 so'm bo'lgan avtomobil 16000 so'm ga sug'urtalandi. Zarar miqdori 12000 so'm. Zararni qoplashning proporsional tizimi bo'yicha sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Mavjud an'anaga ko'ra sug'urta qoplamasini Sb deb belgilaymiz.

$$Sb = \frac{16000}{20000} * 12000 = 9600$$

Javob: 9600 so'm

2. Franshizani nazarda tutuvchi zararni qoplash tizimi

Tuzilgan sug'urta shartnomasi shartlariga ko'ra sug'urtalanovchining qoplamasiga tegishli bo'lmagan sug'urtalanovchi zararlarining bir qismi *franshiza* deyiladi, biroq franshizani nazarda tutgan sug'urta shartnomalari to'liq sug'urtalanmagan shartnomalardan farq qiladi.

Franshiza muayyan pul miqdorida yoki sug'urta qoplamasi miqdorining qandaydir foizida belgilab qo'yiladi va shartli va shartsiz bo'lishi mumkin.

Shartli franshizada sug'urtalovchi franshizadan ortiqcha bo'lmagan miqdordagi zararlarni qoplamaydi. Agar zarar miqdori franshizadan ortiqcha bo'lsa, u to'liq qoplanadi.

Shartsiz franshizada, xuddi shartli franshizadagi kabi sug'urtalovchi franshizadan ortiqcha bo'lmagan zararlarni qoplamaydi. Agar zarar miqdori franshizadan ortiqcha bo'lsa, sug'urta qoplamasi zarar miqdori va franshiza orasidagi farqqa teng.

Franshiza tushunchasi sug'urtaga majvud franshiza miqdoridagi ahamiyatsiz zararlarni qoplashdan sug'urtalovchini ozod etish uchun kiritilgan. Odatda, ahamiyatsiz zararlar uchun franshizaning miqdori zarar miqdorini aniqlashdagi sug'urtalovchinig xarajatlariga tengdir.

Masala 2.1. Shartli franshiza 5000 so'mga teng, zarar miqdori esa 4000 so'm. Sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Zarar miqdori shartli franshizadan kam bo'lganligi sababli, zarar qoplanmaydi.

Javob: Zarar qoplanmaydi

Masala 2.2. Shartli franshiza 5000 so'mga teng, zarar miqdori esa 6000 so'm. Sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Zarar miqdori shartli franshizadan ortiq bo'lganligi sababli, u to'liq qoplanadi va qoplama 6000 so'mga teng bo'ladi.

Javob: 6000 so'm

Masala 2.3. Shartsiz franshiza 5000 so'm, zarar miqdori esa 4000 so'm. Sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Zarar miqdori shartsiz franshizadan kam bo'lganligi sababli, zarar qoplanmaydi.

Javob: Zarar qoplanmaydi

Masala 2.4. Shartsiz franshiza 5000 so'm, zarar miqdori esa 6000 so'm. Sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Sug'urta qoplamasiga ayirish orqali aniqlanadi.

$6000 \text{ so'm} - 5000 \text{ so'm} = 1000 \text{ so'm}$

Javob: 1000 so'm

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Quyidagilardan qaysi biri sug'urtaning xarakterli belgisini bildiradi?

- A) ishlab chiqarishni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash;
- B) investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- C) ijtimoiy sug'urta fondining shakllanishida ishtirok etish;
- D) yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlash.

2) Quyidagilardan qaysi biri sug'urtaviy risk hisoblanishi mumkin?

- A) biror bir shaxsning qasddan ikkinchi bir shaxsga zarar etkazishi;
- B) mulkdorning o'z mulkiga nisbatan sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lishi natijasida mazkur mulkning shikastlanishi;
- C) yong'in chiqishi natijasida ishlab chiqarish vositasining yaroqsiz holatga kelishi;
- D) haydovchining aybi bilan avtomobilning zararlanishi.

3) Shaxsiy sug'urtaning qaysi turlari ham majburiy, ham ixtiyoriy shaklda o'tkazilishini ko'rsating?

- A) fuqarolar hayotini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.
- B) tibbiyot xodimlari hayotini sug'urtasi.
- C) transportdagi yo'lovchilarning hayotini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.
- D) ishlab chiqarishda band bo'lgan fuqarolarning hayotini sug'urtasi.

4) Sug'urta nechta tarmoqqa ega? (quyidagi bandlarni birini ko'rsatish bilan bir qatorda, javobni qisqacha yozma holatda asoslang).

- A) 2 ta;
- B) 4 ta;
- C) 3 ta;
- D) 5 ta;

5) Quyidagilardan qaysi biri majburiy sug'urtani ixtiyoriy sug'urtadan farqini to'laroq anglatadi?

- A) sug'urta tarifi stavkalarini tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan belgilanishi.

B) sug'urta tarifi stavkalarini tomonlarning ishtirokisiz qonun chiqaruvchi yoki ijroiya organ tomonidan belgilanishi.

C) sug'urta summalarini sug'urta tashkiloti tomonidan yuqori darajada belgilanishi.

D) sug'urta shartnomasining o'ziga xosligi.

8) Sug'urta bozori qaysi bozorning tarkibiga kirishini aniqlang? (Javob ko'rsatilgandan so'ng uning to'g'riligini asoslang).

A) investitsiyalar bozori.

B) ssuda kapitallari bozori.

C) qimmatli qog'ozlar bozori.

D) tovarlar va xizmatlar bozori.

9) O'zbekistonda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya kerakmi? (Javobni to'g'riligini yozma shaklda asoslang).

A) ha.

B) yo'q.

C) faqat majburiy sug'urtalash uchun talabi etiladi;

D) yuqoridagi javoblarni hammasi noto'g'ri.

10) Fuqarolar ixtiyoridagi mol-mulklar qaysi tartibda sug'urtalanishini ko'rsating?

A) majburiy tartibda.

B) ixtiyoriy tartibda.

C) majburiy hamda ixtiyoriy tartibda.

D) yuqoridagi javoblarning hammasi noto'g'ri.

**TALABALARNING MAVZU BO'YICHA BILIM VA KO'NIKMALARINI
MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR**

**SUG'URTA KOMPANIYALARI USTAV KAPITALINING
MINIMAL MIQDORLARI**

Sug'urtachilar uchun ustav kapitalining eng kam MIQDORLARI		(ekvivalenti ming yevro)
Sug'urta faoliyati turlari	2012 yil 1 iyuldan	2014 yil 1 iyuldan
Umumiy sug'urta sohasida	1 125,0	1 500,0
Hayotni sug'urtalash sohasida	1 500,0	2 000,0
Majburiy sug'urtalash bo'yicha	2 250,0	3 000,0
Faqat qayta sug'urtalash bo'yicha	5 000,0	6 000,0

**SUG'URTA KOMPANIYALARI USTAV KAPITALIDAGI
O'ZGARISHLAR**

SUG'URTA BOZORI 2015 yil yakunlari bo'yicha ma'lumot mln so'm			
	2014y.	2015y.	%
UMUMIY USTAV KAPITALI, jumladan:	361 295,40	420 711,40	116
mln. so'mda	205 530,90	239 125,50	116
mln. AQSh dollarida	64,3	64,6	100

2-MAVZU: SUG'URTA MUNOSABATLARIDA QO'LLANILADIGAN IBORA VA TUSHUNCHALAR

Quyidagi atamalarga izoh bering: Sug'urta bozori, sug'urta vositachilari, sug'urta hodisasi, sug'urta qoplamasi, sug'urta mukofoti, sug'urta polisi, sug'urta shartnomasi, sug'urta dalolatnomasi, franshiza, anderrayter, kargo, kasko, mulkiy sug'urta, ixtiyoriy sug'urta, majburiy sug'urta, shaxsiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi, aktuariy, abandon, broker, adjaster, syurveyr.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sug'urta fanini o'rganishda ibora va tushunchalarning ahamiyati.
2. Sug'urta zahiralarini shakllanishi bilan bog'liq atama va tushunchalar.
3. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi. Sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi.
4. Sug'urta ob'ekti va sub'ekti. Sug'urta tarifi va sug'urta mukofoti.
5. Sug'urta munosabatlarida qatnashuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini anglatuvchi iboralar.
6. Sug'urta zahiralaridan foydalanish bilan bog'liq atama va tushunchalar.
7. Sug'urta hodisasi. Sug'urta summasi va sug'urta qoplamasi. Sug'urta javobgarlik hajmi. Sug'urta riski. Sug'urta dalolatnomasi. Franshiza.
8. Chet mamlakatlarda sug'urta ishini tashkil etish bilan bog'liq tushunchalar. Xalqaro sug'urta tashkilotlari orqali kiritilgan atamalar: "Yashil karta", "SIF", "KAF" va boshqa atamalar.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Kasbiy javobgarliklarin sug'urtalash mexanizmining hozirgi holati va istiqbolda takomillashtirish yo'nalishlari.
2. Mahalliy sug'urta bozorlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari.
3. Umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta zahiralarini shakllanish mexanizmi va muammolari.

4. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy resurslari va ulardan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish.

5. Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

6. Sug'urta operatsiyalari buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari va uni takomillashtirish yo'nalishlari.

7. Investitsiya risklarini sug'urtalash mexanizmini uni takomillashtirish yo'llari

8. O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta va uni rivojlantirish masalalari.

9. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari.

10. Umumiy sug'urta sohasida tarif siyosati, aktur hisob-kitoblar va uni takomillashtirish.

MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

1. Tadbirkorlik riskini me'yoriy javobgarlik tizimi bo'yich sug'urtalash

Tadbirkorlik riskini me'yoriy javobgarlik tizimi bo'yich sug'urtalash quyidagi sxema asosida amalga oshiriladi:

Sug'urtalanovchi va sug'urtalovchi ekspert xulosalari, yillar mobaynida yig'ilgan statistic ma'lumotlarga asoslangan holda, sug'urtalanishi kutilayotgan tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarni bashorat qiladi.

Agar sug'urta shartnomasida keltirilgan vaqt oralig'i tugaganda sug'urtalangan tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad bashorat qilinganidan kam bo'lmasa, sug'urta hodisasi ro'y bermagan deb topiladi va sug'urta qoplamasi to'lanmaydi. Agar sug'urta shartnomasida keltirilgan vaqt oralig'i tugaganda sug'urtalangan tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad bashorat qilinganidan kam bo'lsa, tadbirkorlik faoliyatidan zarar quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$\boxed{\text{Zarar}} = \boxed{\text{Bashoratlangan daromad}} - \boxed{\text{Olingan daromad}}$$

Bu yerda olingan daromad ham musbat, ham manfiy miqdorlarni qabul qilishi mumkin.

Agar sug'urtalovchining javobgarlik darajasi $a\%$ qilib belgilangan bo'lsa, sug'urta qoplamasi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\boxed{\text{Sug'urta qoplamasi}} = \boxed{\text{Zarar}} * \frac{a}{100}$$

Masala 1. Kompyuter firmasi 10000 ta notebookni ishlab chiqarish va sotishdan tushgan daromadni me'yoriy javobgarlik tizimi bo'yicha sug'urtaladi, shuningdek sug'urtalovchining sug'urtalovchining javobgarlilik chegarasi zararning miqdorining 40% qilib belgilandi. Sug'urtalovchi bilan bitta kompyuter realizatsiyasi o'rtacha bahosi 1460 y.e.ga kelishildi, biroq 2000 ta notebook 1500 so'mdan, 3000 ta notebook 1450 y.e.dan, 5000 ta notebook esa 1400 so'mdan realizatsiya qilindi. Sug'urta qoplamasini aniqlang:

Echish. Notebooklar realizatsiyasidan daromad D bashorat qilindi

$$D = 10000 * 1460 = 14600000 \text{ y.e.}$$

Haqiqatda esa firma bu notebooklarni quyidagi summada realizatsiya qilindi

$$R = 2000 * 1500 + 3000 * 1450 + 5000 * 1400 = 14350000$$

Zarar U ni quyidagi formula orqali aniqlaymiz(1.5.1):

$$U = D - R = 14600000 - 14350000 = 250000(\text{y.e.})$$

Endi formula (1.5.2) orqali sug'urta qoplamasini aniqlaymiz Sb :

$$Sb = 250000 * 0.4 = 100000$$

Javob: 100000 y.e.

Masala 2. Bank mijozga 1 yil muddatga 10% lik stavka bilan 100000 so'm kredit ajratdi. Kreditni qaytarmaslik riski me'yoriy javobgarlilik tizimi bo'yicha sug'urtalandi, shuningdek sug'urtalovchining javobgarlilik chegarasi zararning miqdorining 30% qilib belgilandi. Kreditni qaytarmaslik holatida sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Dastlab kreditni qaytarmaslik holatida bankning zararini U ni aniqlaymiz. Quyidagi formula(1.5.1) bo'yicha hisoblaymiz

$$U = 100000 * 0.1 - (-100000) = 110000 (\text{so'm})$$

Endi formula(1.2.2) bo'yicha Sb sug'urta qoplamasini aniqlaymiz:

$$Sb = 110000 * 0.3 = 33000(\text{so'm})$$

Javob: 33000 so'm

Masala 3. Qarzdor 01.01.07da 1yil muddatga 21%lik yillik stavka bilan bankdan 800000\$ kredit oldi. Kredit to'lovi(foizlar bilan birga) har kvartalda teng miqdorlarda to'lab borilishi kerak. Bank kreditning qaytmaslik riskini sug'urtaladi. Sug'urtalovchining javobgarlik chegarasi – 90%, sug'urta mukofoti sug'urta summasining 3.5%ini tashkil etadi. Sug'urta mukofoti kvartallik sug'urta badallari orqali bo'lib-bo'lib to'lanadi, bo'lib to'langanligi uchun komission to'lov olinmaydi. Sug'urta badallarining grafigini tuzing.

Echish. Dastlab qarzdor bankka qaytarishi kerak bo'lgan umumiy K summani va foiz to'lovi P ni aniqlaymiz:

$$K = 800000 * 1.21 = 968000 ,$$

$$P = 800000 * 0.21 = 168000 .$$

Qarzdor har kvartalda asosiy qarzning quyidagi summasini to'lab borishi kerak

$$\frac{K}{4} = \frac{800000}{4} = 200000$$

Foiz to'lovi esa quyidagi summada

$$\frac{P}{4} = \frac{168000}{4} = 42000$$

Endi kreditni to'lash grfigini tuzsak bo'ladi.

1-Jadval.

Sana	31.03	30.06	30.09	31.12
Asosiy qarzni so'ndirish	200000	200000	200000	200000
Asosiy qarzning umumiy summasi	800000			
Foiz to'lovlari	42000	42000	42000	42000
Foiz to'lovlarining umumiy summasi	168000			
So'ndirish summasi	242000	242000	242000	242000
Umumiy qaytim summasi	968000			

Shuningdek sug'urta badallari hisobini ham jadvalda ko'rsatish qulaydir

2- Jadval.

Sana	31.01	31.03	30.06	30.09	31.12
Asosiy summa bo'yicha qarzidorlik	800000	600000	400000	200000	0
Foiz to'lovi bo'yicha qarzidorlik	168000	126000	84000	42000	0
Umumiy qarzidorlik	968000	726000	484000	242000	0
Sug'urta summasi	871200	653400	435600	217800	0
Sug'urta badallari	30492	22869	15246	7623	0
Sug'urta mukofoti	76230				

Jadval 1. dagi “Asosiy summa bo'yicha qarzidorlik”, “Foiz to'lovi bo'yicha qarzidorlik” va “Umumiy qarzidorlik” qatorlaridagi raqamli ma'lumotlar kreditni to'lovi har kvartalda teng miqdorlarda to'lanishidan kelib chiqqan.

“Sug'urta summasi” qatoridagi raqamli ma'lumotlar “Umumiy qarzidorlik” qatoridagi raqamli ma'lumotlarni 0.9(sug'urtalovchining javobgarlik chegarasi – 90%) soniga ko'paytirish orqali aniqlangan.

“Sug'urta badallari” qatoridagi raqamli ma'lumotlar “Sug'urta summasi” qatoridagi raqamli ma'lumotlarni 0.35(sug'urta tarifi – 3.5%) soniga ko'paytirish orqali aniqlangan.

“Sug'urta mukofoti” qatoridagi raqamli ma'lumotlar “Sug'urta badallari” qatoridagi raqamli ma'lumotlarni qo'shish orqali aniqlangan.

“Sug'urta badallari” va “Sug'urta mukofoti” badallarini alohida 2- jadvalga moslashtirish orqali masala javobini olamiz.

Javob: Sug'urta badallari grafigi 2-jadvalda keltirilgan

Sana	31.01	31.03	30.06	30.09	31.12
Sug'urta badali	30492	22869	15266	7623	0
Sug'urta mukofoti	76230				

Masala 4. Korxonaning 25 mln. soʻmlik mulki 1 yil muddatga bir yoʻla ikkita sugʻurta kompaniyasida sugʻurtalangan boʻlib, birinchi sugʻurta kompaniyasida tuzilgan sugʻurta shartnomasining sugʻurta summasi 12 mln. soʻm va ikkinchi sugʻurta kompaniyasida tuzilgan sugʻurta shartnomasining sugʻurta summasi 15 mln soʻm. Koʻrilgan zarar summasi 21 mln. soʻm.

Har bir sugʻurta kompaniyasi qanchadan miqdorda sugʻurta qoplamasi toʻlashini hisoblang?

Echish:

1) birinchi sugʻurtalovchi toʻlaydigan sugʻurta qoplamasi:

$$W = (12 \text{ mln.} : (12 \text{ mln.} + 15 \text{ mln.})) \times 21 \text{ mln.} = 9 \text{ mln. } 335 \text{ ming soʻm}$$

2) ikkinchi sugʻurtalovchi toʻlaydigan sugʻurta qoplamasi:

$$W = (15 \text{ mln.} : (12 \text{ mln.} + 15 \text{ mln.})) \times 21 \text{ mln.} = 11 \text{ mln. } 665 \text{ ming soʻm}$$

Masala 5. Haydovchining ish stajidan kelib chiqqan holda tarif stavkalari quyidagicha (sugʻurta summasiga nisbatan foizda): 1 yilgacha 5.8 %, 1 yildan 5 yilgacha – 3.6 %, 5 yildan 10 yilgacha – 2.9 %. Agar transport korxonasida 1 yilgacha staj bilan ishlayotgan haydovchilar -4 kishi, 1 yildan 5 yilgacha staj bilan ishlayotgan haydovchilar – 3 kishi, 5 yilda 10 yilgacha staj bilan ishlayotgan haydovchilar 2 kishi boʻlsa ixtiyoriy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta mukofoti hajmini aniqlang. Har bir haydovchi uchun sugʻurta summasi 5 mln. soʻm

Echish:

$$4 \times 5 \times (5.8 : 100) + 3 \times 5 \times (3.6 : 100) + 2 \times 5 \times (2.9 : 100) = 1 + 0.54 + 0.29 \\ = 1 \text{ } 830 \text{ } 000 \text{ soʻm}$$

Masala 6. Samolyot avariya natijasida 32 ta yoʻlovchi va 6 ta ekipaj aʼzolari vafot etdi va 296 kg bagaj va qoʻl yuklari yoʻqotildi.

Agar ekipaj aʼzolari, yoʻlovchilar va yuklar tashuvchi tomonidan eng kam ish haqi qoidasi boʻyicha majburiy sugʻurtalangan boʻlsa, vafot etganlarning oila – aʼzolariga toʻlanadigan sugʻurta qoplamasini aniqlang?

Echish:

$38 \times 1000 + 296 \times 2 + 32 \times 10 = 38000 + 592 + 320 = 38912$ eng kam ish haqi
ya'ni $\times 107000$ so'm = 4 mlrd.163 mln. 584 ming so'm.

Masala 7. Korxona bankdar 15 mln. kreditni yillik 24 foiz ustama bilan 8 oy muddatga oldi va bank oldidagi o'z javobgarligini sug'urta kompaniyasida sug'urta qildi. Sug'urtalovchining javobgarligi 60 foiz., tarif stavkasi 2,5 foiz. Sug'urta summasi va sug'urta mukofotini hisoblang?

Echish:

1) Sug'urta summasi

$$S_n = (15 \text{ mln.} + 15 \text{ mln.} \times 0,24 \times (8 : 12)) \times 0,6 = 10\,425\,600 \text{ so'm.}$$

2) Sug'urta mukofoti

$$V = 10425600 \times 0.025 = 260\,640 \text{ so'm}$$

Masala 8. 60 mln. qiymatga ega bo'lgan bitta ob'ekt bitta sug'urta shartnomasi bilan uchta sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalandi. Bunda birinchi sug'urtachi 25 mln. so'mlik javobgarlikni, ikkinchi sug'urtachi 20 mln. so'mlik javobgarlikni va uchinchi sug'urtachi 15 mln. so'mlik javobgarlikni o'z zimmasiga oldi. Sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida ob'ektga 18 mln. so'mlik zarar etdi.

Har bir sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasi hajmini aniqlang?

Echish:

Birinchi sug'urtalovchining to'laydigan sug'urta qoplamasi

$$18 \text{ mln.} \times (25 \text{ mln.} : 60 \text{ mln.}) = 7\,380\,000 \text{ so'm}$$

Ikkinchi sug'urtalovchining to'laydigan sug'urta qoplamasi

$$18 \text{ mln.} \times (20 \text{ mln.} : 60 \text{ mln.}) = 5\,940\,000 \text{ so'm}$$

Uchinchi sug'urtalovchining to'laydigan sug'urta qoplamasi

$$18 \text{ mln.} \times (15 \text{ mln.} : 60 \text{ mln.}) = 4\,500\,000 \text{ so'm}$$

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Sug'urta shartnomasi kimlar o'rtasida tuziladi?

- A) sug'urta brokeri va mijoz o'rtasida.
- B) sug'urtalanuvchi va sug'urta nazorati o'rtasida.
- C) sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida.
- D) yuqoridagi javoblarni hammasi noto'g'ri.

2) Hayotni sug'urtalashda sug'urta mukofoti qaysi muddatlarda to'lanishi mumkin?

- A) sug'urta shartnomasi tuzilmasdan oldin.
- B) sug'urta shartnomasi tuzilgandan keyin to shartnoma muddati tugagunga qadar.
- C) sug'urta hodisasi ro'y bergandan so'ng.
- D) sug'urta shartnomasi bekor etilgandan so'ng.

3) Sug'urta mukofoti qaysi usulda to'lanmaydi?

- A) natura hisobida.
- B) naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan.
- C) naqd pul bilan.
- D) omonat daftarchasi orqali pul o'tkazish yo'li bilan.

4) Quyidagi toifadagi qaysi fuqarolar bilan hayotni sug'urtalash bo'yicha shartnomalar tuzilmaydi?

- A) 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan fuqarolar bilan.
- B) ishlamaydigan 1- guruh nogironlari bilan.
- C) maktab o'quvchilari bilan.
- D) yuqoridagi javoblarning hammasi noto'g'ri.

5) Soliq xodimlarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash qaysi sug'urta tashkiloti tomonidan o'tkaziladi?

- A) «Kafil» sug'urta kompaniyasi tomonidan.
- B) «O'zbekinvest» Milliy eksport-import sug'urta kompaniyasi tomonidan.
- C) «Kafolat» AJ sug'urta kompaniyasi tomonidan.
- D) «O'zagrosug'urta» AJ sug'urta kompaniyasi tomonidan.

6) Hayotni sug'urtalashda sug'urta summasi qanday aniqlanadi?

- A) sug'urtalanuvchining tashabbusi asosida.
- B) sug'urtalovchining fikri bilan.
- C) sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'zaro kelishgan holda.
- D) yuqoridagilarning hammasi noto'g'ri.

7) Quyidagilardan qaysi biri mulkiy sug'urta tarmog'iga mansub?

- A) yo'lovchilarning hayotini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.
- B) auditorlarning xo'jalik sub'ektlariga zarar keltirish mas'uliyatini sug'urtasi.
- C) fuqarolarning shaxsiy avtomobillarini ixtiyoriy sug'urtalash.
- D) qarz oluvchilarning bank kreditini o'z vaqtida qaytarib bermaslik mas'uliyatini sug'urtalash.

8) Lloyd sug'urta bozori qaysi davlatda joylashgan?

- A) Tailandda.
- B) AQShda.
- C) Angliyada.
- D) Yaponiyada.


9) Sug'urta zahirasini tashkil topish manbasini aniqlang?

- A) bank kreditlari.
- B) davlat byudjetining mablag'lari.
- C) sug'urta mukofotining bir qismi.
- D) yuqoridagi javoblarning hammasi noto'g'ri.


10) Sug'urta tarifi stavkasiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A) sug'urta bozoridagi raqobat.
- B) aholining zichligi.
- C) byudjet kamomadi.
- D) Markaziy bankning pul-kredit siyosati.


TALABALARNING MAVZU BO‘YICHA BILIM VA KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR




**1-rasm. O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta turlari bo‘yicha
yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari**



**2-rasm. “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan jami yig‘ilgan sug‘urta
mukofotlarining miqdori va tarkibi (mln. so‘mda)**



3-rasm. “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan jami sug‘urtalangan ob‘ektlar soni va tarkibi (dona hisobida)



4-rasm. “O‘zagrosug‘urta” AJ tomonidan jami to‘langan sug‘urta tovonlari miqdori va tarkibi (mln so‘m hisobida)

3-MAVZU: SUG'URTA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA SUG'URTA KOMPANIYALARINING TASHKILIY-HUQUQIY SHAKLLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati. Sug'urta huquqi va uning mazmuni. Sug'urta qonunchiligi va uning tarkibiga kiruvchi asosiy qonunchilik hujjatlari. Umumiy sug'urta qonunchiligi. Maxsus sug'urta qonunchiligi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sug'urta munosabatlarining aks ettirilishi. Sug'urta qonunchiligida Fuqarolik kodeksining tutgan o'rni va ahamiyati. Fuqarolik kodeksi 52-bobidagi ayrim moddalarning talqini va amaliyotda qo'llanilishi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sug'urta qonunchiligi va uning tarkibiga kiruvchi asosiy qonunchilik hujjatlari. Umumiy sug'urta qonunchiligi. Maxsus sug'urta qonunchiligi.

2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sug'urta munosabatlarining aks ettirilishi.

3. Sug'urta qonunchiligida Fuqarolik kodeksining tutgan o'rni va ahamiyati.

4. Fuqarolik kodeksi 52-bobidagi ayrim moddalarning talqini va amaliyotda qo'llanilishi.

5. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni: uning tuzilishi va mazmuni. Ushbu qonunda sug'urta tashkilotlari va maxsus vakolatli davlat organi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yoritilishi.

6. Sug'urtani klassifikatsiyalashning zarurligi.

7. Sug'urta tarmoqlari: mulk sug'urtasi, shaxsiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi.

8. Sug'urta klassifikatorining mazmuni va tarkibi. Sug'urta klasslari.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. O'zbekistonda tibbiy sug'urtani tashkil etish mexanizmi va unda hal etiladigan muammolari.
2. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash mexanizmi va rivojlantirish masalalari.
3. O'zbekistonda sug'urta tarmoqlari va ularni samarali tashkil etish yo'llari.
4. Sug'urta - bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini va uni rivojlantirish yo'llari
5. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini rejalashtirish va byudjetlashtirish masalalari.
6. Moliyaviy risklar va ularni sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish masalalari.
7. O'zbekistonda sug'urta marketingining tashkiliy asoslari va uni rivojlantirish masalalari.
8. Investitsiya loyihalarining risklari va uni sug'urtalash mexanizmini rivojlantirish masalalari.
9. Tashqi iqtisodiy faoliyatning risklari, uni sug'urtalash mexanizmlarini tashkil etish asoslari.
10. Sug'urta bozorida raqobat va uni rivojlantirish yo'llari.
11. Hayot sug'urtasida tariflarni ishlab chiqish uslubiyoti va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
12. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyati, uning tashkiliy-huquqiy asoslari va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
13. O'zbekistonda hayot sug'urtasi tarmog'ini rivojlantirish yo'nalishlari.
14. Tadbirkorlik risklari, ularni sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish.
15. Javobgarlik risklarini sug'urtalashning halqaro amaliyoti va uni



AGRO INVEST SUG'URTA

Суғурта компанияси

Korxona bankdan 15 mln. kreditni yillik 24 foiz ustama bilan 8 oy muddatga oldi va bank oldidagi o'z javobgarligini sug'urta kompaniyasida sug'urta qildi. Sug'urtalovchining javobgarligi 60 foiz., tarif stavkasi 2,5 foiz.

Bunda

S_n - Sug'urta summasi

V - Sug'urta mukofoti

Sug'urta summasi va
sug'urta mukofotini hisoblang?



Demak

$$S_n = (15 \text{ mln.} + 15 \text{ mln.} \times 0,24 \times (8 : 12)) \times 0,6 = 10\,425\,600 \text{ so'm.}$$

$$V = 10425600 \times 0.025 = 260\,640 \text{ so'm}$$

KEYS topshiriqlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi jamiyatning mulkini sug'urtalash shartnomasi bo'yicha 10 ming so'mlik shartli franshiza ko'zda tutilgan.

Agar etkazilgan zarar quyidagicha bo'lganda

- a) 950 ming so'm;
- b) 2700 ming so'm.

qancha miqdorda
qoplama to'lanishini
hisoblang:



Majburiy sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi uchun jabrlanuvchiga 700 000 so'm miqdorida sug'urta qoplamasi to'ladi. Shu paytda sug'urta shartnomasining amal qilish muddatining tugashiga yana ikki oy qoldi.

J: Prd (qo'shimcha ravishda to'lanadigan sug'urta mukofoti summasi) = Pr x (Sv/Ss) x (Op x Ps)

Bunda

Pr (sug'urta mukofoti summasi) = 40000 so'm

Sv (to'langan sug'urta to'voni summasi) = 700 000 so'm

Ss (sug'urta summasi) = 6 500 000 so'm

Op (sug'urta hodisasi yuz bergan paytdan boshlab sug'urta qilishning kunlar hisobidagi qolgan davri) = 220 kun

Ps (majburiy sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan kunlar hisobidagi sug'urta qilish davri) h 365 kun

Sug'urtalanuvchi to'lashi kerak bo'lgan qo'shimcha sug'urta mukofoti miqdorini hisoblang?



$$\text{Prd} = 40000 \times (700\,000 : 6\,500\,000) \times (220 : 365) = 40000 \times 0.07 \times 0.60 = 2596 \text{ so'm}$$



KAFOLAT

KEYS topshiriqlar

Sug'urta shartnomasiga ko'ra sug'urta qiymati – 2 mln. so'm, sug'urta summasi – 900 ming so'm, shartli franshiza – 15 ming so'm.

Zarar:

A) 12 ming so'm

Zarar:

B) 18 ming so'm



To'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini aniqlang?

MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

1.Ekvivalentlik printsipli xavfi va uning tatbig'i.

Bir martalik sug'urta mukofotining tuzilishi.

Sug'urta tariflari (tarif stavkasi, yalpi darajasi) birligi uchun sug'urta summasi tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlariga aytiladi. Sug'urta summasi birligi sifatida odatda 100 so'm olinadi. Shunday qilib,

$$Sug'urta\ ta'rifi(so'm) = \frac{Sug'urta\ mukofoti(so'm)}{Sug'urta\ summasi(so'm)} * 100(so'm) \quad (1)$$

Boshqa tomondan, sug'urta darajasi ma'lum bo'lsa, u holda

$$Sug'urta\ mukofoti(so'm) = \frac{Sug'urta\ tarifi(so'm)}{100\ so'm} * Sug'urta\ summasi(2)$$

Masala uchun, sug'urta darajasi (T_{darajasi} deb yuritiladi) so'm bo'lsa bundan tashqari, sug'urta mukofoti sug'urta summasining $a\%$ ni tashkil etadi. Shuning uchun, sug'urta stavkalari ko'pincha sug'urta summasiga foizi sifatida o'rnatiladi. Bir necha asrlardan buyon xalqaro sug'urta amaliyotida natijasida sug'urta mukofotining tuzilishi quyidagini tashkil etdi:

$$Sug'urta\ mukofoti(so'm) = Netto\ mukofot * Yuklama \quad (3)$$

Sug'urta yuki sug'urtalovchi uchun foyda va uning biznes boshqaruvi xarajatlarini shakllantirish uchun mo'ljallangan. Yuk ish haqi uchun mablag'larni, binolar, xizmatlar, uskunalar sotib olish, reklama xarajatlari va hokazo ta'minlash imkonini beradi. Sug'urta yuki, shuningdek, sug'urta xavfli turlari bo'yicha bo'sh pul mablag'larini shakllantirish va baxtsiz hodisalarning oldini olish va ular tomonidan yetkazilgan zararni kamaytirish uchun chora-tadbirlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi. Sug'urta yukini moliyalashtirish va sug'urtalovchining boshqa xarajatlari uchun ishlatilishi mumkin. Sug'urta yuki hajmi sug'urta bozorida tarif sug'urtalovchining siyosati, shuningdek, raqobati bilan belgilanadi.

Netto sug'urta mukofoti ikki qismdan iborat:

$$Netto\ mukofot = Risk\ mukofoti + Risk\ yuklamasi \quad (4)$$

Xavf mukofoti nisbati yordamida hisoblab chiqilgan

$$\text{Risk mukofoti} = \text{Sug'urta summasi} * \text{Sug'urta hodisasi sodir bo'lishining chastotasi} \quad (5)$$

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi xatar ekvivalent tamoyilini oddiy varianti hisoblanadi.

Sug'urta chastotasi muayyan davrda yuzaga keladi, bu turdagi sug'urta shartnomalarining umumiy soni sug'urta hodisalari sodir bo'lish paytidagi sonining nisbati bilan aniqlanadi. Xavf hozirda matematik statistika va ehtimollik nazariyasi usullari bilan baholanmoqda. Risk uchun mukofot joriy maqsadi sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish hisoblanadi. Xavf oshishi bilan zarar yuzaga kelganda, sug'urta da'volari hajmini to'lashni ta'minlash uchun mablag ' ishlab chiqarish uchun sug'urtalovchilar tomonidan ishlatiladigan o'rtacha darajadan yuqori statistik hisoblamalar ishlatiladi.

Navbatdagi paragraf ana shu prinsplni bayon qilishga bag'ishlangan.

Aniq bir vaqt oralig'ida yuz bergan sug'urta hodisalari sonining shu sug'urta turi bo'yicha tuzilgan shartnomalar umumiy soniga nisbati sug'urta hodisasining ro'y berish chastotasi deb ataladi.

Tavakkalchilik ustamasi ehtimollar nazariyasi va matematik statistika metodlari yordamida baholanadi. Tavakkalchilik ustamasini kiritishdan maqsad esa sug'urta operatsiyasining iqtisodiy barqarorligini oshirishdan iboratdir.

Tavakkalchilik ustamasi zarar ko'rilganda qiymati odatda o'rtacha statistik miqdordan oshib ketuvchi sug'urta tovonini to'lashga imkon beruvchi fondni shakllantirish uchun sug'urtachi tomonidan foydalaniladi.

2.Tavakkalchilikning ekvivalentlik prinsplining sodda varianti.

Sug'urtachining sug'urta portfelidagi bir xil sug'urta shartnomalar soni n bo'lsin, R_p esa ana shu sug'urta shartnomalarining har biridan olinadigan tavakkalchilik mukofoti, S esa ana shu ko'rsatilgan shartnomalarning sug'urta summasi bo'lsin.

Faraz qilaylik, tavakkalchilik va sug'urta mukofotlari teng bo'lsin, ya'ni og'irlik va tavakkalchilik ustamasi nolga teng deb qayd qilinadi.

Ekspertiza natijalariga va statistik ma'lumotlarga asoslanib, bir qancha yillar mobaynida to'plangan sug'urtachi n ta bir xil sug'urta shartnomasiga ega bo'lgan holda, mumkin bo'lgan m ta sug'urta holati sonini aniqlash mumkin bo'ladi (albatta, taxminan).

U holda bu shartnomalar bo'yicha sug'urta egasi $R_p * n$ gat teng pul summasini tavakkal qiladi, sug'urta idorasi esa $S * m$ ga teng summadagi pulni tavakkal qiladi.

Agar biz sug'urta egasi va sug'urta idorasi tavakkalchiligi ekvivalenti deb olsak, ya'ni ular tavakkal qilgan pul summolari teng desak, u holda $R_p * n = S * m$ munosabat hosil bo'ladi.

Bundan esa:
$$R_p = \frac{S * m}{n}, \quad (1)$$

munosabat hosil bo'ladi, bu munosabat esa agar sug'urta summasi S va sug'urta hodisasini ro'y berish chastatasi $\frac{m}{n}$ aniq bo'lsa, tavakkalchilik mukofoti R_p ni hisoblashga imkon beradi. (1) munosabatning grafik tasviri (1) munosabat bo'ladi.

Masala 1. Narxi 20000 shartli birlik (sh.b) bo'lgan avtomobil kasko sistemasiga asosan sug'urta qilingan. Sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimoli 5% tavakkalchilik mukofotini toping.

Echish. Bu Masalada sug'urtachi va sug'urta qilinuvchi tavakkalchiligining kuchaytirilgan variantidan foydalanishga xojat yo'q va tavakkalchilik mukofoti R_p ni sug'urtachi va sug'urta qilinuvchi tavakkalchiligi ekvivalentligining sodda variantidan foydalangan holda aniqlash mumkin:

$$R_p = 20000 * 0.05 = 1000 \text{ (sh.b).}$$

Javob: 1000 sh.b

Masala 2. Obyektning sug'urta bahosi 20 mln sh.b. Obyektning yil davomida bo'rondan shikastlanish ehtimoli 3% ga, toshqindan zararlanish ehtimoli 2%, yong'indan zararlanish ehtimoli esa 1% gat teng. Ushbu uch xavfning barchasi bir-biriga bog'liq emas.

Toping:

1. Agar obyekt ana shu ofatlarning hech bo'lmaganda bittasidan sug'urta qilingan holda tavakkalchilik mukofotini.

2. Agar obyekt bir vaqtning o'zida uchala ofatning hammasidan sug'urta qilingani holda, tavakkalchilik mukofotini toping.

Echish. B_1, B_2 va B_3 orqali mos ravishda obyektning bo'rondan, toshqindan va yong'indan shikastlanish xavfini belgilaymiz. A_1 orqali shu xavflardan hech bo'lmaganda birining ro'y berishini, A_2 orqali esa uch xavfning barchasini ro'y berishini belgilaymiz. Ma'lumki $\bar{A}_1 = \bar{B}_1 * \bar{B}_2 * \bar{B}_3$,

U holda: $P(B_1)=0.03$, $P(B_2)=0.02$, $P(B_3)=0.01$,
tengliklardan foydalangan holda

$P(\bar{A}_1) = P(\bar{B}_1) * P(\bar{B}_2) * P(\bar{B}_3) = (1-P(B_1)) * (1-P(B_2)) * (1-P(B_3)) = (1-0,03) * (1-0,02) * (1-0,01) = 0,941094$ ga ega bo'lamiz.

Shuning uchun

$$P(A_1) = 1 - P(\bar{A}_1) = 1 - 0,941094 = 0,058906.$$

Shunday qilib, agar obyekt A_1 hodisasining ro'y berish hodisasidan sug'urta qilingan bo'lsa, tavakkalchilik mukofoti

$$Rp_1 = 20000 * 0,058906 = 1178120 \text{ (sh.b.)}$$

Xuddi sho'nga o'xshash mulohazalardan

$$A_2 = B_1 * B_2 * B_3,$$

U holda

$$P(A_2) = P(B_1 * B_2 * B_3) = P(B_1) * P(B_2) * P(B_3) = 0,03 * 0,02 * 0,01 = 0,000006$$

Demak, obyekt A_2 xavf ro'y berishidan sug'urta qilingan holda, tavakkalchilik mukofoti $20\,000\,000 * 0,000006 = 120$ (sh.b.).

Javob: Obyekt hech bo'lmaganda birorta xavf ro'y berishidan sug'urta qilingani holda, tavakkalchilik mukofoti esa 1178120 (sh.b.) gat eng bo'ladi.

Agar obyekt uchala ofatdan sug'urta qilingan holda tavakkalchilik mukofoti esa 120 (sh.b.) ga teng.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Sug'urta tarifi stavkasiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A) sug'urta bozoridagi raqobat.
- B) aholining zichligi.
- C) byudjet kamomadi.
- D) Markaziy bankning pul-kredit siyosati.

2) Sug'urta nechta tarmoqqa ega? (quyidagi bandlarni birini ko'rsatish bilan bir qatorda, javobni qisqacha yozma holatda asoslang).

- A) 2 ta;
- B) 4 ta;
- C) 3 ta;
- D) 5 ta;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan qaysi qonunlarda sug'urtaga taalluqli modda yoki boblar mavjud?

- A) «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunda.
- B) «Savdo va sanoat palatasi» to'g'risidagi Qonunda.
- C) «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda.
- D) to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

4) Quyidagilardan qaysi biri markazlashgan sug'urta fondining manbalari hisoblanadi?

- A) tijorat banklarining kreditlari.
- B) aholining vaqtincha bo'sh mablag'lari.
- C) umumdavlat resurslari.
- D) xorijiy mamlakatlardan jalb qilingan mablag'lar.

5) Sug'urta tarifi stavkasi nima?

- A) sug'urta riskining bahosi.
- B) bank foizi.
- C) sug'urta kompaniyasining majburiyati.
- D) sug'urta shartnomasini tuzish.

6) Quyidagilardan qaysi biri tsessiya hisoblanadi?

- A) riskni taqsimlash.
- B) riskni qayta sug'urtalash kompaniyasiga uzatish.
- C) riskni boshqa kompaniyalardan qabul qilib olish.
- D) yuqoridagi javoblarning hammasi noto'g'ri.

7) Quyidagilardan qaysi biri sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi?

- A) sug'urtalash tartibi.
- B) investitsiya faoliyatini olib borish.
- C) sug'urtalangan ob'ektlarning miqdori.
- D) ob'ektlarni sug'urtaviy baholash.

8) Anderrayter nima?

- A) sug'urta zararlarini aniqlaydigan shaxs.
- B) sug'urta riskini qabul qilib oluvchi sug'urta kompaniyasining tegishli vakolatiga ega shaxs.
- C) sug'urta shartnomasini tuzuvchi shaxs.
- D) qayta sug'urtalovchi kompaniya.

9) Quyidagilardan qaysi biri ixtiyoriy sug'urtalash shartnomasining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi?

- A) sug'urta zahirasi shakllantirish tartibi.
- B) sug'urta kompaniyasini boshqarish.
- C) sug'urtalanadigan ob'ekt.
- D) yuqoridagi javoblarning hammasi noto'g'ri.

10) Sug'urta marketingining asosiy funktsiyasi nimalardan iborat?

- A) sug'urta kompaniyasining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish.
- B) yangi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirish.
- C) sug'urta tarifi stavkasini belgilash.
- D) sug'urta hodisasi ro'y berish ehtimoliyligini aniqlash.

TALABALARNING MAVZU BO‘YICHA BILIM VA KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR

Sug‘urta faoliyati KLASSIFIKATORI

1. Hayotni sug‘urta qilish tarmog‘i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug‘urta qilish shartlari bo‘yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug‘urta summolari to‘lash bo‘yicha sug‘urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug‘urta qilish turlari jami: - sug‘urta qilinuvchining sug‘urta muddati tamom bo‘lgungacha yoki sug‘urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; - sug‘urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug‘urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to‘lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug‘ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug‘ilganda sug‘urta summasi to‘lanishini ta‘minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug‘urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish	Umrbod renta to‘lanishi bilan birgalikda hayotni sug‘urta qilish turlari jami
IV klass	Sog‘liqni sug‘urta qilish	Ko‘rsatib o‘tilgan sug‘urta davri kamida besh yildan kam bo‘lmagan muddatga yoki sug‘urta qilinuvchining pensiya yoshiga etguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo‘qotganda sug‘urta summolari to‘lanishini ta‘minlovchi hayotni sug‘urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko‘rsatilgan sug‘urta davri sug‘urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin emas

1. Umumiy sug‘urta tarmog‘i

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug‘urta qilish shartlari bo‘yicha talablar
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog‘liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo‘qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo‘yicha sug‘urta shartnomalarini istisno

		qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	Er usti transport vositalarini sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
4-klass	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
5-klass	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunolari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
6-klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunolari, asbob-uskunolari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	Er usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklar dan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
17-klass	Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

4-MAVZU: SUG'URTADA TARIF SIYOSATI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Aktuar hisob-kitoblar, sug'urta tarifi tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar, brutto stavka, netto stavka, netto stavkasiga ustama, aktuariylar faoliyati, hayot sug'urtasi zahiralar, umumiy sug'urta zahiralar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Raqobat sharoitida sug'urta xizmatlariga narx-navoni shakllanish xususiyatlari.
2. Sug'urta hodisasini roy berish ehtimoli va kutilayotgan sug'urta qoplamalari hajmini aniqlash.
3. Aktuar hisob-kitoblar.
4. Sug'urta tarifi tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar.
5. Sug'urta tarif stavkasining tuzilishi va tarkibi.
6. Brutto va netto-stavkani hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy tamoyillari.
7. Sug'urta summalarining zararlilik ko'rsatkichi. Risk ustamasi.
8. Sug'urta tarifiga yuklama va uning mazmuni.
9. Ish yuritish xarajatlari sug'urta tarifiga yuklamaning tarkibiy qismi ekanligi.
10. Hududlar va ob'ektlarga qarab sug'urta tariflarini tabaqalashtirish.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Sug'urta faoliyati va unga pul-kredit siyosatining ta'siri.
2. Avtotransport sug'urtasi va uning mexanizmini takomillashtirish yo'llari.
3. O'zbekistonda ijtimoiy sug'urtani isloh qilishning asosiy yo'nalishlari.
4. Umumiy sug'urta tarmog'ida zararlarni aniqlash va qoplamalar to'lash uslubiyotni takomillashtirish.
5. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy faoliyati va uning barqarorligini ta'minlash yo'llari.
6. Sug'urta faoliyatida aktuar hisob-kitoblar va ularni takomillashtirish.
7. Mol-mulk sug'urtasida vositachilik faoliyatini tashkil etish asoslari va uni rivojlantirish masalalari.
8. Sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari.
9. Ixtiyoriy va majburiy sug'urtaning o'zaro nisbatini muvofiqlashtirish masalalarini takomillashtirish.
10. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligi va uning huquqiy asoslari.
11. Sug'urta tashkilotlarining o'z mablag'lari va uni shakllanish manbalari.
12. Qurilish-montaj risklari, uni sug'urtalash mexanizmining nazariy va amaliy jihatlarini.
13. Hayot sug'urtasida sug'urta zahiralarini, ularning turlari va shakllanish mexanizmi.
14. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari va ularning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishni takomillashtirish.
15. Sug'urta bozorida vositachilar va ularning faoliyatini tashkil etish asoslari.



KAPITAL SUG'URTA

страховая компания

	Sug'urta shartnomasiga ko'ra sug'urta qiymati – 2 mln. so'm, sug'urta summasi – 900 ming so'm, shartsiz franshiza – 20 ming so'm. Zarar: A) 19 ming so'm B) 21 ming so'm
---	---

Xisoblang:

A holatda qancha miqdorda sug'urta qoplamasi qoplab beriladi?

Xisoblang:

B holatda qancha miqdorda sug'urta qoplamasi qoplab beriladi?



Demak

Birinchi holatda zarar qoplab berilmaydi
Ikkinchi holatda zararining 1 ming so'mi qoplab beriladi

KEYS topshiriq

Korxonaning 35 mln. soʻmlik mulki 1 yil muddatga bir yoʻla uchta sugʻurta kompaniyasida sugʻurtalangan		
 Birinchi sugʻurta kompaniyasida tuzilgan sugʻurta shartnomasining sugʻurta summasi 10 mln soʻm SS= 10mln soʻm	 ikkinchi sugʻurta kompaniyasida tuzilgan sugʻurta shartnomasining sugʻurta summasi 12 mln soʻm SS= 12mln soʻm	 uchinchi sugʻurta kompaniyasida tuzilgan sugʻurta shartnomasining sugʻurta summasi 14 mln. soʻm. SS=14mln soʻm
zarar summasi: 25 mln. soʻm.		





KEYS topshiriqlar

Hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi "N" sug'urta kompaniyasiga o'zi bilan hayot sug'urtasi shartnomasi tuzgan jismoniy shaxs bir yilga 5 mln. so'm miqdorida qarz berishlarini so'rab ariza bilan murojaat qildi. Sug'urta kompaniyasining ustav kapitali 2 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Kompaniya mazkur arizaga ko'ra qancha miqdorda qarz berishi mumkinligini hisoblang?



MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

Sug'urta tizimi rivojlangan mamlakatlarda umumiy sug'urta shartnomalarining 70% ini hayotni sug'urtalash shartnomalari tashkil qiladi.

Afsufki, bizning mamlakatimizda bunday shartnomalar barcha shartnomalarning atigi 6% ini tashkil qiladi.

Sug'urta shartnomalarining boshqa turlaridan farqli ravishda hayotni sug'urtalash maxsus iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshiruvchi shartnomadan iborat va qoida bo'yicha sug'urtachining shartnoma muddati tugagach sug'urta summasini to'lash majburiyatini yoki sug'urta muddati davomida sug'urta summasini to'lash shartini ko'zda tutadi.

Aholining turli qatlamlari orasida o'lim ro'y berishi bilan amalga oshirilishi mo'jallangan va amalga oshiriladigan iqtisodiy operatsiyalar hayotni sug'urta qilishda qonunni aniqlashtirishga asoslangan. Bu qonunlarda milliy, siyosiy, tabiiy, iqtisodiy ekologik, sotsial, professional va boshqa faktorlar ta'sir ko'rsatadi.

Eng kuchli bog'liqlik o'lim ro'y berishi va yoshi orasidagi bog'liqlikda ko'rinadi.

O'lim jadvali hayotni sug'urta qilish bo'yicha hisoblarni amalga oshirishda zarur ma'lumot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jadvallar statistik ma'lumotlar asosida tuziladi. Vafot etish jadvalning oxirgi qatori yosh chegarasi w ga mos keladi. Yoshi w dan oshadigan (to'liq yosh) kishilar soni 0 ga teng deb olinadi.

Statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkaklar orasidagi o'lim ayollar orasidagi o'limdan yuqoriroq, natijada ayollar orasida yashash muddati yuqoriroqdir. Sho'nga qaramasdan ba'zi bir mamlakatlarda erkaklar va ayollar o'limi uchun yagona jadvaldan foydalaniladi va yagona ta'rif stavkasidan foydalaniladi.

O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalari erkaklar va ayollar uchun turli ta'rif stavkalarini o'rnatgan.

Hayotni sug'urta qilishda 1- jadvalda keltirilgan terminlar, belgilashlar va formulalardan foydalaniladi.

Hayotni sug'urta qilishda terminlar, belgilar va formulalar

№	Belgi	Termin	Formula
1	x	Kishi yoshi (to'liq yillar soni)	-
2	L_0	O'lim jadvalining manbai(tug'ilgan kishilar soni odatda 100000, yoki boshqacha bo'lishi ham mumkin)	-
3	l_x	X yoshdagi yashagan, l_0 gacha bo'lgan odamlar soni	-
4	d_x	X yoshda o'lgan odamlar soni.	$d_x = l_x - l_{x+1}$
5	q_x	X yoshdagi kishining bir yil mobaynida o'lish ehtimoli	$q_x = \frac{l_x - l_{x+1}}{l_x}$
6	p_x	X yoshdagi kishining $x+1$ yoshgacha yashashi, ya'ni yana 1 yil yashash ehtimoli	$p_x = \frac{l_{x+1}}{l_x}$
7	${}_n p_x$	X yoshdagi kishining $x+n$ yoshgacha yashashi, ya'ni n yil yashashi ehtimoli	${}_n p_x = \frac{l_{x+n}}{l_x}$

1- jadvalning oxirgi ustunidagi formulaning qanday keltirib chiqarilishini ko'rsatamiz.

Qulaylik uchun 1-jadvaldagi formulaning raqami undagi qator raqami bilan bir xil deb olgan holda, formulalarni keltirib chiqaramiz.

(4) formula unda qatnashuvchi o'zgaruvchilarni aniqlanishidan osongina hosil bo'ladi.

Mos ravishda (5)-(8) formulalar quyidagi munosabatlar asosida keltirib chiqariladi:

$$Q_x = \frac{d_x}{l_x} = \frac{l_x - l_{x+1}}{l_x} \quad (5),$$

$$p_x = 1 - q_x = 1 - \frac{d_x}{l_x} = \frac{l_x - d_x}{l_x} = \frac{l_{x+1}}{l_x} \quad (6),$$

$${}_n p_x = p_x * p_{x+1} * \dots * p_{x+n} = \frac{l_{x+1}}{l_x} * \frac{l_{x+2}}{l_{x+1}} * \dots * \frac{l_{x+n-1}}{l_{x+n-2}} * \frac{l_{x+n}}{l_{x+n-1}} = \frac{l_{x+n}}{l_x} \quad (7),$$

$${}_n q_x = 1 - {}_n p_x = 1 - \frac{l_{x+n}}{l_x} = \frac{l_x - l_{x+n}}{l_x} \quad (8).$$

Masala 1. 40 yoshdagi erkaklar uchun bir yil davomida o'lish ehtimolini toping.

Echish. O'lim jadvali 6.6 dan foydalangan holda:

$l_{40}=83344$, $l_{41}=82199$. ni topamiz. U holda (5) formuladan

$$q_{40} = \frac{l_{40} - l_{41}}{l_{40}} = \frac{83344 - 82199}{83344} = 0,0137.$$

Javob: 0,0137.

Masala 2. 40 yoshdagi erkakning 60 yoshgacha yashash ehtimolini toping:

Echish. O'lim (erkaklar) jadvaliga asosan:

$$l_{40}=83344, \quad l_{60}=50246.$$

U holda (6) formulaga asosan:

$${}_{20}p_{40} = \frac{l_{60}}{l_{40}} = \frac{50246}{83344} = 0,6029.$$

Javob: 0,6029.

Hayotni sug'urta qilishda qolgan umrning o'rtacha davomiyligi deb ataluvchi demografik faktlar katta ro'l o'ynaydi. Amaliy hisob-kitoblarda bu miqdorning taqribiy qiymatidan foydalaniladi, u e_x bilan belgilanadi.

Bu ko'rsatkichni hisoblash sxemasini ko'ramiz.

l_x sonidagi aholi guruhidan x yoshgacha yashovchilar sonini to'liq yoshi T_x quyidagi tarzda hisoblanadi:

$$\begin{aligned} T_x &= d_{x+1} + 2*d_{x+2} + 3*d_{x+3} = l_{x+1} - l_{x+2} + 2*(l_{x+2} - l_{x+3}) + 3*(l_{x+3} - l_{x+4}) + \dots = l_{x+1} - l_{x+2} + 2*l_{x+2} - \\ &2*l_{x+3} + 3*l_{x+3} - 3*l_{x+4} + \dots = l_{x+1} + (-l_{x+2} + 2*l_{x+2}) + (-2*l_{x+3} + 3*l_{x+3}) + \dots = \\ &= l_{x+1} + l_{x+2} + l_{x+3} + \dots = \end{aligned}$$

$$\sum_{k=1}^{w-x} l_{x+k}$$

Bu sonni guruhdagilar soniga bo'lib, x yoshdagi guruh a'zolarining o'rtacha hayot davomiyligining taqribiy qiymatini olamiz:

$$e_x = \frac{T_x}{l_x} = \frac{l}{l_x} * \sum_{k=1}^{w-x} l_{x+k}$$

Ko'pincha bu sonni l_x sonidagi guruh a'zolarining qolgan umrining o'rtacha hayot

davomiyligi qiymati ham deb ataladi, bunda hisoblashishlarda butun songacha yaxlitlangan yillar sonidan foydalaniladi.

Masala 3. 65 yoshdagi erkaklar hayotini qolgan yillarining o'rtacha davomiyligining yaxlitlangan qiymatini toping.

Echish. e_x ni aniqlash uchun jadvaldagi ma'lumotlarni formulaga qo'yib, oddiy hisob-kitoblarni amalga oshirib quyidagiga ega bo'lamiz

$$e_x = \frac{1}{l_{65}} * \sum_{k=1}^{35} l_{65+k} = 12,24 \text{ (yil)}.$$

Javob: 12,24 yil.

Sug'urtalashda qolgan umrni sug'urtalashning turli xil shartnomalari qo'llaniladi.

Qolgan umrni sug'urtalashning bir shartnomasini ko'rib chiqamiz, bu shartnomada iqtisodiy rentadan foydalaniladi.

Bir xil vaqt oraliqlarida amalga oshiriladigan to'lovlar ketma-ketligi iqtisodiy renta deb ataladi.

Agar to'lovkar soni chegaralangan bo'lsa, iqtisodiy renta chekli, aks holda cheksiz deb ataladi.

Renta summasidan foydalanganligi uchun odatda, foiz pullari hisoblanadi.

Avvalo oddiy foizlar hisoblanadigan hadni ko'rib chiqamiz.

Masala 4. 40 yoshga to'lgan 31-dekabrda tug'ilgan erkak kishi (sug'urtalanuvchi) sug'urtachi bilan 2006-yil 31-dekabrda 300000 so'mga 10 yil to'liq yashash muddatiga mo'jallangan sug'urta shartnomasi tuzdi. Shartnoma shartiga asosan shartnoma davom etish muddati jarayonida har yili 1-yanvarda sug'urta mukofati bo'lib-bo'lib, bir yil miqdorda qo'shiladi.

Renta sumasidan foydalanganlik uchun sug'urtachi 5% yillik foiz stavka bo'yicha oddiy foiz ko'rinishi bo'yicha foizli pul hisoblanadi. Sug'urtalangan kishining shartnomaga amal qilish muddati davomida o'limi ro'y berganda, sug'urta puli (hisoblangan foizlarsiz) to'lanadi. Sug'urtalanuvchi kishi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan vaqtgacha yashasa, u holda foydani qo'lga kirituvchiga sug'urta puli to'lanadi. Sug'urta badali miqdorini toping.

Echish. V orqali sug'urta badali miqdorini belgilaymiz. Sug'urtalanuvchining yashash holida, dastlabki badalga 10 yil davomida foiz pullari qo'shib beriladi, har yili 5% qo'shiladi. Shuning uchun 31-dekabr 2016-yilga kelib, dastlabki badal

$$V_1 = V * (1 + 0,05 * 10) = 1,5 * V.$$

Ikkinchi badalga esa foiz pullari 9 yil davomida to'lab boriladi va 31-dekabr 2013-yilga borib

$$V_2 = V * (1 + 0,05 * 9) = 1,45 * V.$$

Uchinchi badal esa

$$V_3 = V * (1 + 0,05 * 8) = 1,4 * V$$

Summaga aylanadi va h.k.

Shunday qilib, 10 ta haddan iborat kamayuvchi arifmetik progressiya hosil bo'ladi

$$V_1, V_2, \dots, V_{10},$$

Birinchi hadi esa $1,5V$ va oxirgi hadi $1,05V$. Bu arifmetik progressiyaning yig'indisi

$$W = \frac{1,5 * V + 1,05 * V}{2} * 10 = 12,75 * V.$$

Endi esa sug'urta kompaniyasi bilan o'sha 10 yil to'liq yashash bo'yicha sug'urta shartnomasi tuzgan, 40 yoshgacha l_{40} sondagi sug'urtalanganlar guruhini qaraymiz. U holda sug'urtachi shartnoma muddati tugaganda to'laydigan pul miqdori S_b , 50 yoshgacha yashagan sug'urtalangan kishilar sonining sug'urta puli miqdoriga ko'paytirilganiga teng:

$$S_b = 300000 * l_{50}.$$

Har bir sug'urta shartnomasi tuzgan kishiga

$$P = \frac{S_b}{l_{40}} = 300000 * \frac{l_{50}}{l_{40}}.$$

To'g'ri keladi 6.6 o'lim jadvaliga asosan:

$$l_{40} = 83344, \quad l_{50} = 70354.$$

ni topamiz. Shuning uchun

$$P = 300000 * \frac{l_{50}}{l_{40}} = \frac{300000 * 70354}{83344} = 253241,99.$$

Sug'urtachi va sug'urtalanganlar tavakkalchiligining ekvivalentlik prinsipiga asosan

$$P=W,$$

ko'rinish bajariladi, buning asosida esa sug'urta badali miqdorini topish mumkin:

$$V = \frac{W}{12,75} = \frac{253241,99}{12,75} = 19862,12.$$

Javob: 19862,12 so'm.

Masala 5. 40 yoshga to'lgan, 31-dekabrda tug'ilgan erkak kishi (sug'urtalanuvchi) 2006-yil 31-dekabrda sug'urtachi bilan 10 yil to'liq yashash muddatiga 300000 so'mga sug'urta shartnomasi tuzdi. Shartnoma sharti bo'yicha sug'urta badali har yili 1-yanvarda teng miqdorda sug'urta davom etishi mobaynida to'lab boriladi. Sug'urtachi renta pulidan foydalanganligi uchun 5% yillik foiz hisobidan murakkab foizli sxema bo'yicha foizlar qo'shib boradi. Agar sug'urtalanuvchi sug'urta muddati tugagunicha o'lsa, sug'urta puli to'lanmaydi, foyda oluvchiga esa shu paytgacha to'plangan summa (hisoblangan foizlarsiz) to'lanadi. Agar sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasi muddati tugaguncha yashasa, o'nga sug'urta puli to'lanadi. Sug'urta badali miqdorini toping.

Echish. V orqali sug'urta badali miqdorini belgilaymiz. Sug'urtalanuvchi sug'urta muddati tugagunicha yashasa, birinchi badalga foiz stavkalari 10 yil davomida yillik 5% hisobidan to'lanadi. Shuning uchun 31-dekabr 2016-yilda birinchi badal

$$V_1 = V \cdot (1 + 0,05)^{10} = 1,63 \cdot V.$$

so'mga aylanadi.

Ikkinchi badalga foiz stavkalari 9 yil davomida hisoblanadi va 31 dekabr 2015 yilga kelib, u

$$V_2 = V \cdot (1 + 0,05)^9 = 1,55 \cdot V.$$

ga aylanadi.

Uchinchi badal esa

$$V_3 = V \cdot (1 + 0,05)^8 = 1,48 \cdot V.$$

ga aylanadi va h.k. Shunday qilib, biz hadlari soni 10 ta bo'lgan

$$V_1, V_2, \dots, V_{10}$$

kamayuvchi geometrik progressiyaga ega bo'lamiz, uning birinchi hadi $1,63*V$ va maxraji esa $q=\frac{1}{1,05}=0,95$.

Ushbu geometrik progressiya yig'indisi

$$W=1,63*V*\frac{q^{10}-1}{q-1}=1,63*V*\frac{1-0,95^{10}}{1-0,95}=13,04*V.$$

Endi esa 10 yilgacha yashash uchun sug'urtachi bilan o'sha shartnomani tuzgan 40 yoshdagi soni l_{40} ga teng bo'lgan sug'urtalanuvchilar guruhini qaraymiz. U holda shartnoma muddati tugaganda sug'urtachi to'lashi kerak bo'lgan umumiy to'lov summasi:

$$S_b=300000*l_{50}.$$

Shartnoma tuzgan har bir sug'urtalanuvchiga

$$P=\frac{S_b}{l_{40}}300000*\frac{l_{50}}{l_{40}}. \text{ so'm to'g'ri keladi.}$$

Umumiy jadvalga asosan

$$l_{40}=83344, \quad l_{50}=70354. \quad \text{ni topamiz.}$$

Shuning uchun

$$P=300000*\frac{l_{50}}{l_{40}}=\frac{300000*70354}{83344}=253241,99.$$

Sug'urtachi va sug'urtalanuvchilar tavakkalchiligi ekvivalentlik prinsipiga ko'ra

$$P=S_b,$$

ko'rinish amalga oshiriladi, u yordamida esa sug'urta badali qiymatini topish mumkin:

$$V=\frac{S_b}{13,04}=\frac{253241,99}{13,04}=19420,$$

Javob: 19240,4 so'm.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Sug'urtalanuvchi quyidagi qaysi huquqga ega?

- A) sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash.
- B) sug'urtalash qoidalari bilan tanishish.
- C) sug'urta qoplamasini olishdan voz kechish.
- D) yuqorida aralash javoblar ko'rsatilgan.

2) O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1993 yilning 6 mayida.
- B) 1994 yilning 12 dekabrda.
- C) 2001 yilning 8 dekabrda.
- D) 2002 yilning 5 aprelida.

3) Sug'urta agenti –bu:

- A) sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi vositachidir.
- B) sug'urtalovchining topshirig'iga va u bergan vakolatlar doirasida faoliyat yurituvchi shaxs.
- C) har qanday yuridik va jismoniy shaxs.
- D) sug'urtalovchining shtatida turadigan va kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismini olish huquqiga ega yuridik shaxs.

4) Sug'urta shartnomasi qachon yuridik kuchga kiradi?

- A) shartnoma ishtirokchilar tomonidan imzolanganidan so'ng.
- B) sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi berilgandan so'ng.
- C) shartnoma tuzish uchun hamma hujjatlar tayyor bo'lgandan so'ng.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

5) Sug'urtalovchining majburiyatini ko'rsating?

- A) sug'urta mukofotini o'z vaqtida tushishini ta'minlash.
- B) sug'urtalanayotgan ob'ektni tekshirish.
- C) sug'urta shartnomasini bekor qilish.
- D) sug'urta qoplamasini to'lash.

6) «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi qachon qayta tashkil etilgan?

- A) 1994 yilda.
- B) 1995 yilda.
- C) 1997 yilda.
- D) 2001 yilda.

7) Sug'urta tashkiloti quyidagi qaysi tashkiliy-huquqiy shakllarda tuzilishi mumkin (aniq javobni ko'rsating)?

- A) aktsiyadorlik jamiyati shaklida.
- B) mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida.
- C) xususiy tadbirkorlik shaklida.
- D) har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda.

8) Netto-stavka deganda nimani tushunasiz?

- A) sug'urta shartnomasini.
- B) sug'urta tarif stavkasining bir qismini.
- C) sug'urta mukofotini.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

9) O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari quyidagi qaysi muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etilgan edi?

- A) 2002 yilning 1 fevralidan 2005 yilning 1 fevraligacha.
- B) 2001 yilning 1 yanvaridan 2005 yilning 1 yanvarigacha.
- C) 2003 yilning 1 fevralidan 2006 yilning 1 fevraligacha.
- D) 2002 yilning 1 yanvaridan 2005 yilning 1 yanvarigacha.


10) Sug'urta ob'ekti nima?

- A) sug'urtalovchi.
- B) sug'urtalanuvchi.
- C) sug'urta agenti.
- D) mulkiy manfaat.

TALABALARNING MAVZU BO‘YICHA BILIM VA KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR

2015 yil O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urtalovchilarning TVEFJMSQ bo‘yicha sug‘urta shartnomalari soni va mukofotlari reytingi¹

№	Kompaniyalar	Shartnomalar Soni	Ulush %	Sug‘urta mukofotlari (mln.so‘m)	Ulush % da
1	O‘zagrosug‘urta	718 350	40.6	20 371.8	35.2
2	Kafolat	310 248	17.5	10 769.7	18.6
3	Kapital sug‘urta	158 758	9.0	6 140.8	10.6
4	Alskom	148 585	8.4	4 840.8	8.4
5	Alfa Invest	118 033	6.7	4 277.7	7.4
6	Asia Insurance	111 640	6.3	4 224.9	7.3
7	Uzbekinvest	23 999	4.7	3 112.8	5.4
8	Universal Sug‘urta	75 962	4.3	2 617.3	4.5
9	Ishonch	42 857	2.4	1 548.1	2.7



¹ SAYPRO axborot-reyting agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta kompaniyasining bozordagi ulushi to'g'risida
MA'LUMOT

T/r	Sug'urta kompaniyasi	Qabul qilingan majburiyatlar hajmi bo'yicha bozordagi ulushi, %			Shartnomalar soni (dona) bo'yicha bozordagi ulushi, %		
		2013 yil	2014 yil	2015 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	"O'zagrosug'urta" AJ	26,9	43,9	34,4	53,6	54,1	51,7
2	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	21,9	20,5	24	21,9	20,3	21,9
3	"O'zbekinvest" EIMSK	30,6	14,5	26,9	8,5	8,1	8,4
	Davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha jami	79,4	78,9	85,3	83,9	82,5	82,1
4	"ALSKOM" AJ	3,5	4,2	6,1	3	3,7	5
5	"ALFA INVEST" MChJ	2,1	3,1	2,6	4,1	3,9	4,4
6	"Kapital Sug'urta" AJ	5,4	3,5	2,6	4,8	5,3	4,4
7	"Asia insurers" MChJ	2,7	3	1,4	2,1	1,9	2
8	"IShONCh" BSK MChJ	3,6	6,4	1	0,7	1,7	0,9
9	"Universal Sug'urta" AJ	3,4	0,8	1	1,4	1,1	1,2
	Qolgan kompaniyalar bo'yicha jami	20,6	21,1	14,7	16,1	17,5	17,9
	Hammasi	100	100	100	100	100	100

5-MAVZU: SUG'URTA BOZORI VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

Quyidagi atamalarga izoh bering: Sug'urta bozori, milliy sug'urta bozori, mntaqaviy sug'urta bozori, halqaro sug'urta bozori, sug'urta bozori bozori ishtirokchilari, sug'urta bozorining professional ishtirokchilari, sug'urta bozorini davlat tomonidan nazorat qilish shakllari, davlat sug'urta nazorati inspeksiyasining funktsiya va vazifalari.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Sug'urta bozori tushunchasi va uning ishtirokchilari.
2. Sug'urta bozorining professional va professional bo'lmagan ishtirokchilari.
3. Sug'urta bozorining boshqa bozorlar bilan o'zaro aloqasi.
4. O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar.
5. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish zarurligi va ahamiyati.
6. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari.
7. Sug'urta faoliyatini tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari.
8. Davlat sug'urta nazorati organi: uning funktsiya va vazifalari.
9. Sug'urta faoliyatini tartibga solishga qaratilgan asosiy meyoriy hujjatlar.
10. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari va ularning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishni takomillashtirish.
2. Sug'urta bozorida vositachilar va ularning faoliyatini tashkil etish asoslari.
3. Ipoteka sug'urtasi: shakllanishi, rivojlanishi va uni takomillashtirish.
4. Sug'urta portfeli va uni muvozanatini ta'minlash masalalari ("Kafolat" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi misolida).

5. O'zbekistonda tadbirkorlik risklari, uni sug'urtalash mexanizmi va takomillashtirish yo'nalishlari.
6. O'zbekistonda tijorat banklari risklarini sug'urtalash va uni takomillashtirish ("Ishonch" banklararo sug'urta kompaniyasi misolida).
7. Rivojlangan mamlakatlar sug'urta tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari (Buyuk britaniya va Geramaniya misolida).
8. Sug'urtalovchilar moliyaviy barqarorligini davlat tomonidan tartibga solish va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
9. Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urta bozorini tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari.
10. Umumiy sug'urta tarmog'i klasslari va ular bo'yicha sug'urtalashni samarali tashkil etish yo'llari.
11. Sug'urta faoliyatini solikqa tortish va uni takomillashtirish ("O'zagrosug'urta" AJ sug'urta kompaniyasi misolida).
12. AQSH sug'urta tizimi va uni davlat tomonidan tartibga solinishi.
13. Majburiy sug'urta, uni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish masalalari.
14. O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalashni tashkil etish va rivojlantirish masalalari.
15. O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklari, uni sug'urtalash mexanizmi va rivojlantirish masalalari.

MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

Faraz qilamiz, o'tmishdagi ma'lum bir vaqt oralig'ida tuzilgan sug'urta shartnomalarining soni n aniq.

Bu shartnomalarni indeks $i = 1, \dots, n$, sug'urta hodisalari ro'y bergan shartnomalarni esa $i = 1, \dots, m (m \leq n)$, sug'urta hodisasi ro'y bermagan shartnomalarni esa $i = m+1, \dots, n$ deb raqamlab olamiz.

Sug'urta summasini I - shartnomada ($I = 1, \dots, n$) S_i bilan, k - sug'urta hodisasi ($k = 1, \dots, m$) natijasida to'langan sug'urta qoplamasini Sb_k bilan qoplamasini belgilab olib, quyidagi kattaliklarni kiritamiz:

$$q = \frac{m}{n} \quad (1)$$

$$S = \sum_{i=1}^n S_i \quad (2)$$

$$\bar{S} = \frac{1}{n} * S = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n S_i \quad (3)$$

$$Sb = \sum_{k=1}^m Sb_k \quad (4)$$

$$\overline{Sb} = \frac{1}{m} * Sb = \frac{1}{m} \sum_{k=1}^m Sb_k \quad (5)$$

q , $\bar{S}$, $\overline{Sb}$ kattaliklarini sug'urta hodisasi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni, sug'urta summasini o'rtacha qiymatini va sug'urta to'lovlarini o'rtacha qiymatlarni baholashda ishlatish maqsadga muvofiq bo'lardi.

T_o asosiy qism hisobi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Barcha shartnomalar bo'yicha risk mukofotlarning summasi = Sug'urta to'lovlari summasi

(1) – (5) tengliklarning (6) aks ettirilishi

$$\frac{T_o}{100} * S = Sb$$

O'z navbatida,

$$T_o = \frac{Sb}{S} * 100 \quad (7)$$

Shuningdek,

$$T_o = \frac{Sb}{S} * 100 = \frac{\sum_{k=1}^m Sb_k}{\sum_{i=1}^n S_i} * 100 = \frac{m * \overline{Sb}}{n * \bar{S}} * 100 = q * \frac{\overline{Sb}}{\bar{S}} * 100$$

Shu tarzda biz T_n netto – stavkaning T_o asosiy qismi bahosini aniqladik,

$$T_o = q * \frac{\overline{Sb}}{\overline{S}} * 100 \quad (8)$$

Shuningdek Davlat sug'urta nazorati o'rtacha sug'urta to'lovlarini o'rtacha sug'urta summasiga nisbatini baholashni $\frac{\overline{Sb}}{\overline{S}}$

Quyidagilardan past bo'lmasligini nazarda tutadi:

0,3 – baxtsiz hodisalar va kasalliklarni sug'urtalashda, tibbiy sug'urtada

0,4 – osmon transport vositalarini sug'urtalashda

0,5 – yuklarni va mol-mulkni sug'urtalashda, transport vositalaridan tashqari

0,6 – havo va suv transport vositalarini sug'urtalashda

0,7 – avtotransport egalari javobgarliklarini va boshqa turdagi javobgarliklarni, moliyaviy risklarni sug'urtalashda

T_n netto-stavkaning T_o asosiy qism bo'yicha baholanishi qabo'l qilingandan so'ng, T_r risk yuklamasiga nisbatan ham baholash o'tkazish zarur.

Shu maqsadda talab qilingan γ xavfsizlik kafolati darajasini o'rnatish zarur, bunda sug'urta to'lovlari uchun sug'urta mukofotlarining yetarli darajada yig'ilishining o'zi kifoya, keyin esa quyidagi ikki variantlardan biri foydalaniladi.

Bir turdagi risklarda risk yuklamasini hisoblash.

Bunda ikki imkoniyat yuzaga keladi.

R_b sug'urta to'lovlarning o'rtacha kvadrat og'ishini aniqlashga imkon beruvchi ma'lumotlar mavjud va u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_b = \sqrt{\frac{1}{1-m} * \sum_{k=1}^m S b_k^2 - \frac{m}{m-1} * \overline{S b}^2} \quad (9)$$

Aks holda

$$T_r = T_o * \alpha(\gamma) * \sqrt{\frac{1}{nq} (1 - q + \left(\frac{R_b}{\overline{Sb}}\right)^2)} \quad (10)$$

Bu yerda $\alpha(\gamma)$ – γ xavfsizlik kafolatiga bog'liq koeffitsiyent.

R_b tenglikni aniqlashga imkon beruvchi ma'lumotlar yo'q. Shunda

$$T_r = 1,2 * T_o * \alpha(\gamma) \sqrt{\frac{1-q}{nq}} \quad (11)$$

Bir necha turdagi $j=1, \dots, m$ risklardan iborat sug'urta portfelining risk yuklamasi hisobi.

Bu holatda risk yuklamasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Tr = To * \alpha^{(\gamma)} * \mu$$

μ koeffitsiyentni hisoblashning 2 usuli yuzaga keladi:

Faraz qilamiz j -risk uchun sug'urta shartnomalarining n_j soni ma'lum, q_s sug'urta hodisasining sodir bo'lishi ehtimoli, $\overline{Sb}$ o'rtacha sug'urta qoplamasi va Rb_j sug'urta qoplamasining o'rtacha kvadrat og'ishi. Shunda μ koeffitsiyentni quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$\mu = \frac{\sqrt{\sum_{j=1}^m (\overline{Sb}_j^2 n_j q_j (1-q_j) + Rb_j^2 n_j q_j)}}{\sum_{j=1}^m \overline{Sb}_j * n_j * q_j} \quad (12)$$

Rb_i noma'lum kattalik i risk uchun mos keladigan, bu riskka qo'shiladigan quyidagi formulada keltirilgan

$$\overline{Sb}_j^2 n_j q_j (1-q_j) + Rb_j^2 n_j q_j$$

Kattaliklar bilan almashtirish imkoni bor

$$1,44 * \overline{Sb}_j^2 n_j q_j (1-q_j) \quad (13)$$

Bir nechta risklar sug'urtasi amalga oshirilayotgan, biroq har bir risk bo'yicha o'rtacha sochma qoplama to'g'risida ishonchli ma'lumot bo'lamagan holatlarda, μ koeffitsiyentni hisoblashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\mu = 1,2 * \frac{\sqrt{\sum_{j=1}^m (\overline{Sb}_j^2 n_j q_j (1-q_j))}}{\sum_{j=1}^m \overline{Sb}_j * n_j * q_j} \quad (14)$$

Eslatma 1. Agar q , $\bar{S}$, $\overline{Sb}$ kattaliklar to'g'risida ishonchli ma'lumotlar bo'lmasa, ular (5.1.4) – (5.1.8) formulalar bilan baholanmaydi, boshqa manbalarga ko'ra $\alpha^{(\gamma)} = 3$ tenglikni qabo'l qilish tavsiya qilinadi.

Eslatma 2. Agar yuklama ulushi T_{Δ} tarif stavkasida $f\%$ ni tashkil etsa, tariff stavka quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T_{\Delta} = \frac{T_n}{100-f} * 100 \quad (15)$$

Masala 1. Sug'urta kompaniyasi 40000 ta mol-mulk su'gurtasi shartnomasi tuzishni rejalashtirmoqda. Sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimoli 0,02. O'rtacha sug'urta summasi 1000000 so'm. Sug'urta hodisasi ro'y berganda o'rtacha sug'urta qoplamasi 800000 so'm. Bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta qoplamalari sochmasi tog'risida ma'lumot yo'q. Bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta qoplamalari yig'ilgan sug'urta mukofotlardan oshib ketmaslik ehtimoli 0,95. Sug'urta tarifi strukturasiida yuklamaning ulushi 25 %. Sug'urta tarifini hisoblang.

Echish. Masalaning shartiga ko'ra

$$n = 40000, q = 0,02, \bar{S}=1000000, \overline{Sb}=800000, \gamma=0,95, f=25\%$$

(8) formula bo'yicha netto-stavkaning T_0 asosiy qismini aniqlaymiz:

$$T_0 = q * \frac{\overline{Sb}}{\bar{S}} * 100 = 0,02 * \frac{800000}{1000000} * 100 = 1,6$$

ya'ni $\alpha(\gamma=0,95)=1,645$ dan foydalanib, Tr yuklama riskini aniqlaymiz. Bunda (11) formuladan foydalanamiz:

$$Tr = 1,2 * T_0 * \alpha(\gamma) \sqrt{\frac{1-q}{nq}} = 1,2 * 1,6 * 1,645 * \sqrt{\frac{1-0,02}{40000 * 0,02}} = 0,110544$$

Formula (5.1.3) bo'yicha netto – stavkani aniqlaymiz:

$$T_n = T_0 + Tr = 1,6 + 0,110544 = 1,71(\text{so'm})$$

Formula (15) bo'yicha tarif stavkasini aniqlaymiz:

$$T_{\Delta} = \frac{T_n}{100-f} * 100 = \frac{1,71}{100-25} * 100 = 2,28(\text{so'm})$$

Masala 2. Sug'urta kompaniyasi 9000 ta fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash shartnomalarini tuzishni rejalashtiryapti. Sug'urta hodisasining sodir bo'lish ehtimoli 0,03. O'rtacha sug'urta summasi 18000 so'm. Sug'urta hodisasi ro'y berganda o'rtacha sug'urta qoplamasi 7200 so'm. Bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta qoplamalarining o'rtacha sochmasi 2000 so'm. Bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta qoplamalari yig'ilgan sug'urta mukofotlaridan oshib ketmaslik ehtimoli 0,95. Sug'urta tarifi strukturasiida yuklamaning ulushi 25%. Sug'urta tarifini hisoblang.

$$n = 9000, q = 0,03, \bar{S}=18000, \overline{Sb}=7200, \gamma=0,95, f=25\%$$

(8) formula bo'yicha netto-stavkaning T_0 asosiy qismini aniqlaymiz:

$$T_0 = q * \frac{\overline{sb}}{s} * 100 = 0,03 * \frac{7200}{18000} * 100 = 1,2$$

Xuddi oldingi masaladagidek $\alpha(\gamma)=0,95=1,645$ ga teng.

Tr yuklama riskini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} Tr &= T_0 * \alpha(\gamma) * \sqrt{\frac{1}{nq} (1 - q + \left(\frac{Rb}{sb} \right)^2)} \\ &= 1,2 * 1,645 * \sqrt{\frac{1}{9000 * 0,03} (1 - 0,03 + \left(\frac{2000}{7200} \right)^2)} = 0,123 \end{aligned}$$

netto-stavkani aniqlaymiz

$$T_n = T_0 + Tr = 1,2 + 0,123 = 1,323(\text{so'm})$$

(15) formula bo'yicha tarif stavkasini aniqlaymiz:

$$T_{\Delta} = \frac{T_n}{100-f} * 100 = \frac{1,323}{100-25} * 100 = 1,76(\text{so'm})$$

Javob: 1,76 so'm

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash nima asosida amalga oshiriladi?

- A) sug'urtalovchining tashabbusi asosida.
- B) «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda.
- C) jismoniy shaxslarning yozma arizasi asosida.
- D) jismoniy shaxslarning yozma arizasi asosida tuzilgan shartnomaga muvofiq.

2) Mol-mulklarni sug'urta qilishda:

- A) sug'urta summasi uning haqiqiy qiymatidan oshib ketmasligi zarur.
- B) sug'urta summasi uning haqiqiy qiymatidan oshib ketishiga yo'l qo'yiladi.
- C) sug'urta summasi uning haqiqiy qiymatidan 5 foiz atrofida oshib ketishiga yo'l qo'yiladi.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

3) Harbiy xizmatchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash qaysi manba hisobidan amalga oshiriladi?

- A) harbiy xizmatchilarning oylik maoshlarini bir qismini sug'urta tashkilotiga o'tkazish hisobiga.
- B) Mudofaa Vazirligining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.
- C) Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.
- D) sug'urta tashkilotlari va harbiy qismlar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

4) Sug'urtalovchining ish yuritish xarajatlariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A) ish haqini to'lash xarajatlari.
- B) sug'urta hodisalari ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash xarajatlari.
- C) sug'urta zahirasini shakllantirish bilan bog'liq xarajatlar.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

5) Aktuar hisob-kitoblar nima maqsadda ishlatiladi?

- A) zarar miqdorlarini aniqlash maqsadida.

B) sug'urta tarif stavkalarini aniqlash maqsadida.

C) sug'urta amaliyotlarini tahlil etishda.

D) sug'urta tashkilotining raqobatbardoshligini aniqlashda.

6) Avtotransport egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish:

A) sug'urta tashkilotlarini himoya etishga yo'naltirilgan.

B) davlat manfaatlarini himoya etishga yo'naltirilgan.

C) yo'l-transport hodisalari ro'y berishi natijasida jabrlanganlarni himoya etishga yo'naltirilgan.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

7) Davlat sug'urta nazorati organining asosiy vazifasini ko'rsating?

A) sug'urtalovchilarning manfaatlarini himoya etish.

B) sug'urtalanuvchilarning manfaatini himoya etish.

C) Davlat byudjetiga majburiy to'lovlarni o'z vaqtida tushishini ta'minlash.

D) sug'urtalovchilarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

8) Sug'urtalovchilar uyushmasining funktsiyasi nimadan iborat?

A) sug'urtalovchilar faoliyati ustidan nazorat qilish.

B) sug'urta tashkilotlarining manfaatini himoya etish.

C) alohida sug'urta tashkilotlariga soliq imtiyozlarini berish.

D) yangi sug'urta turlarini ishlab chiqish.

9) Quyidagilardan qaysi biri sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatini ta'minlaydi?

A) qayta sug'urta qilish.

B) zararlarni qoplash.

C) sug'urta zahiralarini joylashtirish.

D) majburiyatlarni qabul qilish.

10) Sug'urta tashkilotlari qachon yuridik shaxs maqomini oladi?

A) Moliya Vazirligidan litsenziya olganlaridan so'ng.

B) Adliya Vazirligida davlat ro'yxatidan o'tganlaridan so'ng.

C) Aktsiyadorlar umumiy yig'ilishidan so'ng.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha yig'lgan sug'urta mukofoti to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Sug'urta kompaniyasi	2013 yil	2014 yil		2015 yil		
		Yig'lgan sug'urta mukofoti	Yig'lgan sug'urta mukofoti	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Yig'lgan sug'urta mukofoti	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Sug'urta kompaniyasining sug'urta turi bo'yicha bozordagi ulushi, %
1	"O'zagrosug'urta" AJ	6666,1	10419,0	156,3	13042,7	125,2	33,4
2	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	6560,2	7983,8	121,7	11321,3	141,8	29,0
3	"O'zbekinvest" EIMSK	6651,7	5780,3	86,9	8818,6	152,6	22,6
	Davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha jami	19878,0	24183,0	121,6	33182,6	137,2	85,0
4	"ALSKOM" AJ	800,2	1069,8	133,7	2060,4	192,6	5,3
5	"ALFA INVEST" MChJ	648,7	980,2	151,1	1302,7	132,9	3,3
6	"Kapital Sug'urta" AJ	1214,9	1201,5	98,9	951,5	79,2	2,4
7	"Asia insurers" MChJ	1141,9	1298,3	113,7	608,0	46,8	1,6
8	"IShONCh" BSK MChJ	1313,2	995,4	75,8	569,6	57,2	1,5
9	"Universal Sug'urta" AJ	190,6	244,9	128,5	345,6	141,2	0,9
	Qolgan kompaniyalar bo'yicha jami	5309,5	5790,2	109,0	5837,9	100,8	15,0
	Hammasi	25187,5	29973,2	119,0	39020,5	130,2	100

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar hajmi to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Sug'urta kompaniyasi	2013 yil	2014 yil		2015 yil		
		Qabul qilingan majburiyatlar hajmi	Qabul qilingan majburiyatlar hajmi	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Qabul qilingan majburiyatlar hajmi	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Sug'urta kompaniyasining sug'urta turi bo'yicha bozordagi ulushi, %
1	"O'zagrosug'urta" AJ	4870279,1	8708059,0	178,8	8530784,7	98,0	34,4
2	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	3949998,9	4072448,9	103,1	5945379,7	146,0	24,0
3	"O'zbekinvest" EIMSK	5527399,8	2879775,3	52,1	6679172,7	231,9	26,9
	Davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha jami	14354063,3	15660283,1	109,1	21155337,0	135,1	85,3
4	"ALSKOM" AJ	625084,3	833862,5	133,4	1506739,0	180,7	6,1
5	"ALFA INVEST" MChJ	383201,1	619253,0	161,6	646981,5	104,5	2,6
6	"Kapital Sug'urta" AJ	969182,9	704596,0	72,7	632583,2	89,8	2,6
7	"Asia insurers" MChJ	486889,2	594491,7	122,1	344797,7	58,0	1,4
8	"IShONCh" BSK MChJ	652791,4	1274248,8	195,2	259020,0	20,3	1,0
9	"Universal Sug'urta" AJ	612672,1	162358,1	26,5	250905,4	154,5	1,0
	Qolgan kompaniyalar bo'yicha jami	3730017,9	4188810,1	112,3	3641026,8	86,9	14,7
	Hammasi	18077498,4	19849093,2	109,8	24796363,9	124,9	100

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalar soni to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Sug'urta kompaniyasi	2013 yil	2014 yil		2015 yil		
		Shartnomalar soni (dona)	Shartnomalar soni (dona)	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Shartnomalar soni (dona)	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	Sug'urta kompaniyasining sug'urta turi bo'yicha bozordagi ulushi, %
1	"O'zagrosug'urta" AJ	22450,6	24314,0	108,3	23678,0	97,4	51,7
2	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	9167,3	9149,0	99,8	10042,0	109,8	21,9
3	"O'zbekinvest" EIMSK	3543,8	3643,0	102,8	3866,0	106,1	8,4
	Davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha jami	35171,6	37106,0	105,5	37586,0	101,3	82,1
4	"ALSKOM" AJ	1271,1	1683,0	132,4	2301,0	136,7	5,0
5	"ALFA INVEST" MChJ	1703	1732,0	101,7	2011,0	116,1	4,4
6	"Kapital Sug'urta" AJ	2019,7	2363,0	117,0	2033,0	86,0	4,4
7	"Asia insurers" MChJ	867,4	837,0	96,5	905,0	108,1	2,0
8	"IShONCh" BSK MChJ	303,9	748,0	246,1	430,0	57,5	0,9
9	"Universal Sug'urta" AJ	594,9	514,0	86,4	530,0	103,1	1,2
	Qolgan kompaniyalar bo'yicha jami	6761,4	7877,0	116,5	8210,0	104,2	17,9
	Hammasi	41922,6	44983,0	107,3	45796,0	101,8	100

**Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalar soni to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Sug'urta kompaniyasi	2013 yil	2014 yil		2015 yil		
		To'lovlar hajmi	To'lovlar hajmi	O'tgan yilga nisbatan o'sish (%)	To'lovlar hajmi	O'sish (%)	Sug'urta kompaniyasining sug'urta turi bo'yicha bozordagi ulushi, %
1	"O'zagrosug'urta" AJ	970,2	3549,0	365,8	6957,1	196,0	35,0
2	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	3859,7	6092,4	157,8	7989,4	131,1	40,2
3	"O'zbekinvest" EIMSK	1568,2	3103,5	197,9	2429,3	78,3	12,2
	Davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha jami	6398,1	12745,0	199,2	17375,8	136,3	87,5
4	"ALSKOM" AJ	221,4	317,0	143,2	286,1	90,3	1,4
5	"ALFA INVEST" MChJ	423,1	237,8	56,2	245,2	103,1	1,2
6	"Kapital Sug'urta" AJ	249,3	468,0	187,7	660,8	141,2	3,3
7	"Asia insurers" MChJ	8,4	253,8	3005,0	496,1	195,5	2,5
8	"IShONCh" BSK MChJ	394,3	459,7	116,6	573,9	124,9	2,9
9	"Universal Sug'urta" AJ	50,3	58,4	116,1	218,6	374,6	1,1
	Qolgan kompaniyalar bo'yicha jami	1347,3	1794,6	133,2	2480,8	138,2	12,5
	Hammasi	7746,2	14539,6	187,7	19856,5	136,6	100

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta kompaniyasining bozordagi ulushi to'g'risida
MA'LUMOT

T/r	Sug'urta kompaniyasi	Yig'lgan sug'urta mukofoti bo'yicha bozordagi ulushi, %			To'lovlar hajmi bo'yicha bozordagi ulushi, %		
		2013 yil	2014 yil	2015 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	"O'zagrosug'urta" AJ	26,5	34,8	33,4	12,5	24,4	35
2	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	26	26,6	29	49,8	41,9	40,2
3	"O'zbekinvest" EIMSK	26,4	19,3	22,6	20,2	21,3	12,2
	Davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha jami	78,9	80,7	85	82,6	87,7	87,5
4	"ALSKOM" AJ	3,2	3,6	5,3	2,9	2,2	1,4
5	"ALFA INVEST" MChJ	2,6	3,3	3,3	5,5	1,6	1,2
6	"Kapital Sug'urta" AJ	4,8	4	2,4	3,2	3,2	3,3
7	"Asia insurans" MChJ	4,5	4,3	1,6	0,1	1,7	2,5
8	"IShONCh" BSK MChJ	5,2	3,3	1,5	5,1	3,2	2,9
9	"Universal Sug'urta" AJ	0,8	0,8	0,9	0,6	0,4	1,1
	Qolgan kompaniyalar bo'yicha jami	21,1	19,3	15	17,4	12,3	12,5
	Hammasi	100	100	100	100	100	100

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta kompaniyasining bozordagi ulushi to'g'risida MA'LUMOT							
T/r	Sug'urta kompaniyasi	Qabul qilingan majburiyatlar hajmi bo'yicha bozordagi ulushi, %			Shartnomalar soni (dona) bo'yicha bozordagi ulushi, %		
		2013 yil	2014 yil	2015 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	"O'zagrosug'urta" AJ	26,9	43,9	34,4	53,6	54,1	51,7
2	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	21,9	20,5	24	21,9	20,3	21,9
3	"O'zbekinvest" EIMSK	30,6	14,5	26,9	8,5	8,1	8,4
	Davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha jami	79,4	78,9	85,3	83,9	82,5	82,1
4	"ALSKOM" AJ	3,5	4,2	6,1	3	3,7	5
5	"ALFA INVEST" MChJ	2,1	3,1	2,6	4,1	3,9	4,4
6	"Kapital Sug'urta" AJ	5,4	3,5	2,6	4,8	5,3	4,4
7	"Asia insurers" MChJ	2,7	3	1,4	2,1	1,9	2
8	"IShONCh" BSK MChJ	3,6	6,4	1	0,7	1,7	0,9
9	"Universal Sug'urta" AJ	3,4	0,8	1	1,4	1,1	1,2
	Qolgan kompaniyalar bo'yicha jami	20,6	21,1	14,7	16,1	17,5	17,9
	Hammasi	100	100	100	100	100	100

6-MAVZU: SUG'URTA KOMPANIYASINING MOLİYAVIY ASOSLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorlik tushunchasi, sug'urta tashkiloti moliyasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, sug'urtalovchining daromadlari, sug'urtalovchining xarajatlari, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijaning shakllanishi, sug'urtalovchining o'z mablag'lari: miqdori, shakli va tuzilishi, sug'urta zahiralar shakllanishining ob'ektiv zarurligi, sug'urta zahiralar va ularning tarkibi, texnik zahiralar: ularning iqtisodiy tabiati va tarkibi: ishlab topilmagan mukofotlar zahirasi, zararlar boyicha zahira va boshqalar, hayot sug'urtasidan tashqari, umumiy sug'urta turlari boyicha zahiraning shakllanish tartibi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorlik tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar.
2. Sug'urta tashkiloti moliyasini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Sug'urtalovchining daromadlari va xarajatlari tarkibi.
4. Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijaning shakllanishi.
5. Sug'urtalovchining o'z mablag'lari: miqdori, shakli va tuzilishi.
6. Sug'urta zahiralar shakllanishining ob'ektiv zarurligi.
7. Sug'urta zahiralar va ularning tarkibi.
8. Texnik zahiralar: ularning iqtisodiy tabiati va tarkibi: ishlab topilmagan mukofotlar zahirasi, zararlar boyicha zahira va boshqalar.
9. Hayot sug'urtasidan tashqari, umumiy sug'urta turlari boyicha zahiraning shakllanish tartibi.
10. Sug'urta zahiralar va boshqa vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni investitsiya qilishning zarurligi.
11. Investitsiyalarning ob'ektlari va turlari.
12. Sug'urta zahiralarini investitsiya ob'ektlariga joylashtirishning asosiy tamoyillari.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Sug'urta kompaniyasi daromadlari va uni oshirish yo'llari.
2. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarni sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish masalalari.
3. Sug'urta kompaniyasi to'lov qobiliyatini mustahkamlash yo'llari.
4. Hosil sug'urtasi: xalqaro amaliyot, hozirgi vaziyat va muammolar.
5. Sug'urta risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari ("O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi misolida).
6. Hayot sug'urtasi bozorida zamonaviy sug'urta mahsulotlari (Evropa Ittifoqi davlatlari misolida).
7. Auditorlarning kasbiy javobgarligini sug'urta kilish va uni takomillashtirish.
8. Tashuvchilarning fuqarolik javobgarligini sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
9. Sug'urta da'volari va ularni tartibga solish amaliyotini takomillashtirish.
10. O'zbekistonda hududiy sug'urta xizmatlari bozorlarini rivojlantirish yo'llari
11. Siyosiy risklar va investitsiyalarni sug'urtalashda uning ahamiyati.
12. Avtotransport vositalari egalarining uchinchi shaxslar oldidagi fukarolik javobgarligini sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish.
13. Sug'urta kompaniyalari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va uni rivojlantirish masalalari.
14. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya balansi va hisob t shakllarining o'ziga xos xususiyatlari.
15. Mustaqillik yillari O'zbekistonda sug'urta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning istiqbolada rivojlanishi.



KAFOLAT

№1


1. Birinchi qarzdorning kreditdan foydalanish muddati 3 oy, barcha kreditlarni sug'urtalaydi. Sug'urtalovchi qarzdorning moliyaviy axvolini inobatga olgan holda kamaytirilgan koeffitsent qo'llaydi-0,8. Ikkinchi qarzdorning kreditdan foydalanish muddati 9 oy, ba'zi kreditlarini sug'urtalaydi. Sug'urtalovchi qarzdorning moliyaviy axvolini va zaif to'lov qobiliyatini inobatga olgan holda ko'paytirilgan tarif qo'llaydi-2,2. Normativ tarif stavkalar sug'urta summasidan-1,2% va 2,6%.



**Kreditni qaytarilmaslik riski
bo'yicha tarif stavkalarini toping?**

№2

2. Birinchi qarzlор 150 mln.so'm miqdorida bir yilga kredit oldi. Kredit yillik 42%. Sug'urta shartnomasi muddati 8 oy. Sug'urtalovchining maksimal javobgarligi 85%. Yillik tarif stavka 2,1%.



**Kreditni qaytarilmaslik riski bo'yicha
sug'urta mukofotlarini toping?**

№3

1. Qarzdor 250 mln.so‘m miqdorida bir yarim yilga kredit oldi. Kredit yillik 48%. Sug‘urta shartnomasi muddati 10 oy. Sug‘urtalovchining maksimal javobgarligi 95%. Yillik tarif stavka 2,1%.

Kreditni qaytarilmaslik riski bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini toping?

№4

2. Ob‘ektning haqiqiy narxi 15 mln.so‘m, sug‘urta summasi 3,5 mln.so‘m, ob‘ektning sug‘urta xodisasi natijasida ko‘rgan zarari 7,5mln.so‘m.

Nisbiy javobgarlik tizimi bo‘yicha sug‘urta qoplamasi summasini toping?

№5

3. Birinchi risk sistemasi bo‘yicha avtotransport 60 mln.so‘mga sug‘urtalangan. Avtotransportning haqiqiy narhi 90 mln.so‘m. Sug‘urta hodisasi natijasida avtotransport 80 mln.so‘m miqdorida zarar ko‘rdi.

Birinchi risk sistemasi bo‘yicha sug‘urta qolamasi summasini toping?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Sug'urta tashkilotlari qachon yuridik shaxs maqomini oladi?

- A) Moliya Vazirligidan litsenziya olganlaridan so'ng.
- B) Adliya Vazirligida davlat ro'yxatidan o'tganlaridan so'ng.
- C) Aktsiyadorlar umumiy yig'ilishidan so'ng.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

2) Sug'urta faoliyatini nazorat etish huquqiga ega bo'lgan maxsus vakolatli organ kim tomonidan tashkil etiladi?

- A) Adliya Vazirligi tomonidan.
- B) Oliy Majlis tomonidan.
- C) hukumat tomonidan.
- D) Moliya vazirligi tomonidan.

3) Quyidagilardan qaysi biri sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadi?

- A) sug'urta kompaniyalarining assotsiatsiyasi.
- B) aktuarlar markazi.
- C) davlat sug'urta nazorati organi.
- D) sug'urta agentlari.

4) Kovernota – bu:

- A) sug'urta brokeri tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga beriladigan hujjat.
- B) sug'urtalovchi tomonidan mijozlarga beriladigan hujjat.
- C) sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi hatti-harakatlarini tartibga soluvchi hujjat.
- D) sug'urta agentiga sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan hujjat.

5) Sug'urta summasi nimaga nisbatan aniqlanadi?

- A) sug'urta mukofotiga nisabatan.
- B) sug'urta ob'ektiga nisbatan.
- C) sug'urtalovchining moliyaviy imkoniyatini hisobga olgan holda.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

6) Sug'urta tashkiloti o'z faoliyatini qanday hujjat asosida amalga oshiradi?

- A) aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori asosida.

- B) tasdiqlangan Nizom asosida.
- C) ta'sisчилarning ko'rsatmasi asosida.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

7) Qishloq xo'jalik korxonalari hosilini sug'urta qilish:

- A) ixtiyoriy tartibda o'tkaziladi.
- B) majburiy tartibda o'tkaziladi.
- C) majburiy-ixtiyoriy tartibda o'tkaziladi.
- D) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

8) Amalda bo'lgan sug'urta shartnomasiga quyidagi qaysi holatlarda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin?

- A) o'zgartirishlar kiritilishi mumkin emas.
- B) sug'urta ob'ektining qiymati o'zgarganda.
- C) «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

9) Sug'urta shartnomasi o'z kuchini yo'qotadi:

- A) sug'urtalanuvchining tashabbusi bilan.
- B) sug'urtalovchining tashabbusi bilan.
- C) sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi oldida to'liq o'z majburiyatini bajargandan so'ng.
- D) sug'urta shartnomasi hokimiyat qarori bilan o'z kuchini yo'qotadi.

10) Sug'urta tashkilotlari savdo-vositachilik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlimi?

- A) haqli.
- B) qisman haqli.
- C) haqli emas.
- D) qisman haqli emas.

11) Sug'urta zahiralarini investitsiya ob'ektlariga qanday shartlarda joylashtiriladi?

- A) diversifikatsiya shartlarida.
- B) faqat savdo-vositachilik bitimlarini moliyalashtirish shartlarida.

C) sug'urta zahirolari 100 foiz davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirishi sharti bilan.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

12) Qaysi holatlarda sug'urta shartnomasi bekor etilishi mumkin?


A) Sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalovchiga noto'g'ri ma'lumotlar berilgan taqdirda.

B) Sug'urta shartnomasida orfografik xatolar bo'lganda.


C) sug'urtalovchi ustav kapitali miqdorini oshirganda.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

TALABALARNING MAVZU BO‘YICHA BILIM VA KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR



Sug'urta qiluvchining yangi mijozlarni jalb etish asosida ish yuritishi (ovchi strategiyasi)



Sug'urta qilish jarayoni

Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish tarif stavkasi tarkibi

t/r	Ko'rsatkichlar	%
1	Sug'urta mukofotining brutto-stavkasi	100
2	Netto-stavka (ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha joriy sug'urta to'lovlarini ta'minlashga mo'ljallangan brutto-stavkaning bir qismi)	70
3	Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlari	30
4	shu jumladan, sug'urta hodisalari boshlanishining oldini olish va ogohlantirish bo'yicha zaxiraga ajratmalar	5

7-MAVZU: SHAXSIY SUG'URTA

Quyidagi atamalarga izoh bering: Shaxsiy sug'urta, shaxsiy sug'urtani amalga oshirishning asosiy tamoyillari, shaxsiy sug'urta shartnomalarining muhim bo'lgan shartlari, hayot sug'urtasi, o'lim hodisasidan sug'urtalash, ma'lum yoshgacha sug'urta qilish, renta sug'urtasi, hayotni aralash sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan, kasalliklardan sug'urtalash, tibbiy sug'urta.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Shaxsiy sug'urta. Uning sug'urta munosabatlaridagi o'rni va roli.
2. Shaxsiy sug'urtaning kichik tarmoqlariga umumiy tavsifnoma.
3. Shaxsiy sug'urtada sug'urta manfaati va sug'urta riskining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Shaxsiy sug'urtani amalga oshirishning asosiy tamoyillari.
5. Shaxsiy sug'urta shartnomalarining muhim bo'lgan shartlari.
6. Hayot sug'urtasi. Hayot sug'urtasini amalga oshirishning umumiy tamoyillari va o'ziga xosligi: o'lim hodisasidan sug'urtalash, ma'lum yoshgacha sug'urta qilish, renta sug'urtasi, hayotni aralash sug'urtasi.
7. Baxtsiz hodisalardan va kasalliklardan sug'urtalash.
8. Tibbiy sug'urta.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. SHaxsiy sug'urtaning rivojlanish tarixi va bosqichlari.
2. O'zbekistonda uzoq muddatli hayot sug'urtasining amalga oshirilishi.
3. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta.
4. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash tartibi.
5. Xorijiy davlatlarda ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urtani amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Majburiy tibbiy sug'urta.
7. CHet elga chiquvchi fuqarolarni tibbiy va baxtsiz xodisalardan sug'urtalash.

8. Majburiy davlat sug'urtasisi.
9. O'zbekistonda hayot sug'urta kompaniyalari faoliyati tahlili.
10. Sug'urta shartnomalarini tuzish va ijro etish tartibotining zamonaviy muammolari.
11. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash mexanizmini takomillashtirish masalalari.
12. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari.
13. O'zbekistonda xususiy sug'urta tashkilotlari tarmog'ini shakllantirish va ularni rivojlantirish masalalari.
14. O'zbekistonda majburiy davlat sug'urtasini rivojlantirish.
15. Sug'urta kompaniyasida moliyaviy menejmentning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari.

TALABALARNING MAVZU BO'YICHA BILIM VA KO'NIKMALARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR

Majburiy tibbiy sug'urta badallarini taqsimlanishi (ish haqidan %da)

Mamlakat	Ishchilar	Ish beruvchilar	Mustakil ravishda qoplanadigan xarajatlar
Xizmat ko'rsatish asosida amalga oshiriladigan majburiy tibbiy sug'urta			
Germaniya	6,70	6,70	Kasalxonada davolanish va dorilar
Niderlandiya	9,95	10,20	Ko'zda tutilmagan
Xarajatlarni qoplash asosida amalga oshiriladigan majburiy tibbiy sug'urta			
Belgiya	4,70	6,20	Kasalxonada davolanish va dorilar
Fransiya	6,80	12,80	
Lyuksenburg	4,50	4,50	

G'arbiy Evropada tibbiy sug'urta

Mamlakat	Aholi ichida sug'urtalangan-lar ulushi, %	Sug'urtalanganlar soni, mln. kishi	Badallar hajmi, mln.evro	Bitta sug'urtalangan ga to'g'ri keladigan badal, evro
Avstriya				
Angliya	37,5	2,8	1337	483
Germaniya	25,5	14,5	2751	190
Gollandiya	16,9	10,3	15080	1464
Daniya	39,4	5,7	4244	738
Ispaniya	20,0	1,0	169	169
Fransiya	15,0	5,6	1210	214
	18,0	10,0	5820	582

Rossiyada keng qo'llaniladigan, erkaklarning vafot etish jadvali²

Yoshi, x	Vafot etish ehtimolligi, q_1	Belgilangan yoshga etadiganlar soni, I	Vafot etganlar soni, d	Hayot davomiyligining qolgan qismi, e
0	0,01821	100000	1821	61.4
1	0,00139	98179	136	61.6
2	0,00085	98043	83	60.6
3	0,00064	97959	63	59.7
4	0,00061	97897	60	58.7
5	0,00053	97837	52	57.8
6	0,00051	97785	50	56.8
7	0,00049	97735	48	55.8
8	0,00048	97687	47	54.9
9	0,00047	97640	46	53.9
10	0,00047	97594	46	52.9

Vafot etish va yashab qolish ehtimolligi hisobi³

Yoshi, x	Vafot etish ehtimolligi, q	Yashab qolganlar soni, I	Vafot etganlar soni, d
40	0,00908	86855	789
41	0,00968	86067	833
42	0,01029	85234	877
43	0,01096	84357	925
44	0,01176	83432	981
45	0,01261	82451	1040

² . www.ifin.ru/insurance/

³ . www.ifin.ru/insurance/

“KAFOLAT” AJning baxtsiz xodisalarda sug‘urtalash turi bo‘yicha sug‘urta xodisasini yuz berishi bilan bog‘liq bo‘lgan, to‘lanadigan sug‘urta summalarini miqdorining jadvali⁴

t/r	Shikastlanish xarakteri va sug‘urta summasi hajmi % da		
	0 – 50 % gacha bo‘lgan hajmni tashkil qiluvchi shikastlanish xarakteri	50 – 80 % gacha bo‘lgan hajmni tashkil qiluvchi shikastlanish xarakteri	80 – 100 % gacha bo‘lgan hajmni tashkil qiluvchi shikastlanish xarakteri
Bosh miya suyaklari va asab tizimi			
1	Miya suyaklarining sinishi	-	-
2	Ichki miyaning travmatik gemotomalari	-	-
3	Bosh miyasining shikastlanishi	-	-
4	Asab tizimining shikastlanishi (engil darajada)	Asab tizimining shikastlanishi (o‘rta darajada)	Asab tizimining shikastlanishi (og‘ir darajada)
5	Bir yoki bir nechta ichui miya nervlarining periferik shikastlanishi	-	-
6	Har qanday darajada orqa miyaning shikastlanishi	-	-
7	Travmatik nevrirlar	-	-
8	Bo‘yin, elka va bel soxalarining engil darajada shikastlanishi	Bo‘yin, elka va bel soxalarining o‘rta darajada shikastlanishi	-
Ko‘rish organlari			
9	Bir ko‘zning paralich xolatga kelishi	-	-
10	Ko‘z olmasi mushaklarining shikastlanishi	-	-
11	Bir ko‘zda ko‘rish qobiliyatining pasayishi	-	-
12	Bir ko‘zning ekzoftalm xolatida pulslanishi	-	-
13	Bir ko‘zda yosh chiqaruvchi yo‘llarning shikastlanishi	-	-

⁴ “KAFOLAT” AJ ning maълumotlari asosida тайёрланди.

14	Koʻzning jaroxatlanish oqibatlari	-	-
15	-	-	Koʻzning shikastlanishi natijada bir yoki ikkala koʻzda koʻrish qobiliyatining toʻliq yoʻqolishi, 0,01 past boʻlmagan koʻrish qobiliyatiga ega boʻlganlar
16	Koʻz qobigʻining jaroxatlanishi	-	-
17	Krish qobiliyatining pasayishi	-	-
Eshtish organlari			
18	Quloq suprasining shikastlanishi	-	-
19	Bir quloqning shikastlanishi natijasida eshtish qobiliyatining pasayishi	-	-
20	Quloqning shikastlanishi natijasida quloq pardasining yirtilishi	-	-
21	Bir quloqning otit natijasida jarohatlanishi	-	-
Nafas tizimi			
22	Koʻkrak qafasidagi organlarning shikastlanishi (engil jarohat)	Koʻkrak qafasidagi organlarning shikastlanishi (oʻrtacha jarohat)	-
23	Koʻkrak qafasining sinishi	-	-
24	Har bitta qovurgʻaning sinishi	-	-
YUrak-tomir tizimi			
25	YUrak, undagi qobiq va yirik tomirlarning shikastlanishi	-	-
26	YUrakdagi yirik periferik tomirlarning shikastlanishi	-	-
Ovqat xazm qilish organlari			

27	YUqori jagʻ sinishi	-	-
28	Jagʻ qismining shikastlanishi (qisman)	Jagʻ qismining shikastlanishi (toʻliq)	-
29	Ogʻiz boʻshligʻi va tilning shikastlanishi	-	-
30	Tilning engil darajada shikastlanishi	-	Tilning ogʻir darajada shikastlanishi
31	Tishlarning shikastlanishi (1ta tishdan 10 ta tishgacha)	-	-
32	Ovqat xazm qilish organlarining (engil darajada) shikastlanishi	-	Ovqat xazm qilish organlarining (ogʻir darajada) shikastlanishi
33	Oʻt pufagi va jigarning shikastlanishi	-	-
34	Oshqozon osti bezining shikastlanishi	-	-
35	Oshqozon va izaklarning shikastlanishi	Oshqozon va izaklarning shikastlanishi	-
36	Qorin organlarining shikastlanishi	-	-
Umurtqa			
37	Umurtqa qismining sinishi	-	-
38	Umurtqalararo boʻgʻinlarning yirtilishi	-	-
Elka boʻgʻinlari			
39	Elka boʻgʻin qisimlarining shikastlanishi	-	-
40	Elka qismining shikastlanishi	-	-
Elka			
41	Elka suyaklarining sinishi	-	Elka suyaklarining ogʻir darajada shikastlanishi

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Sug'urta tashkilotlari savdo-vositachilik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlimi?

- A) haqli.
- B) qisman haqli.
- C) haqli emas.
- D) qisman haqli emas.

2) Sug'urta zahiralarini investitsiya ob'ektlariga qanday shartlarda joylashtiriladi?

- A) diversifikatsiya shartlarida.
- B) faqat savdo-vositachilik bitimlarini moliyalashtirish shartlarida.
- C) sug'urta zahiralarini 100 foiz davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirishi sharti bilan.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

3) Sug'urta hodisasi ro'y berishi tufayli ko'rilgan zarar qaysi hujjat asosida sug'urtalanuvchiga qoplanadi?

- A) sug'urta polisi asosida.
- B) sug'urta shartnomasi asosida.
- C) sug'urta dalolatnomasi asosida.
- D) sug'urta summasi asosida.

4) Qaysi holatlarda sug'urta shartnomasi bekor etilishi mumkin?

- A) Sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalovchiga noto'g'ri ma'lumotlar berilgan taqdirda.
- B) Sug'urta shartnomasida orfografik xatolar bo'lganda.
- C) sug'urtalovchi ustav kapitali miqdorini oshirganda.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

5) Havo kemasi yo'lovchilarini sug'urta qilish:

- A) ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi.
- B) majburiy tarzda amalga oshiriladi.
- C) davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

D) aviakompaniya mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

6) O'zaro sug'urtalash jamiyati qanday asosda tashkil etiladi?

A) tijorat asosida tashkil etiladi.

B) qisman tijorat asosida tashkil etiladi.

C) notijorat asosida tashkil etiladi.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

7) Ogohlantirish tadbirlarini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan zahira mablag'lari nima maqsadda ishlatiladi?

A) sug'urta qoplamalarini to'lash maqsadida.

B) ish yuritish xarajatlarini moliyalashtirish uchun.

C) sug'urtalangan mol-mulkni nobud bo'lishi va shikastlanishi, baxtsiz hodisalarni oldini olish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga.

D) zararlarni o'zgarishi bo'yicha zahiralarini shakllantirish uchun.

8) Hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi sug'urta tashkilotlari uchun belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdorini ko'rsating?

A) 750 ming evro

B) 1 mln evro

C) 2 mln evro

D) 4 mln evro

9) Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi qaysi funktsiyani bajaradi?

A) himoya funktsiyasini.

B) nazorat funktsiyasini.

C) YaIMni taqsimlash.

D) sug'urta qoplamalarini to'lash funktsiyasini.

10) Sug'urtalovchi – bu:

A) sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxs.

B) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan va sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun Moliya vazirligidan litsenziya olgan yuridik shaxs.

C) Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan har qanday yuridik shaxs.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

11) Sug'urta mukofoti aniqlanadi:

- A) ob'ektning bozor bahosiga nisbatan.
- B) ob'ektning balans qiymatiga nisbatan.
- C) ob'ektning sug'urta summasiga nisbatan.
- D) ob'ektning haqiqiy qiymatiga nisbatan.

12) Quyidagi manfaatlardan qaysi biri sug'urta himoyasiga olinishi mumkin emas?

- A) garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi zarur bo'lgan xarajatlarni sug'urta himoyasiga olish.
- B) garovga qo'yilgan mol-mulklarni.
- C) jismoniy shaxslarning xizmat muddatini o'tagan mol-mulklarini sug'urta himoyasiga olish.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

8-MAVZU: MOL-MULK SUG'URTASI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Mulkiy manfaatlarni sug'urtalash, mulk sug'urtasida ob'ekt va sub'ektlar, mulk sug'urtasi boyicha shartnomalarni tuzilishi va ijro etilishi, jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash, fuqarolarga tegishli uy-joylar, qishloq xo'jalik hayvonlarini sug'urtalash, fuqarolarning shaxsiy transport vositalarini sug'urtasi: asosiy turlari va javobgarlik hajmi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mulkiy manfaatlarni sug'urtalash. Mulk sug'urtasida ob'ekt va sub'ektlar.
2. Mulk sug'urtasi boyicha shartnomalarni tuzilishi va ijro etilishi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash.
3. Fuqarolarga tegishli uy-joylar, qishloq xo'jalik hayvonlarini sug'urtalash.
4. Fuqarolarning shaxsiy transport vositalarini sug'urtasi: asosiy turlari va javobgarlik hajmi.
5. Aviatsiya sug'urtasi. Havo kemalarini sug'urtalash.
6. Yuklarni sug'urtalash.
7. Yuridik shaxslarning mol-mulkini sug'urtalash.
8. Qurilish-montaj risklarining sug'urtasi.
9. Tijorat banklarining mulkiy manfaatlarini sug'urtalash.
10. Moliyaviy risklarni sug'urtalash.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Mol-mulk sug'urtasida tarif va sug'urta xizmatlari tannarxini hisbolash uslubiyoti va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
2. Sug'urta shartnomalarini tuzish va ijro etish tartibotining zamonaviy muammolari.
3. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash mexanizmini takomillashtirish masalalari.
4. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari.

5. O'zbekistonda xususiy sug'urta tashkilotlari tarmog'ini shakllantirish va ularni rivojlantirish masalalari.
6. O'zbekistonda majburiy davlat sug'urtasini rivojlantirish.
7. Sug'urta kompaniyasida moliyaviy menejmentning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari.
8. Sug'urta menejmenti va uni takomillashtirish yo'llari.
9. Sug'urta faoliyati klassifikatori va uning tuzilishi.
10. Sug'urtada marketingni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
11. "O'zagrosug'urta" AJ sug'urta kompaniyasi va uning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi roli.
12. Fermer va dehqon xo'jaliklarining mulkiy manfaatlarini sug'urtalash masalalari.
13. "Kafolat" AJ sug'urta kompaniyasining O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyati va uni takomillashtirish yo'llari.
14. "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari.
15. Sug'urta zahiralar: shakllanish va foydalanish yo'nalishlari (xususiy sektor sug'urta kompaniyalari misolida).
16. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urtalashning asosiy yo'nalishlari va uni takomillashtirish.
17. Transport sug'urtasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
18. Qishloq xo'jalik ekinlari hosilidan ko'rilgan zararlarni qoplash mexanizmi va uni takomillashtirish.
19. O'zbekistonda eksport sug'urtasi rivojlanishining istiqbollari.
20. Sug'urta faoliyati auditini tashkil etishning zamonaviy yo'llari.

MAVZU BO'YICHA MASALALAR

Masala 1. Qarzdor 01.01.07da 1 yil muddatga 20% yillik stavka bilan \$500000 miqdorida bankdan kredit oldi. Kredit so'ndirilishi(foiz to'lovlari bilan birgalikda) har oyda teng miqdorlarda amalga oshirilishi kerak. Bank kredit so'ndirilmaslik riskini sug'urtaladi. Sug'urtalovchining me'yoriy javobgarlik chegarasi - 70%, sug'urta tarifi – 4%. Sug'urta mukofotlari har oylik sug'urta badallari yordamida bo'lib-bo'lib to'lanadi, bo'lib –bo'lib to'langanligi uchun komission to'lov olinmaydi. Sug'urta badallari grafigini tuzing.

Javob: Sug'urta badallari grafigi jadvalda keltirilgan.

Oylar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Sug'urta badallari(ming so'm)	15,4	14	12,6	11,2	9,8	8,4	7	5,6	4,2	2,8	1,4	0

Masala 2. Xo'jalik sub'ekti o'z mol-mulkini buzib kirib o'g'irlik qilishdan 600 mln.so'mga bir yilga sug'urta qildi. Sug'urta tarif stavkasi sug'urta summasidan 0,3%. Sug'urta sharnomasi bo'yicha 1% miqdorida shartli franshiza belgilangan, franshiza belgilanganligi sababli 2% miqdorida tarifga chegirma qo'llanilgan. Sug'urtalovchining zarari 3 mln.so'mga teng.

Sug'urta mukofoti summasi va sug'urta qoplamasi summasini toping.

Masala 3. Xo'jalik sub'ekti o'z mol-mulkini buzib kirib o'g'irlik qilishdan 800 mln.so'mga bir yilga sug'urta qildi. Sug'urta tarif stavkasi sug'urta summasidan 0,3%. Sug'urta sharnomasi bo'yicha 1% miqdorida shartli franshiza belgilangan, franshiza belgilanganligi sababli 2% miqdorida tarifga chegirma qo'llanilgan. Sug'urtalovchining zarari 12,5 mln.so'mga teng.

Sug'urta mukofoti summasi va sug'urta qoplamasi summasini topin

Masala 4. Ob'ekt 18 000 so'mga baholangan, uning 80% sug'urtalangan, zarar miqdori 6 200 so'm.

Nisbiy javobgarlik tizimi asosida sug'urta qoplamasini xisoblang.

Masala 5. Avtomobil birinchi tavakkalchilik tizimi asosida 75 000 so'mga sug'urtalangan, uning haqiqiy bahosi 89 000 so'm, sug'urtalanuvchi 32 000 so'm miqdorida zarar ko'rgan.

Birinchi va ikkinchi tavakkal miqdorini belgilang.

Masala 6. Sug'urtalangan ob'ektning qiymati 8,400 sum, sug'urta summasi 3,360 so'm, shikastlanish natijasida ko'rilgan zarar 4,840 so'm.

Sug'urta ta'minlash tizimining nisbiy javobgarligi qoidalariga asosan sug'urta qoplamasini hisoblang.

Masala 7. Uy jixozlari 90 000 so'm miqdorida sug'urtalangan. Yong'in natijasida uy anjomlariga 120 000 so'm miqdorida zarar etgan.

Birinchi va ikkinchi tavakkal ta'minoti qanday miqdorlarda hisoblanadi.

Masala 8. Ob'ektning bahosi 30 000 so'm, sug'urta summasi 12 000 so'm. Ob'ekt 100% zaralangan.

Sug'urta qoplamasining birinchi va ikkinchi tavakkal hamda nisbiy miqdorini aniqlang.

Masala 9. 3 yillik o'rtacha hosil erininghar gektaridan 32 tsentner, tabiiy ofat natijasida bu yilgi haqiqiy hosil gektaridan 27 tsentner. Bir gektar erdan terilgan paxtaning sotish bahosi 50 000 so'm, umumiy ekin maydoni 300 ga. Sug'urta qoplamasi umumiy zararining 70% miqdorini tashkil qiladi.

Chegaralangan javobgarlik tizimi asosida etkazilgan zarar miqdorini aniqlang.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) Sug'urta mukofoti aniqlanadi:

- A) ob'ektning bozor bahosiga nisbatan.
- B) ob'ektning balans qiymatiga nisbatan.
- C) ob'ektning sug'urta summasiga nisbatan.
- D) ob'ektning haqiqiy qiymatiga nisbatan.

2) Quyidagi manfaatlardan qaysi biri sug'urta himoyasiga olinishi mumkin emas?

- A) garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi zarur bo'lgan xarajatlarni sug'urta himoyasiga olish.
- B) garovga qo'yilgan mol-mulklarni.
- C) jismoniy shaxslarning xizmat muddatini o'tagan mol-mulklarini sug'urta himoyasiga olish.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

3) Quyidagilardan qaysi biri siyosiy risk tarkibiga kiradi?

- A) yong'in.
- B) zilzila.
- C) ish tashlashlar.
- D) suv toshqini.

4) «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasining asosiy faoliyat yo'nalishini ko'rsating?

- A) Eksporterlarning tashqi bozorlardagi mulkiy manfaatlarini sug'urtalash.
- B) avtoransport vositalarini sug'urtalash.
- C) fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.
- D) to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

5) Kasbiy javobgarlikni sug'urta qilishda sug'urta mukofoti nimaga nisbatan aniqlanadi?

- A) sug'urta summasiga nisbatan foizlarda.
- B) sug'urta tarifiga nisbatan.
- C) sug'urta bahosiga nisbatan.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

6) Notariuslarning kasbiy javobgarligini sug'urta qilish qanday shaklda amalga oshiriladi?

A) ixtiyoriy shaklda.

B) majburiy shaklda.

C) ixtiyoriy-majburiy shaklda.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

7) «O'zagrosug'urta» AJ sug'urta kompaniyasi qachon qayta tashkil etilgan?

A) 1998 yil 8 fevralda.

B) 1997 yil 18 fevralda.

C) 1997 yil 25 fevralda.

D) 1993 yilda.

8) Quyidagilardan qaysi biri sug'urta shartnomasining muhim sharti hisoblanadi?

A) sug'urtalanuvchining moliyaviy hujjatlari bilan tanishish.

B) sug'urta summasi.

C) sug'urta hodisasi ro'y berganda uni aniqlash uchun jalb etiladigan ekspertga haq to'lash shartlari.

D) sug'urta mukofotini natural ko'rinishda to'lash mumkinligi.

9) Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibini qaysi organ belgilaydi?

A) sug'urta tashkilotining o'zi belgilaydi.

B) davlat sug'urta nazorati organi belgilaydi.

C) Adliya vazirligi belgilaydi.

D) Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

10) Sug'urtalovchilarning zahira mablag'lari qaysi maqsadda ishlatiladi?

A) sug'urta tashkiloti joylashgan binoni saqlash xarajatlarini moliyalashtirishga.

B) sug'urta hodisasi ro'y berganda yuzaga keladigan zararlarni qoplashga.

C) sug'urtalovchining ogohlantirish tadbirlarini moliyalashtirishiga.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

11) Sug'urta tashkilotining zahiradagi mablag'lari davlat tomonidan olib qo'yilishi mumkinmi?

- A) olib qo'yilishi mumkin.
- B) qisman olib qo'yilishi mumkin.
- C) umuman olib qo'yilishi mumkin emas.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

12) Qishloq xo'jalik hosilini sug'urtalashda:

- A) sug'urta javobgarligi hajmi so'ngi uch yilda 1 ga erdan olingan o'rtacha hosildorlik qiymatidan oshib ketmasligi zarur.
- B) sug'urta javobgarligi hajmi joriy yilda 1 ga erdan olinishi rejalashtirilgan hosil qiymatidan yuqori bo'lishi mumkin.
- C) sug'urta javobgarligi hajmi joriy yilda 1 ga erdan olinishi rejalashtirilgan hosil qiymatidan yuqori bo'lishi mumkin.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

TALABALARNING MAVZU BO'YICHA BILIM VA KO'NIKMALARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR


Tashishning har qanday turi		
E guruhi	EXW	Franko zavod (...joyning nomi)
F guruhi	FCA	Franko perevozchik (... tayinlangan joyning nomi)
S guruhi	SRT CIP	Fraxt/tashuv (... tayinlangan joyning nomi) gacha to'langan Fraxt/tashuv va sug'urta (...tayinlangan joyning nomi) gacha to'langan
D guruhi	DDP DAT	Chegaragacha etkazib berish (...etkazib berish joyining nomi) Boj to'lovisiz etkazib berish (...tayinlangan joyning nomi)
Faqat dengiz va ichki suv transporti		
F guruhi	FAS FOB	Kema borti bo'ylab erkin (... jo'natish portining nomi) Bortda (franko) erkin (... jo'natish portining nomi)
S guruhi	CFR CIF	Qiymati va fraxt (... tayinlangan portning nomi) Qiymat, sug'urta va fraxt (...tayinlangan portning nomi)
D guruhi	DAT	Kemadan etkazib berish (...tayinlangan portning nomi) Pristandan etkazib berish (...tayinlangan portning nomi)



**2015 yil O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta lovcchilarning TVEFJMSQ bo'yicha
sug'urta shartnomalari soni va mukofotlari reytingi**

№	Kompaniyalar	Shartnomalar Soni	Ulush % da	Sug'urta mukofotlari (mln.so'm)	Ulush % da
1	O'zagrosug'urta	718 350	40.6	20 371.8	35.2
2	Kafolat	310 248	17.5	10 769.7	18.6
3	Kapital sug'urta	158 758	9.0	6 140.8	10.6
4	Alskom	148 585	8.4	4 840.8	8.4
5	Alfa Invest	118 033	6.7	4 277.7	7.4
6	Asia Insurance	111 640	6.3	4 224.9	7.3
7	Uzbekinvest	23 999	4.7	3 112.8	5.4
8	Universal Sug'urta	75 962	4.3	2 617.3	4.5
9	Ishonch	42 857	2.4	1 548.1	2.7

■ SAYPRO axborot-reyting agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



**Sug'urta kompaniyalarining mukofotlari va to'lovlari
hajmi**

**Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta
qilish bo'yicha 2013-2015 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari**

T/r	Yillar	Tuzilgan sug'urta shartnomalari	Tushgan sug'urta mukofotlari hajmi (mln.so'm)	Qoniqtirilgan sug'urta da'volari	Qoniqtirilgan sug'urta da'volari soni
1	2013 yil	1819420	59471,4	5165	8001,0
2	2014 yil	1924075	68391,5	6263	10533,1
3	2015 yil	2066618	78715,0	6624	12791,3

9-MAVZU: JAVOBGARLIKNI SUG'URTA QILISH

Quyidagi atamalarga izoh bering: Javobgarlik sug'urtasi, javobgarlik sug'urtasida sug'urta ob'ekti va sub'ekti, fuqarolik javobgarligi: uning namoyon bo'lish shakllari, javobgarlik sug'urtasi turlari, chet mamlakatlarga chiquvchi transport egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi: xalqaro "Yashil karta" tizimi, kasbiy javobgarlik sug'urtasi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Javobgarlik sug'urtasi – sug'urta faoliyatining mustaqil tarmog'i.
2. Javobgarlik sug'urtasida sug'urta ob'ekti va sub'ekti.
3. Fuqarolik javobgarligi: uning namoyon bo'lish shakllari. Etkazilgan zararni uchinchi shaxslar tomonidan qoplanish zarurligi.
4. Javobgarlik sug'urtasi turlari.
5. Avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini ixtiyoriy va majburiy sug'urtalash: o'tkazish tartibi, sug'urta tarifi stavkasi va sug'urta summasi miqdori.
6. Chet mamlakatlarga chiquvchi transport egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi: xalqaro "Yashil karta" tizimi.
7. Kasbiy javobgarlik sug'urtasi. Uning turlari: auditorlar, notariuslar va boshqa kasb egalarining kasbiy javobgarligini sug'urtasi.
8. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash tartibi.
9. Tashuvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalashning zarurligi va ahamiyati.
10. Bojxona brokerlirining kasbiy javobgarligini sug'urtalash tartibi.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Transport sug'urtasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Qishlok xo'jalik ekinlari hosilidan ko'rilgan zararlarni qoplash mexanizmi va uni takomillashtirish.

3. O'zbekistonda eksport sug'urtasi rivojlanishining istiqbollari.
4. Sug'urta faoliyati auditini tashkil etishning zamonaviy yo'llari.
5. Sanoat risklari va ularni sug'urtalash uslubiyotini takomillashtirish masalalari.
6. Xalqaro "Yashil karta" tizimi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.
7. Qayta sug'urta qilishning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va zarurligi.
8. Aktuar hisob-kitoblarning zarurligi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
9. Yo'lovchilarni majburiy sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari va uni rivojlantirish masalalari.
10. SHaxsiy sug'urtaning zarurligi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari
11. Javobgarlik sug'urtasining o'ziga xos xususiyatlari va uni rivojlantirish masalalari.
12. Garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari
13. Qishlok xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalash va uni rivojlantirish istiqbollari.
14. O'zbekistonda kasbiy javobgarlikni sug'urtalash muammolari (notariuslar, baholovchilar va bojxona brokerlari misolida).
15. Yuk tashuvchilarning uchinchi shaxslar oldidagi fukarolik javobgarligini sug'urtasi va uni takomillashtirish.
16. O'zbekiston va Yevro Osiyo hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi sug'urta munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari.
17. Sug'urtalovchining biznes-rejasi va uni tuzishning o'ziga xosligi.
18. O'zbekiston sug'urta bozorida xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan sug'urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirish yo'llari.

MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

Masala 1. “Biznes-xizmat” korxonasi “Kelajak sug‘urta” sug‘urta kompaniyasi tomonidan o‘ziga berilgan “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasi” bo‘yicha berilgan sug‘urta polisi yo‘qolib qolganligi va shu munosabat bilan dublikat berishni so‘rab murojaat qildi. Sug‘urta kompaniyasi bunga javoban eng kam ish haqi miqdorining 10 foizi miqdoridagi to‘lovni amalga oshirishi zarurligini ma’lum qildi. Ushbu talab to‘g‘rimi, agar to‘g‘ri bo‘lsa qanday hujjatga asosan to‘g‘ri?

Javob: Vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish qoidalarining 2 bo‘limi 14 bandiga asosan sug‘urta kompaniyasining talabi to‘g‘ri.

Masala 2. Transport vositalarini boshqarishga qo‘yilgan shaxslar soni cheklanmasligi sharti bilan 1 yilga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasi shartnomasi tuzish uchun sug‘urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$SS = 6\,900\,000$ so‘m

$TB = 0.4$

$KT = 1.4$

$J: PR = CC \times TB \times KT \times KBO/100$

Sug‘urta mukofoti summasi = sug‘urta summasi x yillik bazaviy stavka x transport vositasidan foydalaniladigan hudud koefitsienti x transport vositalarini boshqarishga qo‘yilgan shaxslar soni cheklanmagan holdagi koefitsient : 100 = $6\,900\,000 \times 0,4 \times 1,4 \times 4,2 : 100 = 162\,288$ so‘m

Masala 3. Transport vositalarini boshqarishga qo‘yilgan shaxslar soni cheklanmasligi sharti bilan 1 yilga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasi shartnomasi tuzish uchun sug‘urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 4\,000\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.4$$

$$KT = 1.4$$

Masala 4. Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmasligi sharti bilan transport vositasidan mavsumiy foydalanish hisobga olingan holda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasini tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 6\,900\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.3$$

$$KT = 1.2$$

$$KS = 0.6$$

$$J: PR = CC \times TB \times KT \times KBO \times KS/100$$

Sug'urta mukofoti summasi = sug'urta summasi x yillik bazaviy stavka x transport vositasidan foydalaniladigan hudud koeffitsienti x transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmagan holdagi koeffitsient x transport vositasidan mavsumiy foydalanish koeffitsienti : 100 = 6 900 000 x 0,3 x 1,2 x 4,2 x 0.6 : 100 = 62 597 so'm

Masala 5. Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmasligi sharti bilan transport vositasidan mavsumiy foydalanish hisobga olingan holda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasini tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 5\,200\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.3$$

$$KT = 1.2$$

$$KS = 0.6$$

Masala 6. Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmasligi sharti bilan transport vositasidan mavsumiy foydalanish hisobga olingan holda xorijiy davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan va O'zbekiston respublikasi hududida vaqtincha foydalanilayotgan transport vositasiga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasini tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 6\,800\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.3$$

$$KT = 1.2$$

$$KP = 0.7$$

$$J: PR = CC \times TB \times KT \times KBO \times KP/100$$

Sug'urta mukofoti summasi = sug'urta summasi x yillik bazaviy stavka x transport vositasidan foydalaniladigan hudud koefitsienti x transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmagan holdagi koefitsient x xorijiy transport vositasidan mavsumiy foydalanish bo'yicha sug'urta qilish muddati koefitsienti : 100 = 6 800 000 x 0,3 x 1,2 x 4,2 x 0.7 : 100 = 71 971 so'm

Masala 7. Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanmasligi sharti bilan transport vositasidan mavsumiy foydalanish hisobga olingan holda xorijiy davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan va O'zbekiston respublikasi hududida vaqtincha foydalanilayotgan transport vositasiga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasini tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 5\,300\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.3$$

$$KT = 1.2$$

$$KP = 0.7$$

Masala 8. Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanishi sharti bilan 1 yilga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasi tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 6\,700\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.5$$

$$KT = 1.0$$

$$KBM = 0.9$$

$$KV = 1.4$$

$$KN = 1.0$$

$$KVZ = 1.25$$

$$J: PR = CC \times TB \times KT \times KBM \times KV \times KN \times KVZ/100$$

Sug'urta mukofoti summasi = sug'urta summasi x yillik bazaviy stavka x transport vositasidan foydalaniladigan hudud koeffitsienti x oldingi davrda sug'urta hodisasi sodir bo'lgan yoki bo'lmaganligi koeffitsienti x haydovchining stajiga ko'ra belgilanadigan koeffitsient x sug'urta qildiruvchida oldingi 5 yilda qoida buzishlar sodir etilganlik koeffitsienti x haydovchining yoshiga qarab belgilanadigan koeffitsient : $100 = 6\,700\,000 \times 0,5 \times 1,0 \times 0,9 \times 1.4 \times 1.0 \times 1.25 :$
 $100 = 52\,763 \text{ so'm}$

Masala 9. Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanishi sharti bilan 1 yilga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasi tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 5\,500\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.5$$

$$KT = 1.0$$

$$KBM = 0.9$$

$$KV = 1.4$$

$$KN = 1.0$$

$$KVZ = 1.25$$

Masala 10. Transport vositalarini boshqarishga qo'yilgan shaxslar soni cheklanishi sharti bilan transport vositasidan mavsumiy foydalanish hisobga olingan holda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtasi shartnomasi tuzish uchun sug'urta mukofotini hisoblang.

Bunda

$$SS = 6\,600\,000 \text{ so'm}$$

$$TB = 0.6$$

$$KT = 0.8$$

$$KBM = 0.8$$

$$KV = 1.1$$

$$KS = 0.8$$

$$KN = 1.5$$

$$KVZ = 1.0$$

$$J: PR = CC \times TB \times KT \times KBM \times KV \times KS \times KN \times KVZ / 100$$

Sug'urta mukofoti summasi = sug'urta summasi x yillik bazaviy stavka x transport vositasidan foydalaniladigan hudud ko'effitsienti x oldingi davrda sug'urta hodisasi sodir bo'lgan yoki bo'lmaganligi ko'effitsienti x haydovchining stajiga ko'ra belgilanadigan ko'effitsient x transport vositasidan mavsumiy foydalanish ko'effitsienti x sug'urta qildiruvchida oldingi 5 yilda qoida buzishlar sodir etilganlik ko'effitsienti x haydovchining yoshiga qarab belgilanadigan ko'effitsient :

$$100 = 6\,600\,000 \times 0,6 \times 0,8 \times 0,8 \times 1.1 \times 0.8 \times 1.5 \times 1.0 : 100 = 33\,454 \text{ so'm}$$

**TALABALARNING MAVZU BO‘YICHA BILIM VA KO‘NIKMALARINI
MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR**

**Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishda
qo‘llaniladigan koefitsentlar**

№	Transport vositasining turi	Yillik bazaviy stavka, Tb1
1.	Engil avtomobillar	0,2046
2.	Mikroavtobuslar	0,0606
3.	Avtobuslar	0,0151
4.	Trolleybuslar	0,0102
5.	Tramvaylar	0,0102
6.	Metropoliten	0,0018
7.	Temiryo‘l transporti	0,0091
8.	Havo transporti	0,2513
9.	1-8-bandlarda ko‘rsatilmagan transport vositalarining boshqa turlari	0,0909

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashda sug'urta mukofoti quyida keltirilgan formulalar orqali aniqlanadi:

Shartnoma 1 yil muddatga tuzilganda:

$$SMQ = SS \times YBS \times STK / 100 \quad (1)$$

Shartnoma 1 yildan kam muddatga tuzilganda:

$$SQM = SS \times YBS \times STK / 100 / 365 \times K \quad (2)$$

Bu erda:

SMQ – Sug'urta mukofoti qiymati;

SS – Sug'urta summasi;


YBS – Yillik bazaviy stavka;

STK – Sug'urta tarifining mos koeffitsenti;


K – SHartnoma tuziladigan kunlar soni.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish


Fuqaro javobgarligi sug'urtasi iqtisodiy mexanizmi




ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGI SUG'URTASI BO'YICHA O'ZARO ALOQADORLIK SXEMASI




Su'gurta tariflarini boshqarish mexanizmi



Sug'urta mukofoti strukturasi



Ish beruvchining javobgarligini sug'urtalash bo'yicha tarixiy bosqichlar



• **XIX asr o'rtalarida ishlab chiqarish jarayonida ish beruvchining javobgarligi bo'yicha tegishli me'yoriy qoidalar ishlab chiqila boshlandi.**


- **60-yillar oxirida ko'pgina yevropa davlatlarida ish beruvchining javobgarligi bo'yicha qonunlar qabul qilindi.**

Qonunlar qabul qilish
Qoninchilik rivoji
Ish beruvchining ischi oldidagi sog'liqning buzilishi uchun javobgarligi
Kompensatsiya to'lash mexanizmi

Ish beruvchining majburiy fuqarolik javobgarligi sug'rtasining ishlash mehanizmi

2009 yilning 24 iyunida O'zR Vazirlar Mahkamasi 177-sonli "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi" bo'yicha O'zR qonunini tadbqiq etish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida qarori qabul qilindi.

Qarorning asosiy maqsadi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasining to'laqonli amal qilishini ta'minlash



10-MAVZU: MAJBURIY DAVLAT SUG'URTA TURLARI VA ULARNI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Majburiy sug'urta haqida tushuncha, majburiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari, sug'urta tariflari, summasi, shartlari, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari hamda xodimlarini majburiy davlat sug'urtasi, Davlat bojxona va soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasiga olish tartibi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Majburiy sug'urta haqida tushuncha va uni o'tkazishdagi asosiy shartlar.
2. Majburiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari.
3. Sug'urta hodisasi ro'y berganda tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar.
4. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari hamda xodimlarini majburiy davlat sug'urtasi.
5. Ushbu sug'urtani amalga oshirish shartlari, sug'urta tariflari va summalari.
6. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta summalarini to'lash tartibi.
7. Davlat bojxona va soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasiga olish tartibi.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Xavflilik darajasi yuqori bo'lgan sanoat korxonalarini sug'urtalashning hozirgi holati va istiqbollari.
2. Sug'urta bozori infratuzilmasi sub'ektlari va ular faoliyatini rivojlantirish muammolari.

3. Sug'urta portfeli va uning sug'urta kompaniyasi moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi roli.
4. O'zbekistonda qayta sug'urtalash turlari va uning sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasining bozor sharoitidagi ahamiyati va uni O'zbekistonda rivojlantirish masalalari.
5. Qishloq xo'jaligi sug'urtasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari va uning qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi o'rni.
6. O'zbekistonda kasbiy javobgarlikni sug'urtalash muammolari va uni takomillashtirish (auditorlar, notariuslar baholovchilar va bojxona brokerlari misolida).
7. O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklarini sug'urtalash masalalari.
8. Tadbirkorlik tavakkalchiliklarini sug'urtalashning chet mamlakatlar tajribasi va ularni O'zbekistonda joriy etish masalalari.
9. O'zbekistonda tibbiy sug'urtaning majburiy turini joriy etish hamda ixtiyoriy turlarini rivojlantirish masalalari.
10. Sug'urta zahiralar va ular tarkibini takomillashtirish, ularning shakllanish va foydalanish yo'nalishlari.
11. O'zbekiston sug'urta bozorining xalqaro sug'urta bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlash yo'llari.
12. Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari.

KEYS TOPSHIRIQ

№1


1. Avtomobil birinchi tavakkalchilik tizimi asosida 75 000 so'mga sug'urtalangan, uning haqiqiy bahosi 89 000 so'm, sug'urtalanuvchi 32 000 so'm miqdorida zarar ko'rgan.



Birinchi va ikkinchi tavakkal miqdorini belgilang.

№2

2. Uy jixozlari 90 000 so'm miqdorida sug'urtalangan. YOng'in natijasida uy anjomlariga 120 000 so'm miqdorida zarar etgan.



Birinchi va ikkinchi tavakkal ta'minoti qanday miqdorlarda hisoblanadi.



№3

1. Sug'urtalangan ob'ektning qiymati 8,400 sum, sug'urta summasi 3,360 so'm, shikastlanish natijasida ko'rilgan zarar 4,840 so'm.

**Sug'urta ta'minlash tizimining nisbiy
javobgarligi qoidalariga asosan sug'urta
qoplamasini hisoblang.**

№4

2. Ob'ekt 18 000 so'mga baholangan, uning 80% sug'urtalangan, zarar miqdori 6 200 so'm.

**Nisbiy javobgarlik tizimi asosida sug'urta
qoplamasini hisoblang.**

**TALABALARNING MAVZU BO‘YICHA BILIM VA
KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY
MATERIALLAR**

**Dunyoning turli mamlakatlari qurolli kuchlarida harbiy xizmatchilar
hayotini sug‘urta qilish**

(ming AQSH doll.)

Mamlakat	Sug‘urta turi shakli	Sug‘urta hodisasi	Sug‘urta to‘lovi miqdori
AQSH	Shaxsiy (imtiyozli)	O‘lim (halok bo‘lish)	10-250
Italiya	Davlat	Harbiy xizmatchining Fors ko‘rfazida halok bo‘lishi (1991 y.)	Uchuvchilar tarkibi - 450 Polkovnik - 300 Oddiy askar - 120
Shvetsiya	Davlat	100%lk nogironlik yoki o‘lim	100 dan
Rossiya	Majburiy davlat	Harbiy xizmatchining o‘limi (halok bo‘lishi)	5 - 18

AQSH Kongressi tomonidan qabul qilinadigan muayyan sug‘urta dasturlari doirasida amalga oshiriladi. 1919 yildan boshlab hozirgi kungacha AQSHda 8 ta sug‘urta dasturi mavjud bo‘lgan:

- United States Government Life Insurance (USGLI) - 1919-1951 yy.;
- National Service Life Insurance (NSLI) - 1940-1951 yy.;
- Veterans’ Special Life Insurance (VSLI) - 1951-1956 yy.;
- Veterans’ Reopened Insurance (VRS) - 1965-1966 yy.;
- Service-Disabled Veterans Insurance (SDVI) - 1951 yildan boshlab hozirgi paytgacha;
- Servicemembers’ Group Life Insurance (SGLI) - 1965 yildan boshlab hozirgi paytgacha;
- Veterans’ Mortgage Life Insurance (VMLI) - 1971 yildan boshlab hozirgi paytgacha;
- Veterans’ Group Life Insurance (VGLI) - 1974 yildan boshlab hozirgi paytgacha.

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

1) O'zbekistonda davlat sug'urta nazorati organi qachon tashkil etilgan?

- A) 1993 yilda.
- B) 1997 yilda.
- C) 1998 yilda.
- D) 2002 yilda.

2) Korxonalarning sug'urta mukofotini to'lash bilan bog'liq xarajatlari soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadimi?

- A) ha, faqat korxonalar yillik tovar aylanmasining 2 foizi miqdorida.
- B) yo'q.
- C) ha, to'liq chiqarib tashlanadi.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

3) Sug'urta polisi - bu:

- A) sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasi tuzishdan oldin beriladigan hujjat.
- B) sug'urtalanuvchiga sug'urta hodisasi ro'y berishidan qat'iy nazar sug'urta summasini olish huquqini beruvchi hujjat.
- C) sug'urta shartnomasiga muvofiq, sug'urtalovchining majburiyati boshlanganligini tasdiqlovchi xujjat.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

4) Ernshiza tushunchasiga berilgan to'g'ri javobni toping?

- A) sug'urta ob'ektini baholash uslubi.
- B) sug'urta shartnomasiga asosan sug'urtalovchining ma'lum mablag' hajmida yoki foiz hisobida sug'urta summasini to'lashdan ozod etilishi.
- C) sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida ko'rgan zarar miqdorini aniqlashga bo'lgan huquqi.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

5) Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug'urtalashda sug'urta mukofoti byudjet mablag'lari hisobidan to'lanishi mumkinmi?

- A) To'lanishi mumkin.
- B) qisman to'lanishi mumkin.

C) to'lanishi qatiyan ma'n etiladi.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

6) Baxtsiz hodisalardan ehtiyoti shart sug'urta qilish sug'urta faoliyati klassifikatoriga muvofiq, umumiy sug'urtaning qaysi klassiga taalluqli?

A) VIII klass.

B) I klass.

C) V klass.

D) II klass.

7) Mol-mulklarni ixtiyoriy sug'urtasi bo'yicha sug'urta hodisasi ro'y berganda, bu haqda sug'urtalanuvchi:

A) sug'urta tashkilotiga istagan vaqtda xabar berishi mumkin.

B) sug'urta tashkilotiga shartnomada ko'rsatilgan muddatda xabar berishi shart.

C) sug'urta tashkilotiga 2 kun muddatda xabar berishi shart.

D) sug'urtalovchiga 1 kun muddatda xabar berishi shart.

8) Sug'urtalanuvchi quyidagi qanday huquqqa ega?

A) sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilishga.

B) sug'urta mukofoti miqdorini mustaqil belgilashga.

C) sug'urta ob'ektini sug'urtalovchining ishtirokisiz aniqlashga.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

9) Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash shartlari buzilsa, sug'urtalanuvchiga nisbatan qanday javobgarlik bo'lishi mumkin?

A) sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga nisbatan jarima qo'llanishi mumkin.

B) hech qanday jazo qo'llanilmaydi.

C) sug'urta mukofotini to'lash muddati kechikkan har bir kun uchun penya qo'llanishi mumkin.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

10) Sug'urta faoliyati deganda nimani tushunasiz?

A) sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatni.

B) sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati.

C) sug'urta xizmatlarini ko'rsatish san'ati.

D) sug'urta shartnomalarini tuzish tushuniladi.

11) Sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdori qaysi organ tomonidan belgilanadi?

A) Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan.

B) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan.

C) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

D) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan.

12) Majburiy sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkalari belgilanadi:

A) sug'urta tashkiloti tomonidan.

B) hukumat tomonidan.

C) sug'urta nazorati organi tomonidan.

D) to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

13) Netto-tarifga yuklama –bu:

A) sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan.

B) sug'urta zahiralarini shakllantirishga mo'ljallangan.

C) sug'urtalovchi ish yuritish xarajatlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan.

D) ogohlantirish tadbirlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan.

14) Syurveyer tushunchasiga mos keladigan javobni aniqlang?

A) sug'urta faoliyatini tahlil etuvchi shaxs.

B) sug'urta agenti.

C) sug'urtalovchining buxgalteriya hisobotini tuzuvchi shaxs.

D) sug'urtalangan mulkni ko'rikdan o'tkazuvchi mutaxassis.

15) Sug'urta tashkilotlari sug'urta faoliyatidan boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlimi?

A) sug'urta tashkilotlari sug'urta faoliyatidan boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emas.

B) sug'urta tashkilotlari sug'urta faoliyatidan boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli.

C) sug'urta tashkilotlari sug'urta faoliyatidan boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emas, ammo qonun hujjatlarida belgilanganlardan tashqari.

D) to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

16) Aktsiyadorlik jamiyati shaklida barpo etilgan sug'urtalovchilarning eng oliy boshqaruv organi:

A) aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi.

B) aktsiyadorlik jamiyatining kuzatuv kengashi hisoblanadi.

C) sug'urta tashkilotining ijroiya organi hisoblanadi.

D) to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

17) Javobgarlikni sug'urtalashda sug'urta ob'ekti bo'lib nima hisoblanadi?

A) sug'urtalanuvchining mol-mulki.

B) sug'urtalanuvchining shaxsiy manfaati.

C) sug'urtalanuvchining uchinchi shaxslarga keltirgan zararini qoplash bilan bog'liq mulkiy manfaatlari.

D) to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

18) Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kirib kelayotgan xorijiy avtotransport egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash qanday tarzda amalga oshiriladi?

A) umuman amalga oshirilmaydi.

B) qisman amalga oshiriladi.

C) majburiy tarzda amalga oshiriladi.

D) ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi.

19) Sug'urta faoliyati klassifikatori:

A) sug'urta faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

B) barcha sug'urta klasslarini o'z ichiga oladi.

C) sug'urta agentlari faoliyatini tartibga soladi.

D) sug'urta shartnomasini tuzish tartibini belgilaydi.

11-MAVZU: QISHLOQ XO'JALIGINI SUG'URTALASH

Quyidagi atamalarga izoh bering: Qishloq xo'jalik hayvonlarini sug'urta qilishning zarurligi va ahamiyati, sug'urta sub'ekti va ob'ekti, sug'urta faoliyati klassifikatori 8 va 9-klasslarining mazmun-mohiyati, benefitsiar, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga tegishli mol-mulklar va ularni sug'urta qilishning zarurligi, qishloq xo'jalik mahsuloti etishtiruvchi xo'jaliklarning ekinlardan kam hosil olish natijasida ko'radigan moliyaviy zarari miqdorini-sug'urta summasini aniqlash uslubi, sug'urta risklarini tahlil etish.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qishloq xo'jalik hayvonlarini sug'urta qilishning zarurligi va ahamiyati. Sug'urta sub'ekti va ob'ekti.
2. Sug'urta faoliyati klassifikatori 8 va 9-klasslarining mazmun-mohiyati.
3. Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni shartnoma orqali tartibga solish asoslari.
4. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga tegishli mol-mulklar va ularni sug'urta qilishning zarurligi.
5. Qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha hosilni kamayishi natijasida ko'riladigan moliyaviy zarar-sug'urta ob'ekti sifatida.
6. Kuzgi va bahorgi boshoqli don ekinlari, makkajuxori, paxta va boshqa texnik ekinlar. Sug'urta sub'ektlari.
7. Qishloq xo'jalik mahsuloti etishtiruvchi xo'jaliklarning ekinlardan kam hosil olish natijasida ko'radigan moliyaviy zarari miqdorini-sug'urta summasini aniqlash uslubi.
8. Sug'urta risklarini tahlil etish.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Qishloq xo'jalik sug'urtasining o'ziga xos xususiyatlari va uning O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni hamda holati.
2. Avtotransport sug'urtasining o'ziga xos xususiyatlari, uni istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari
3. Sug'urtalash jarayonida sug'urta da'volari va ular bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish masalalari.
4. Eksport-import operatsiyalarini sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
5. Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash vosita va omillari hamda moliyaviy barqarorlikni oshirish yo'llarini takomillashtirish.
6. Sanoat korxonalarining risklari va ularni sug'urtalash mexanizmi takomillashtirish yo'nalishlari
7. Kasbiy javobgarliklarin sug'urtalash mexanizmining hozirgi holati va istiqbolda takomillashtirish yo'nalishlari.
8. Mahalliy sug'urta bozorlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari.
9. Umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta zahiralarini shakllanish mexanizmi va muammolari.
10. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy resurslari va ulardan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish.
11. Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish.
12. Sug'urta operatsiyalari buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
13. Investitsiya risklarini sug'urtalash mexanizmini uni takomillashtirish yo'llari
14. O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta va uni rivojlantirish masalalari.
15. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari.

**TALABALARNING MAVZU BO‘YICHA BILIM VA KO‘NIKMALARINI
MUSTAHKAMLASH UCHUN AMALIY MATERIALLAR**

**EI DAVLATLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI SUG‘URTA QILISH
AMALIYOTINING QIYOSIY JADVALI**

Asosiy ko‘rsatkichlar	Avstriya	Germaniya	Fransiya	Ispaniya
Asosiy qonunchiliklar	-	Davlat yordam dasturi (Er-Federal xukumat-EI)	“Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash to‘g‘risida”gi milliy qonun	“Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonun
Davlat byudjetidan subsidiyalar	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud
Taqsimlovchi	“Die Osterreichische Hagalversicherung” jamg‘armasi	Xususiy sug‘urta kompaniyalari	Qishloq xo‘jaligida tavakkalchilikni himoya qilish milliy kafillik jamg‘armasi	Xukumat rejasi orqali Ispaniya Qishloq xo‘jaligi vazirligi
Umumiy sug‘urta mukofotidagi subsidiya qismi	50 foiz	0 foiz	50 foiz	25-50 foiz
Sug‘urtani qoplash darajasi	60 foiz hosil qiymatidan	80-90 foiz zarar miqdoridan	70-75 foiz zarar miqdoridan	80 foiz zarar miqdoridan
Xisoblangan hosildorlik davri	4 yil	5 yil	5 yil	5 yil
Qoplanadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari	1.Dala o‘simlikdari 2. Uzumzorlar 3. Sabzavotlar 4. Bog‘lar 5. YAylov o‘simliklari 6. Yirik shoxli qoramol	1. Urug‘liklar 2. Proso 3.Dukkaklilar 4.Kartoshka	1.Urug‘liklar 2. Uzumzorlar 3. Sabzavot va mevalar 4.Texnikalar 5.Hayvonlar	1. Mevalar (50 foiz davlat himoyasida) 2.Uzumlar (50 foiz) 3. Tabak (40 foiz) 4. Kukuruz (40 foiz) 5.Kungaboqar (40 foiz) 6. Qolganlar (25 foiz) Hammasi bo‘lib 45 turi mavjud

EVRAZES DAVLATLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI SUG‘URTA QILISH AMALIYOTINING QIYOSIY JADVALI

Asosiy ko‘rsatkichlar	Rossiya	Belorusiya	Qozog‘iston	O‘zbekiston
Asosiy qonunchiliklar	“Agrosanoat ishlab chiqarishda davlat tomonidan tartibga solish to‘g‘risida”gi Federal qonun	Belorusiya Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Nizom	Qozog‘iston Respublikasining 10.03.2004 y.dagi “O‘simlikshunoslikda majburiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonun	31.01.2002 yildagi PF-1713 sonli Prezident farmoyishi, 1997 yildagi 125-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori
Davlat byudjetidan subsidiyalar (sug‘urta mukofoti/qoplash)	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	—
Taqsimlovchi	Qishloq xo‘jaligi vazirligidagi agrosanoat ishlab chiqarish sohasida sug‘urtalashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha federal agentlik	Moliya Vazirligi nomidan Belgostrax	“Qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab quvvatlash jamg‘armasi ” AJ	Davlat byudjeti tomonidan kompaniyalarning sug‘urta fondini to‘ldirish nazarda tutilgan
Umumiy sug‘urta mukofotidagi subsidiya qismi	50 foiz	95 foiz	Mavjud emas	—
Sug‘urtani qoplash darajasi	70 foiz sug‘urta qiymatidan	100 foiz rejadagi hosil qiymatidan	YOqilg‘i, urug‘ va ishchilarning ish haqidan kam bo‘lmagan qiymatda	50 va 80 foiz sug‘urta qiymatidan
Xisoblangan hosildorlik davri	5 yil	4 yil	4 yil	3 yil
Qoplanadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari	Kuzgi donli La’lmi donli va dukkakli urug‘liklar . YOg‘ o‘simliklar (kungaboqar, len-kudryash, raps, ruyjik, konoplya, kenaf)	1. Kuzgi bug‘doy 2. Kuzgi tritikale 3. La’lmi bug‘doy 4. Arpa 5. Zotli yirik shoxli qoramol	1. Urug‘liklar 2. Paxta 3. YOg‘ o‘simliklar (kungaboqar, len-kudryash, raps, ruyjik, konoplya, kenaf) 4. Guruch	1. Paxta 2. Urug‘liklar 3. CHigitni qayta ekish 4. Boshqa turdagi hosillar

CHET DAVLATLARDA QISHLOQ XO‘JALIGINI SUG‘URTA QILISH AMALIYOTINING QIYOSIY JADVALI

Asosiy ko‘rsatkichlar	Hindiston	Braziliya	Xitoy	Turkiya
Asosiy qonunchiliklar	“Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash to‘g‘risida”gi milliy qonun	“Qishloqxo‘jalik faoliyatini kafolatlash dasturi to‘g‘risida”gi Federal qonun 1973y. (Proagro)	6 ta provinsiyadagi loyihalar	“Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash to‘g‘risida”gi qonun 2005 y.
Davlat byudjetidan subsidiyalar (sug‘urta mukofoti/qoplash)	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti uchun mavjud	Sug‘urta mukofoti va qoplash uchun mavjud
Taqsimlovchi	“General insurance Corporation” (GIC) Qishloq xo‘jaligi vazirligi nomidan qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash Milliy sxema bo‘yicha	Crop Insurance Stabilization Fund Hosilnisug‘urtalash stabilizatsiyafondi.	Provinsiyalardagi 5 ta sug‘urta kompaniyalari: Ichki Mongoliya, Szilin, Szyansu, Xunan, Sinszyan i Sichuan	“TARSIM” AJ
Umumiy sug‘urta mukofotidagi subsidiya qismi	50 foiz	50 foiz	50 foiz	Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda (50 foiz 2006-2007 yillarda)
Sug‘urtani qoplash darajasi	70-85 foiz sug‘urta qiymatidan	80 foiz kredit qiymatidan	70 foiz sug‘urta qiymatidan	80 foiz zarar miqdoridan
Xisoblangan hosildorlik davri	5 yil	5 yil	5 yil	—
Qoplanadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari	1. Urug‘liklar 2. Proso 3. Dukkaklilar 4. SHakar trosnigi 5. Kartoshka 6. Paxta 7. Imbir 8. Kurkama	1. Paxta 2. Urug‘liklar va dukkakli urug‘lar 3.Kofe 4.Kukuruz 5. Soya 6. Boshqa tasdiqlangan o‘simliklar	1.Urug‘lar 2. Kukuruz lar 3. Paxta 4. Soya 5.Guruch	1. Barcha qishloq xo‘jaligi hosillari 2.Teplitsa hosillari 3. Ro‘yxatdan o‘tgan uy hayvonlari 4. Uy qushlari 5.Baliqchilik va akvakultura

**"O'zagrosug'urta" Davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasida fermer
xo'jalik korxonalari bilan 2011-2015 yillarda kuchga kiritilgan sug'urta
shartnomalari soni dinamikasi (dona)**

Sug'urta turlari	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	O'sish sur'ati	
						2015 yilda 2011 yilga nisbatan (+,-)	2015 yilda 2014 yilga nisbatan (+,-)
Paxta hosili	11903	11756	8992	10182	12168	265	1986
G'alla hosili	9469	7824	13414	7053	5778	-3691	-1275
Boshqa ekinlar	113	126	85	51	73	-40	22

**"O'zagrosug'urta" Davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasida qishloq
ho'jalik sug'urta turlari bo'yicha 2011-2015 yillarda tushgan sug'urta
mukofotlari hajmi tahlili (mln. so'm)**

Sug'urta turlari	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	O'sish sur'ati	
						2015 yilda 2011 yilga nisbatan (+,-)	2015 yilda 2014 yilga nisbatan (+,-)
Paxta hosili	2290,8	2692,4	2746,5	4195,1	5549,4	3258,6	1354,3
G'alla hosili	1320,4	1342,1	2965,5	1916,4	1968,1	647,7	51,7
Boshqa ekinlar	21,5	53,5	19,4	17,3	20,2	-1,3	2,9

Bilimlarni jonlantirish uchun savollar (blits-so'rov)

1. Sug'urta munosabatlarini tartibga solishda huquqning ahamiyati nima?
2. Sug'urta huquqi va uning mazmunini so'zlab bering?
3. Sug'urta qonunchiligi va uning tarkibiga kiruvchi asosiy qonunchilik hujjatlarini aytib bering?
4. Sug'urta qonunchiligida Fuqarolik kodeksining tutgan o'rni va ahamiyatini aytib bering?
5. Fuqarolik kodeksi 52-bobidagi ayrim moddalarning talqini va amaliyotda qo'llanilishi haqida gapirib bering?

Ma'ruzaning mazmuni bo'yicha ko'rgazmali slaydlari

PARADOKSLAR USULI


O'qituvchi savollar tizimini ketma-ket berib tinglovchilarning fikrlarini o'rganadi

Diagnostika natijalariga ko'ra ma'ruzani olib borish jarayonida tinglovchilarning qarama-qarshilikka (tushunchalardagi, bilimlardagi) kelishlarini ta'minlaydi. Bunday vaziyat asosan tinglovchining tushunchalaridagi adashishlar va xatoliklar bilan bog'liq. Demak, bu muammoviy vaziyat tinglovchilarning oldingi fikr, tushunchalari va xulosalariga qarama-qarshi, paradoksal bo'lgan vaziyatdir.

Tinglovchilar muammoviy vaziyatni yuzaga keltirgan amallardagi xatolikni izlaydilar (lekin amallarda xatolik yo'q)

Ijodiy fikrlay oladigan tinglovchi amallarning bajarilishi jarayoni emas, balki mazkur amalning o'zi xato ekanligini aniqlay oladi (bunday tinglovchi topilmasa o'qituvchining o'zi buni oshkor qilishiga to'g'ri keladi).

Amalli (protseduraviy) xatolik – noto'g'ri amalni to'g'ri bajarilishdir.



12-MAVZU: QAYTA SUG'URTA QILISH ASOSLARI

Quyidagi atamalarga izoh bering: qayta sug'urtalashni tashkil etishning zarurligi va mohiyati, sug'urta portfelini muvozonatlashtirishda va risklarni taqsimlashda qayta sug'urtalashning roli, qayta sug'urtalash shartnomasining tuzilishi va asosiy shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari, qayta sug'urtalash sohasida qo'llaniladigan asosiy ibora va atamalar, kvotali qayta sug'urtalash, nisbiy va nonisbiy qayta sug'urtalash, fakultativ va obligatorli qayta sug'urtalash.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qayta sug'urtalashni tashkil etishning zarurligi va mohiyati.
2. Sug'urta portfelini muvozonatlashtirishda va risklarni taqsimlashda qayta sug'urtalashning roli.
3. Qayta sug'urtalash shartnomasining tuzilishi va asosiy shartlari. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.
4. Qayta sug'urtalash sohasida qo'llaniladigan asosiy ibora va atamalar.
5. Qayta sug'urtalash shakllari: kvotali qayta sug'urtalash, nisbiy va nonisbiy qayta sug'urtalash.
6. Fakultativ va obligatorli qayta sug'urtalash.
7. Chet mamlakatlarda qayta sug'urtalashning tashkil etilishi.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalashni tashkil etish va rivojlantirish masalalari.
2. O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklari, uni sug'urtalash mexanizmi va rivojlantirish masalalari.
3. Sug'urta kompaniyasi daromadlari va uni oshirish yo'llari.
4. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarni sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish masalalari.

5. Sug'urta kompaniyasi to'lov qobiliyatini mustahkamlash yo'llari.
6. Hosil sug'urtasi: xalqaro amaliyot, hozirgi vaziyat va muammolar.
7. Sug'urta risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari ("O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi misolida).
8. Hayot sug'urtasi bozorida zamonaviy sug'urta mahsulotlari (Evropa Ittifoqi davlatlari misolida).
9. Auditorlarning kasbiy javobgarligini sug'urta kilish va uni takomillashtirish.
10. Tashuvchilarning fuqarolik javobgarligini sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
11. Sug'urta da'volari va ularni tartibga solish amaliyotini takomillashtirish.
12. O'zbekistonda hududiy sug'urta xizmatlari bozorlarini rivojlantirish yo'llari
13. Siyosiy risklar va investitsiyalarni sug'urtalashda uning ahamiyati.
14. Avtotransport vositalari egalarining uchinchi shaxslar oldidagi fukarolik javobgarligini sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish.
15. Sug'urta kompaniyalari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va uni rivojlantirish masalalari.
16. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya balansi va hisobt shakllarining o'ziga xos xususiyatlari.
17. Mustaqillik yillari O'zbekistonda sug'urta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning istiqbolada rivojlanishi.
18. Mol-mulk sug'urtasida tarif va sug'urta xizmatlari tannarxini hisbolash uslubiyoti va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
19. Sug'urta shartnomalarini tuzish va ijro etish tartibotining zamonaviy muammolari.
20. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash mexanizmini takomillashtirish masalalari.

MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

1. *Birgalikda sug'urta* - deb sug'urta javobgarligining shunday tizimiga aytiladiki, unda ob'yekt bitta sug'urta shartnomasi orqali bir nechta sug'urta kompaniyalari(birgalikda sug'urta qiluvchilar) bilan birgalikda sug'urtalanadi.

Agar sug'urta shartnomasida buni inkor etuvchi bandlar keltirilmagan bo'lsa, sug'urtalovchilar sug'urtalanovchi oldida teng javobgardirlar.

Shuningdek qonunda sug'urtalovchilar sug'urtada javobgarlikni qabo'l qilib olgan qismigaga qarab sug'urtalanovchi oldida javobgar bo'lishlari mumkinligi nazarda tutilgan.

Bu sug'urta turida zararni qoplashda birinchi risk tizimi, proporsional javobgarlik tizimi, shuningdek franshiza qo'llanilishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki birgalikda sug'urta shartnomalari kamdan-kam holatda uchraydi. Birinchidan, ularning xizmat ko'rsatishi ko'p mehnat talab qiladi chunki ularda sug'urtalovchining javobgarliklari ko'p bo'ladi. Ikkinchidan, ular sug'urtalovchining mavqeyini oshirmaydi, chunki bunday holatda shunday tasavvur hosil bo'ladiki sug'urtalovchi butun riskni to'laligicha o'z javobgarligiga olishni xohlamaydi yoki ololmaydi, bu esa o'z navbatida kompaniya imedjiga ta'sir qiladi.

Shu sababli katta risklar odatda birgalikda sug'urta sistemasi bo'yicha emas balki qayta sug'urtalash tizimi bo'yicha sug'urtalanadi, bu sug'urta tizimini keying bo'limlarda ko'rib o'timiz.

Masala 1. Bahosi 600000 so'm bo'lgan ob'yekt birgalikda sug'urta tizimi bo'yicha 3 ta sug'urtalovchi C_1 , C_2 , C_3 tomonidan sug'urtalandi, ularning ulushlari mos ravishda 250000 so'm, 150000 so'm va 100000 so'mga teng. Sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zarar 200000 so'm. Agar proporsional javobgarlik tizimi qo'llanilsa har bir sug'urtalovchi to'laydigan sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Dastlab birgalikda sug'urtalovchilarning umumiy javobgarlik miqdorini S_{ni} aniqlaylik:

$$S=250000+150000+100000=500000(\text{so'm})$$

Endi C_1 sug'urtalovchining sug'urta qoplamasi Sb_1 miqdorini aniqlaymiz:

$$Sb_1=\frac{250000}{500000} * 200000 = 100000(\text{so'm})$$

Xuddi shu tarzda C_2 va C_3 sug'urtalovchilarning sug'urta qoplamalari miqdorini mos ravishda aniqlaymiz:

$$Sb_2=\frac{150000}{500000} * 200000 = 60000(\text{so'm})$$

$$Sb_3=\frac{100000}{500000} * 200000 = 40000(\text{so'm})$$

Javob: 100000 so'm, 60000 so'm, 40000 so'm

Masala 2. Sug'urtalovchi umumiy bahosi 450000 y.e. bo'lgan obyektни 3 ta C_1 , C_2 , C_3 sug'urtalovchiga mos ravishda 100000 y.e. , 200000 y.e. , va 300000 y.e. ga sug'urtaladi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ob'yekt butunlay yo'q boldi. Har bir sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasini aniqlang.

Echish. Dastlab sug'urtalovchilarning umumiy javobgarlik miqdori S_{ni} aniqlaymiz:

$$S = 100000 + 200000 + 300000 = 600000(\text{y.e.})$$

Sug'urtalovchilarning javobgarlik umumiy miqdori obyektning real bahosidan ortiqiligini esda tutamiz va C_1 sug'urtalovchining Sb_1 sug'urta qoplamasi miqdorini aniqlaymiz:

$$Sb_1=\frac{100000}{600000} * 450000 = 75000(\text{y.e.})$$

Xuddi shu tarzda C_2 va C_3 sug'urtalovchilarning sug'urta qoplamalari miqdorini mos ravishda aniqlaymiz:

$$Sb_2=\frac{200000}{600000} * 450000 = 150000(\text{y.e.})$$

$$Sb_3=\frac{300000}{600000} * 450000 = 225000(\text{y.e.})$$

Kutilganidek barcha sug'urta qoplamalarining umumiy summasi zarar miqdoriga teng.

2. *Qayta sug'urtalash* deb shunday sug'urta turiga aytiladiki unda bitta sug'urtalovchi(qayta sug'urtalovchi) muayyan shartnoma shartlari asosida boshqa bir sug'urtalovchining sug'urtalanovchisi oldidagi majburiyatlarni butunlay yoki qisman bajaradi.

Qayta sug'urtalovchi terminining sinonimi "***Sedent***" bo'lsa, qayta sug'urtalanovchi terminining sinonimi "***Sessionariy***" hisoblanadi.

Sug'urtalovchi – qayta sug'urtalanovchi qayta sug'urtalash shartnomasiga ko'ra sug'urtalovchi – qayta sug'urtalovchiga nisbatan sug'urtalanovchining barcha huquq va majburiyatlariga ega va qayta sug'urtalovchiga qayta sug'urtalov uchun su'gurta mukofotini to'lab beradi, u dastlabki sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi – qayta sug'urtalovchining sug'urtalanovchidan olgan sug'urta mukofotining bir qismi hisoblanadi.

Masalan, qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtaga alohida risklarni taklif qiladi, qayta sug'urtalovchi esa har bir muayyan riskni tahlil qilib, uni qabo'l qilishga, rad etishga yoki taklif qilingan shartlarni o'zgartirishga qarorlar qabo'l qiladi, biroq *bu davr mobaynida risk qayta sug'urtalangan hisoblanadi*.

Obligator-fakultativ shartnomasi qayta sug'urtalovchi zimmasiga aniq bir sug'urtalovchiga muayyan risklarni yoki risklarning ma'lum bir qismini qayta sug'urtalashga taklif qilishni yuklaydi, qayta sug'urtalovchiga esa ularni qabo'l qilish yoki rad etish huquqini beradi.

Qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtaga yuqori sifatli riskni o'tkazilganlik uchun odatda qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanovchiga to'lab beradigan komission mukofot(*tantyema*) nazarda tutiladi. Odatda *tantyema* har yili qayta sug'urtalovchining sof daromadidan aniq bir foizda to'lab beriladi.

Keltirib o'tilgan qayta sug'urtalash shartnomalarida qayta sug'urtalovchining qayta sug'urtalanovchi oldidagi majburiyatining ikki tizimidan birini nazarda tutiladi: *proporsional* yoki *noproporsional*.

Kvota shartnomalari proporsional qayta sug'urtalash shartnomalarining eng sodda shakllaridan biri hisoblanadi.

Kvota shartnomasi shartlari bo'yicha sug'urtalovchi – qayta sug'urtalanovchi qayta sug'urtalovchiga sug'urtalashning aniq turi yoki bog'liq sug'urtalar guruhi bo'yicha barcha qabo'l qilingan risklarning kelishilgan qismini o'tkazadi. Shu qismdan kelib chiqqan holda qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalash mukofotini oladi. Qayta sug'urtalanovchi kvota shartnomasi bo'yicha sug'urta turiga qarab, 20-40% miqdorda qayta sug'urtalash komission to'lovini oladi.

Masala 2.1. Kvota shartnomasi bo'yicha qayta sug'urtalovchi o'z javobgarligiga har bir sug'urta shartnomasiga ko'ra tashkilot mol-mulkinining sug'urta summasining 30%ni qabo'l qiladi, 3 mln y.e. oshmaydigan miqdorda. Sedent D_1 , D_2 , D_3 mulklarga sug'urta shartnomasi tuzdi mos ravishda 8, 10, va 12 mln y.e. ga. Sug'urta qoplamasida sedent va sessionariyning ishtirokini aniqlang.

Echish. Dastlab shartnoma D_1 , D_2 , D_3 bo'yicha sessionariyning risklar qoplamasi R_1 , R_2 , R_3 ni aniqlaymiz.

Chunki

$$8 \cdot 0.3 = 2.4 < 3 (\text{mln y.e})$$

$$10 \cdot 0.3 = 3 (\text{mln y.e})$$

$$12 \cdot 0.3 = 3.6 > 3 (\text{mln y.e})$$

3 mln y.e qayta sug'urtalovchining chegarasi hisoblanadi, buqayta sug'urtalovchi uchinchi riskni qayta sug'urtalashda o'z javobgarligiga faqat 3 mln y.e oladi, sug'urta summasining bor yog'i 25%ini.

$$R_1 = 2.4 (\text{mln y.e})$$

$$R_2 = 3 (\text{mln y.e})$$

$$R_3 = 3 (\text{mln y.e})$$

Endi biz sedent tomonidan shartnoma D_1 , D_2 , D_3 mos ravishda U_1 , U_2 , U_3 risk qoplamasini aniqlay olamiz.

$$U_1 = 8 - R_1 = 8 - 2.4 = 5.6 (\text{mln y.e})$$

$$U_2 = 10 - R_2 = 10 - 3 = 7 (\text{mln y.e})$$

$$U_3 = 12 - R_3 = 12 - 3 = 9 (\text{mln y.e})$$

Javob: Sedent 5.6(mln y.e), 7 (mln y.e), 9(mln y.e), sessionariy esa 2.4(mln y.e), 3(mln y.e), 3(mln y.e) qoplaydi.

Ekssedent summasini qayta sug'urtalash shartnomasi(ekssedent shartnoma)

Ekssedent shartnoma – proporsional shartnomalarnin keng tarqalgan shakllaridan hisoblanadi.

Ekssedent qayta sug'urtalashda su'gurta summasi oldindan kelishib olingan miqdordan oshib ketadigan sug'urta shartnomalarini sedent qayta sug'urtalashga yuboradi, qayta sug'urtalovchi esa qabo'l qiladi, bu sedentning shaxsiy ushlanmasidir(manfaati).

O'tkazuvchi kompaniya shaxsiy ushlanmasi chegarasi bitta sug'urta turiga doir barcha sug'urta risklariga mos aniq bir summada belgilanadi: ssuda, turar joy va boshqalar.

Qayta sug'urtalovchi ekssedent deb nomlanuvchi sug'urta summasining qolgan qismi bo'yicha majburiyatlarni qabo'l qiladi, biroq belgilangan limit doirasida.

Qayta sug'urta summasining maksimal miqdori *chiziq* deb nomlanuvchi sedent manfaatining karrali kattaligi miqdorida belgilanadi.

Masalan, agar sug'urtaga sug'urta summasi 220000 dollar bo'lgan risk qabo'l qilinsa, o'tkazuvchi kompaniyaning shaxsiy ushlanmasi 20000 dollar belgilangan bo'lsa, 200000 dollar ekssedentning summasi tashkil qiladi va u qayta sug'urtalovchiga o'tkaziladi. Bu holatda ekssedent 10 ta liniyaga bo'lingan va xususan, 2-liniyalarda qayta sug'urtalovchining ishtiroki uning javobgarligini 40000 dollar qiladi, ya'ni 200000 dollarning 1/5 qismi. Qayta sug'urtalovchining 1/2 liniyalarda ishtiroki esa uning javobgarligini 10000 dollar qiladi, ya'ni 200000 dollarning 1/20 qismi.

Ekssedent qayta sug'urtalash shakli qayta sug'urtalovchiga bir turkumli ulkan miqdordagi risklar kattaligidan iborat sug'urta portfelini shakllantirish uchun keng miqyosda imkoniyatlar yaratadi.

O'tkazuvchi kompaniya shaxsiy ushlanmasi summasi va shartnomada qayta sug'urtalovchining ulushiga proporsional ravishda daromad va zararlar to'lovi bo'linishi amalga oshiriladi.

Ekssedent shartnomalari holatlarida sedent o'zining shaxsiy ishtirokida barcha kichik sug'urta risklari yig'indisini ushlab qolish imkoniyatiga ega.

Masala 2.2. Sedentning manfaati 1 mln y.e. miqdorida o'rnatilgan. Ekssedent 4ta liniyadan iborat. Qayta sug'urtalovchining javobgarlik limiti – 4 mln y.e. Sug'urta shartnomalari D_1 , D_2 , D_3 va mos ravishda 4 mln y.e., 5 mln y.e. 6 y.e bo'lgan qayta sug'urtalovchilarning javobgarlik miqdorini aniqlang.

Echish. Sedentning shaxsiy ushlanmasi miqdori 1 mln ga tengligidan, ekssedent shaxsiy ushlanma 4 karrali summadan iborat bo'lsa, shunda qayta sug'urtalovchi quyidagi majburiyatlarni keltiradi:

Shartnoma D_1 bo'yicha sessionariy javobgarligi 3 mln y.e.

Shartnoma D_2 bo'yicha sessionariy javobgarligi 4 mln y.e.

Shartnoma D_3 bo'yicha sessionariy javobgarligi 4 mln y.e.

Javob: 3 mln y.e., 4 mln y.e, 4 mln y.e.

Mulohaza. Agar ekssedent qayta sug'urtalovchi javobgarligi limitini oshirib yuborsa, boshqa qayta sug'urtalovchilar bilan qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzish zarur.(ikkinchi ekssedent shartnomalari, uchinchi ekssedent shartnomalri va boshqalar)

Masala 2. 3. Sug'urtalovchi manfaati 1 mln dollarga teng. Sessionariyning javpbgarlik limiti 3 ta liniya. Retrosessionariyning javobgarlik limiti – 5 ta liniya(Sessionariyning yuqori qoplamasi). Sug'urta summasi 8 mln dollarga teng bo'lgan sug'urta shartnomasida tomonlar javobgarligining taqsimlanishini toping.

Echish. Tomonlar javobgarligi quyidagicha taqsimlanadi:

Sedent ulushiga 1 mln dollar (12,5 %)

Sessionariy ulushiga 3 mln dollar (37,5 %)

Retrosessionariy ulushiga 4 mln dollar (50 %)

Javob: 12,5% , 37,5 %, 50% .

Mulohaza. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan holatda sug'urta mukofoti va sug'urta to'lovi tomonlar o'rtasida xuddi shu proporsiyada bo'linadi.

Shuningdek ekssedent shartnomalar turiga *ochiq qoplama shartnomasi(ochiq gilam)* ham kiradi.

Masala 2.4. Ekssedent zararini qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha sedent manfaati e mln dollar miqdorida mo'ljallangan, sessionariyning qayta sug'urta qoplamasi limiti esa 2 mln dollar. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sedent sug'urtalanovchiga 4 mln dollar miqdorida sug'urta qoplamasini to'lab berdi. Sessionariyning sedentga to'lab beradigan zarar qoplamasi miqdorini aniqlang.

Echish. Sedentning o'zi 3 mln dollar miqdorida zararni to'lab berishiga tog'ri keladi, sessionariy esa sedent zararining 1 mln dollarini qoplab beradi (1 mln = 2 mln – (4 mln – 3 mln)).

Masala 2.5. Ekssedent zararliligini qayta sug'urtalash shartnomasi shartlari bo'yicha qayta sug'urtalovchi sedentga sug'urta to'lovini o'tkazib berishga majbur, agar zararni qoplashda sug'urtalovchining to'lovlari bir yilda 100 % oshib ketsa. Qayta sug'urtalovchining javobgarlilik limiti – 108 %. Bir yilda qayta sug'urtalovchi 40 mln dollarga teng miqdorda sug'urta mukofotini yig'ib oldi, 44 mln dollarga teng miqdorda sug'urta qoplamasi to'ladi. Qayta sug'urtalovchi sedentga qancha summani to'lab beradi?

$$\text{To'lovlar darajasi} = \frac{44 \text{ mln dollar}}{40 \text{ mln dollar}} * 100\% = 110\%$$

Aniqlangan miqdor qayta sug'urtalovchining javobgarlilik limitidan ortiq. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi sedentga qoplama Sb to'lab berishi kerak va quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$Sb = 40 * (1,08 - 1) = 3,2 \text{ (mln dollar)}$$

Javob: 3,2 mln dollar

14–MAVZU. SUG‘URTA TASHKILOTINING IQTISODIYOTI VA UNI MOLIYAVIY BARQARORLIGI

Quyidagi atamalarga izoh bering: Sug‘urtalovchining moliyaviy holatini belgilovchi elementlar: aktiv, majburiyat, kapital, sug‘urta tashkiloti moliyaviy natijasini baholash bilan bog‘liq elementlar: daromad va xarajatlar, sug‘urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining tarkibi: balans, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot va boshqalar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sug‘urtalovchining moliyaviy holatini belgilovchi elementlar: aktiv, majburiyat, kapital.
2. Sug‘urta tashkiloti moliyaviy natijasini baholash bilan bog‘liq elementlar: daromad va xarajatlar.
3. Sug‘urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining tarkibi: balans, moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot va boshqalar.
4. Sug‘urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining shakli va uni tegishli foydalanuvchilarga taqdim etish muddatlari.
5. Sug‘urta tashkiloti buxgalteriya hisobotining e‘lon qilinishi va unga qo‘yilgan talablar.
6. Maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladigan buxgalteriya va statistik hisobotlar.
7. Yillik va choraklik buxgalteriya hisobotlarini tuzish.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. O‘zbekistonda tadbirkorlik risklari, uni sug‘urtalash mexanizmi va takomillashtirish yo‘nalishlari.
2. O‘zbekistonda tijorat banklari risklarini sug‘urtalash va uni takomillashtirish (“Ishonch” banklararo sug‘urta kompaniyasi misolida).

3. Rivojlangan mamlakatlar sug'urta tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari (Buyuk britaniya va Geramaniya misolida).
4. Sug'urtalovchilar moliyaviy barqarorligini davlat tomonidan tartibga solish va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
5. Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urta bozorini tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari.
6. Umumiy sug'urta tarmog'i klasslari va ular bo'yicha sug'urtalashni samarali tashkil etish yo'llari.
7. Sug'urta faoliyatini soliqqa tortish va uni takomillashtirish ("O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi misolida).
8. AQSH sug'urta tizimi va uni davlat tomonidan tartibga solinishi.
9. Majburiy sug'urta, uni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish masalalari.
10. O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalashni tashkil etish va rivojlantirish masalalari.
11. O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi risklari, uni sug'urtalash mexanizmi va rivojlantirish masalalari.
12. Sug'urta kompaniyasi daromadlari va uni oshirish yo'llari.
13. Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarni sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish masalalari.
14. Sug'urta kompaniyasi to'lov qobiliyatini mustahkamlash yo'llari.
15. Hosil sug'urtasi: xalqaro amaliyot, hozirgi vaziyat va muammolar.
16. Sug'urta risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari ("O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi misolida).
17. Hayot sug'urtasi bozorida zamonaviy sug'urta mahsulotlari (Evropa Ittifoqi davlatlari misolida).
18. Auditorlarning kasbiy javobgarligini sug'urta kilish va uni takomillashtirish.
19. Tashuvchilarning fuqarolik javobgarligini sug'urtalash mexanizmi va uni takomillashtirish yo'nalishlari.
20. Sug'urta da'volari va ularni tartibga solish amaliyotini takomillashtirish.


KEYS TOPSHIRIQ



KAPITAL SUG'URTA

страховая компания

“Kapital sug’urta” sug’urta kompaniyasi 2015 yil uchun investitsiyaga yo‘naltirishga mo‘ljallagan mablag‘lari 550 mln. so‘mdan iborat. Kompaniyaning ustav kapitali 1 mlrd. so‘m. Tashkil etilayotgan “Avto invest” MCHJning shakllantirish ko‘zda tutilgan jami ustav kapitali 1 mlrd. 200 mln. so‘m.	“Kapital sug’urta” sug’urta kompaniyasi o‘z investitsion mablag‘larining ko‘pi bilan qanchasini “Avto invest” MCHJning ustav kapitalini shakllantirishga yo‘naltirishi mumkinligini hisoblang?
---	---



Demak

Moliya vazirligi tomonidan 2008 yil 22 apreldagi №41 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan sug‘urtalovchi va qayta sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra sug‘urtalovchi o‘z ustav kapitalining 50 foizigacha bo‘lgan miqdordagi summani va mablag‘ yo‘naltirilayotgan korxona jami ustav kapitalining 30 foizigacha bo‘lgan miqdorda investitsiyaga yo‘naltirishi mumkin. Demak “Kapital sug’urta” sug’urta kompaniyasi “Avto invest” MCHJning ustav kapitalini shakllantirish uchun ko‘pi bilan 360 mln. so‘m mablag‘ni yo‘naltirishi mumkin.

Kredit shartnomasiga ko'ra jami kredit summasi 20 mln. so'm bo'lib, yillik 18 foiz bilan 8 oyga berilgan. Sug'urta tarifi sug'urta summasiga nisbatan 2,5 foiz. Sug'urtalovchining javobgarlik chegarasi – 90 %. Kredit oluvchi olgan kreditini o'z vaqtida to'lay olmadi

Sug'urta mukofoti, zarar va sug'urta qoplamasining hajmini aniqlang?



Demak

1) sug'urta mukofoti qiymati:

$$(20 \text{ mln.} + 20 \text{ mln.} \times 0.18 \times (8 : 12)) \times 0.9 \times 0.025 = 106\,920 \text{ so'm}$$

2) sug'urtalanuvchining zarari hajmi:

$$(20 \text{ mln.} + 20 \text{ mln.} \times 0.18 \times (8 : 12)) = 4\,752\,000 \text{ so'm}$$

3) sug'urta qoplamasi

$$4\,752\,000 \times 0.9 = 4\,276\,800 \text{ so'm}$$

MAVZUGA OID MASALALAR VA ULARNI ECHISH USLUBI

Masala 1. Baxtsiz hodisadan sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti – 30000 so'm, shartnomaning kunlar bo'yicha amal qilish davri – 365 kun, shartnoma kuchga kirgan kundan hisobot kunigacha bo'lgan kunlar soni – 85 kun. Ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan sug'urta mukofotini “pro rata temporis” usuli asosida toping?

$$J: Hni = Bpi \times ((Ti - Mi) : Ti)$$

Bunda

Hni – Aniq shartnoma bo'yicha ishlab topilmagan sug'urta mukofoti

Bpi - aniq shartnoma bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti

Ti - aniq sug'urta shartnomasining kunlar bo'yicha amal qilish davri

Mi – aniq sug'urta shartnomasining kuchga kirgan kundan hisobot kunigacha bo'lgan kunlar soni

Demak

$$Hni = 30000 \times ((365 - 85) : 365) = 22800 \text{ so'm}$$

Masala 2. Sug'urtalovchi odatda sug'urta zahiralarini hisoblashda bir vaqtning o'zida qayta sug'urtaga berilgan shartnomalar bo'yicha qayta sug'urtachining mazkur zahiradagi ulushini ham hisoblab boradi. Bu hisob har bir alohida sug'urta shartnomasi bo'yicha hisoblanadi. N sondagi sug'urta shartnomasi bo'yicha qayta sug'urta shartnomasining brutto mukofoti -500 000 so'm, qayta sug'urta shartnomasi bo'yicha olingan komission mukofot – 100 000 so'm, sug'urtalovchi tomonidan shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofot zahirasi – 300 000 so'm, sug'urta shartnomasi bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti – 800 000 so'm.

Qayta sug'urtachining ishlab topilmagan mukofot zahirasiidagi ulushini toping?

$$J: Dp = ((Bpp - Kvp) \times Sr) : Bsp$$

Bunda

Dn – (qayta sug'urtachining ishlab topilmagan mukofot zahirasiidagi ulushi)

Bpp – (sug'urta shartnomasi bo'yicha qayta sug'urta shartnomasining brutto mukofoti) = 500 000 so'm

Kvp – (sugʻurta shartnomasi boʻyicha olingan komission mukofot) = 100 000 soʻm

Sr – (sugʻurtalovchi tomonidan shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofot zahirasi) = 300 000 soʻm

Bsp – (sugʻurta shartnomasi boʻyicha bazaviy sugʻurta mukofoti) = 800 000 soʻm.

Demak

$$Dn = ((500\,000 - 100\,000) \times 300\,000) : 800\,000 = 150\,000 \text{ soʻm}$$

Masala 3. Sugʻurtalovchi odatda sugʻurta zahiralarini hisoblashda bir vaqtning oʻzida qayta sugʻurtaga berilgan shartnomalar boʻyicha qayta sugʻurtachining mazkur zahiradagi ulushini ham hisoblab boradi. Bu hisob har bir alohida sugʻurta shartnomasi boʻyicha hisoblanadi. N sondagi sugʻurta shartnomasi boʻyicha qayta sugʻurta shartnomasining brutto mukofoti -400 000 soʻm, qayta sugʻurta shartnomasi boʻyicha olingan komission mukofot – 90 000 soʻm, sugʻurtalovchi tomonidan shakllantirilgan ishlab topilmagan mukofot zahirasi – 200 000 soʻm, sugʻurta shartnomasi boʻyicha bazaviy sugʻurta mukofoti – 700 000 soʻm.

Qayta sugʻurtachining ishlab topilmagan mukofot zahirasiidagi ulushini toping?

Masala 4. Yongʻin natijasida zavodning tayyor mahsulot sexi yonib ketdi. YOngʻindan keyingi qolgan mulklar: bino qiymatining 15 foizini tashkil qiluvchi bino poydevori. Sex 6 yil oldin qurilgan boʻlib, uning balans qiymati 100 mln. soʻmdan tiborat.YOngʻindan keyin sex hududini tozalash uchun texnika va ishchi kuchi jalb qilindi va buning uchun 500 ming soʻm sarflandi. Amaldagi amortizatsiya qiymati – 2.2 foiz. Sugʻurta hodisasi natijasida zavodga etkazilgan zarar qiymatini aniqlang.

Echish.

$$Z = Q - E + X - QQ = 100\,000 - (100\,000 \times 0.022 \times 6) + 500 - (100\,000 \times 0.15 - 100\,000 \times 0.15 \times 0.022 \times 6) = 100\,000 - 13200 + 500 - (15000 - 1980) = 74\,280 \text{ ming soʻm.}$$

Masala 5. Yong'in natijasida zavodning yarim tayyor mahsulot sexi yonib ketdi. Yong'indan keyingi qolgan mulklar: bino qiymatining 15 foizini tashkil qiluvchi bino poydevori va 10 foizini tashkil etuvchi temirdan tayyorlangan stollar. Sex 7 yil oldin qurilgan bo'lib, uning balans qiymati 120 mln. so'mdan tiborat. Yong'indan keyin sex hududini tozalash uchun texnika va ishchi kuchi jalb qilindi va buning uchun 600 ming so'm sarflandi. Amaldagi amortizatsiya qiymati – 2.5 foiz. Sug'urta hodisasi natijasida zavodga etkazilgan zarar qiymatini aniqlang.

Masala 6. Mulkning sug'urta qiymati -50 mln. so'm, sug'urta summasi – 40 mln. so'm, zarar – 30 mln. so'm. Sug'urta qoplamasini hisoblang?

Echish:

$$W = 30 \times (40 : 50) = 24 \text{ mln. so'm}$$

Birinchi risk tizimi bo'yicha sug'urtalashda sug'urta qoplamasi zarar hajmi sug'urta summasidan oshmagan holda zarar miqdori hajmida qoplanadi. Ikkinchi risk qoplanmaydi.

Chegarali javobgarlik tizimi bo'yicha sug'urtalanganda sug'urta qoplamasining hajmi oldindan belgilangan chegara va erishilgan daromad darajasi o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi.

Masala 7. Iste'mol tovarlari bilan savdo qiluvchi do'konda 20 iyun kuni yong'in yuz berib tovarlarga zarar etdi. 1 iyun kuni do'konda 35 mln. so'mlik tovar mavjud edi. 1 iyundan 20 iyunga qadar 28 mln. so'mlik tovar kelib tushgan, kassadan 32 mln. so'mlik naqd pul bankka topshirilgan, 6 mln. so'm kassada mavjud. joriy yo'qotishlar 12 ming so'm.

1) Yong'indan keyin saqlab qolingan tovarlar hisoblab chiqilganda 20 mln. 36 ming so'mlik tovar qolganligi ma'lum bo'ldi. Muomala xarajatlari – 10%, savdo qo'shimchasi -25%. Mulklarni saqlab qolish va tartibga keltirish xarajatlari – 86 ming so'm. Sug'urta summasi sug'urta shartnomasi tuzilgan vaqtdagi tovarlarning haqiqiy qiymatiga nisbatan 70%.

Sug'urtalanuvchining zararini va sug'urta qoplamasi hajmini aniqlang?

Echish

Aniqlaymiz:

1) yongʻin sodir boʻlgan vaqtda doʻkondagi tovarlar qiymati = 35 mln. + 28 mln. – 32 mln. – 6 mln. – 12 ming = 24 mln. 988 ming soʻm

2) yoʻqotilgan va narxi tushirilgan mulklar qiymati = 24 mln. 988 ming soʻm – 20 mln. 36 ming soʻm = 4 mln. 952 ming soʻm

3) Zarar = 4 mln. 952 ming soʻm + 86 ming soʻm – (4 mln. 952 ming soʻm x 25 / (100+25)) + (4 mln. 952 ming soʻm x 10 / 100) = 4 mln 541 ming 800 soʻm

4) Sugʻurta qoplamasi hajmi = 4 mln 541 ming 800 soʻm x 0.7 = 3 mln. 179 ming 260 soʻm

Masala 8. Kredit shartnomasiga koʻra jami kredit summasi 20 mln. soʻm boʻlib, yillik 18 foiz bilan 8 oyga berilgan. Sugʻurta tarifi sugʻurta summasiga nisbatan 2,5 foiz. Sugʻurtalovchining javobgarlik chegarasi – 90 %. Kredit oluvchi olgan kreditini oʻz vaqtida toʻlay olmadi.

Sugʻurta mukofoti, zarar va sugʻurta qoplamasining hajmini aniqlang?

Echish

1) sugʻurta mukofoti qiymati:

$$(20 \text{ mln.} + 20 \text{ mln.} \times 0.18 \times (8 : 12)) \times 0.9 \times 0.025 = 106\,920 \text{ soʻm}$$

2) sugʻurtalanuvchining zarari hajmi:

$$(20 \text{ mln.} + 20 \text{ mln.} \times 0.18 \times (8 : 12)) = 4\,752\,000 \text{ soʻm}$$

3) sugʻurta qoplamasi

$$4\,752\,000 \times 0.9 = 4\,252\,500 \text{ soʻm}$$

